

BIBISH JO'RAYEVA

**O'ZBEK XALQ
PAREMALARINING
SINONIMIK LUG'ATI**

61/03
J-960

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

BIBISH JO'RAYEVA

**O'ZBEK XALQ
PAREMALARINING
SINONIMIK LUG'ATI**



Toshkent
«Kafolat print company» nashriyoti
2023

УДК 811.512.133(035)

ББК 53.59

Ж 96

Jo'rayeva Bibish

O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati. Toshkent:
«Kafolat print company» nashriyoti, 2023. 144 b.

Mas'ul muharrir:

A.Mamatov – *filologiya fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:

Y.Saidov – *filologiya fanlari doktori, professor*

T.Tosheva – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu kitob o'zbek xalq paremalari sinonimiyasiga bag'ishlangan dastlabki lug'at hisoblanadi.

Ishning kirish qismida maqolning matal hamda maqol-matal tipidagi paremalardan farqi tushuntirilib, maqol, matal va maqol-matal tipidagi paremalar bilan bog'liq sinonimiya hodisasi haqida fikr yuritilsa, lug'at qismiga ikki parema qatnashadigan sinonimik uyadan qirq to'rt parema qatnashadigan sinonimik uyagacha qamrab olingan.

Lug'at filolog olim va mudarrislar, o'zbek filologiyasi va jurnalistika fakultetlari talabalari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari hamda tilimiz boyligi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va Davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti buyurtmasiga binoan O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nashr etildi.

ISBN 978-9943-0012-1-3

© Bibish Jo'rayeva, 2023

© “Kafolat print company”
nashriyoti, 2023.

*Hayot osmonimdan yulduzi
so'nib, diydorlashishni mahshar
kuniga qoldirgan ONAJONIMning
o'chmas xotiralariga bag'ishlayman.*

**Sizsiz yashash dunyoda og'irdan og'ir,
Quyoshsiz dala-dasht sahrodir axir.
Dunyodagi eng shirin bol-u novvot ham,
Onasiz farzandga tuyular taxir.**

KIRISH

O'zbek xalqining o'q ildizi bobomiz M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asariga borib taqaladigan folklor merosi g'oyatda boy va xilma-xildir. Bu merosning salmoqli qismini tashkil etadigan maqollar o'zining tematik rang-barangligi, ularda ifodalangan fikrning qisqa, tushunarli va ixcham ekanligi bilan ajralib turadi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Fanda maqollarni xalq og'zaki ijodi, etnografiya, tilshunoslik obyekt sifatida tekshirish, idioma-ibora-maqol tizimida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish uzoq tarixga ega. Tilshunoslikda mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borishda muayyan natijalarga erishildi¹ va bunda maqol, asosan, turg'un birikma, aniqrog'i ibora tarkibida

¹ Воробьев П.Г. Пословицы и поговорки в художественном творчестве и письмах А.С.Пушкина // Русский язык в школе. – М., 1949. №4. – С. 18–22; Ефимов А.И. Фразеологический состав повести Карамзина «Наталья, боярская дочь». Материалы и исследования по истории русского литературного языка. Т. I. – М., 1949. – С. 69–95; Фразеологический анализ художественного произведения. «О языке художественных произведений». – М., 1954. – С. 181–216. Язык сатиры Сальтыкова-Щедрина. – М.: МГУ, 1957; Бинович Л. О многозначности идиом // Иностранные языки в школе. – М., 1952. №5. – С. 27–32; Базыленко А.М. Устойчивые словосочетания в языке Якуба Колоса. – Минск, 1952. – 28 с.; Рыбникова М. Разговорная фразеология в языке Маяковского. Сборник «Творчество Маяковского» – М., 1952. – С. 437–479; Булаховский Л.А. Идиомы и фразеологические единицы. «Введение в языкознание», часть II. – М., 1953. – С. 32–35; Кунин А. О фразеологических сращениях в современном английском языке // Иностранные языки в школе. – Москва, 1953. №3. – С. 28–31; Ахатов Г.Х. Фразеологические выражения в татарском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казан, 1954. – 22 с.; Реформатский А.А. Лексикализация, идиоматика, фразеология. «Введение в языкознание». – М., 1955. – С. 90–97; Ожегов С.И. О структуре фразеологии. Лексикографический сборник. Вып. II. – М., 1957. – С. 31; Ткаченко В.П. Вопрос о пословицах как материале фразеологии. Уч. зап. Саратовс. гос. пед. инс. Вып. XXX, 1958. – С. 123–127; Гаврин С.Г. К вопросу об отличии пословицы от поговорки в совр. русс. лит-ном языке. Уч. зап. Пермского госпединститута. Вып. 17. 1958. – С. 42; Каррисев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад, 1961. – 162 с.; Сарсенбаев Р. Лексико-стилистические особенности казахских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1961. – 24 с.

o'rganila boshlandi, frazeologizm obyektiga tor va keng ma'noda qarash shakllandi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmning obyektini sifatida ibora, idioma, maqol, matal kabilarning ilmiy tadqiqiga doir², o'zbek yozuvchi, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina izlanishlar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida maqolning ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratilgan ishlar bajarildi³, maqolning lingvistik xususiyatlarini ilmiy o'rganish ham boshlandi⁴.

O'zbek tilshunosligida maqolning sintaktik xususiyatlari X.Abdurahmonovning nomzodlik ishida o'rganilgach, olim izlanishlarini davom ettirib, o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari tilining sintaktik xususiyatlarini atroflicha tadqiq etdi. Keyingi ishda o'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gaplar va

² Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – 18 с.; Саломов Г. Бадний таржиманинг лексик-фразеологик масалалари: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 1964. – 124 б.; Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 384 б.; Рузикулова М. Идиоматика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – С. 22; Каххарова Х. Фразеология Абдуллы Кадыри: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1985. – 24 с.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.: Фан, 1991. – 274 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-усlubий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Т., 1993. – 50 б.

³ Назарова Х. Ҳ.Ҳ.Ниёзий асарларининг тили: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 1944. – 114 б.; Шозобдурахмонов Ш. «Равшан» поэмаси тилининг бадний хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 1949. – 128 б.; Ойбек романларининг тили ва стили // Шарқ юлдузи. – Т., 1955. №10; Пинхасов Я. Фразеологические выражения в языке произведений Хамиди Алимджана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1953. – 18 с.; Ўзбек тили фразеологияси хақида. – Т.: Ўқитувчи, 1957. – 27 б.; Шомаксудов А. Язык сатиры Мукуми (лексика и фразеология): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1956. – 18 с.; Абдуллаев В., Дониёров Х., Мирзаев С. Шиддаткор одамлар кнессаси // Шарқ юлдузи. – Т., 1960. №2. – Б. 115–122; Хусаннов М. Фразеология прозы писательницы Айдын: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959. – 18 с.; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (Маҳорат ва тил хақида мулоҳазалар). – Т.: Ўзадабийнашр, 1962; Қўчқортоев И. А.Каххорнинг фразеологик маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 1965. – 134 б.; Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Т., 1965. – 24 б.; Абдуллаев О. Эмоционально-экспрессивная лексика в современной узбекской прозе (по роману Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара»): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1968. – 20 с.; Азизхонова Л. «Навоний» романидаги фразеологизмларнинг рус тилига таржимаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1970. №3. – Б. 54–57; Аскарлов С. А.Кодирий ижодида фольклорнинг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. №1. – Б. 19–22; Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1974. №4. – Б. 52–55; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши / Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарканд, 1971. – Б. 84–87; Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Т.: Фан, 1971. – 176 б.

⁴ Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.: АН УзССР, 1964. – 18 с.; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Т., 1977. – 48 с.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-усlubий кўлданлиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Самарканд, 2002. – 24 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Т., 2007. – 286 с.

soʻz birikmalarining asosiy koʻrinishlari, ularning morfologik, sintaktik, baʼzi maʼnoviy-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan.

M.Sadriddinovaning ishida oʻzbek maqol va matallarining lugʻaviy xususiyatlari tadqiq etilib, maqol va matallar leksikasi, bir tomondan, oʻzbek adabiy tili leksikasi bilan, ikkinchi tomondan esa lahja va shevalar leksikasi bilan qiyosiy oʻrganildi.

Muallifning nomzodlik dissertatsiyasida maqollarning maʼnoviy-uslubiy jihatlari: koʻp maʼnoliligi, sinonimligi, variantliligi, uslubiy xususiyatlari tadqiq etildi⁵.

P.Bakirovning tadqiqotida nominasentrik⁶ maqollarning semantik va struktur xususiyatlari rus, oʻzbek va qozoq tili materiallari asosida batafsil izohlandi⁷.

Maqollarning lingvistik shakllanishi masalalariga N.V.Zimovetsning maqolasida⁸, I.Sirotning monografiyasida⁹, B.B.Mansurov¹⁰ va S.Basharan¹¹larning dissertatsiyalarida dahl qilingan boʻlib, oʻzbek tilshunosligida ushbu masala muallifning doktorlik dissertatsiyasida¹² ilk bor tadqiq etildi.

Oʻzbek tilshunosligida maqollarni oʻrganishning hozirgi ahvoli respublikamiz olimlarining bu sohada sezilarli yutuqlarni qoʻlga kiritganligidan dalolat beradi. Lekin tilshunosligimiz oldida kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar juda koʻp. Shulardan biri paremlar tarkibiga kiruvchi boshqa lisoniy birliklar: matallar, maqol-matal tipidagi paremlarning ham maqol singari oʻziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish va shu asosda ularning lisoniy mavqeyini belgilashdir. Ushbu lugʻat shu yoʻnalishdagi dastlabki qadam boʻlib, xato va kamchiliklari uchun oldindan uzr soʻraymiz.

⁵ Жураева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. – Самарқанд, 2002. – 136 б.

⁶ Эга ва кесими бош келишидаги от ва ҳаракат номи билан ифодаланган мақоллар. Бу атома илк марта профессор П.Бакировнинг тадқиқотида қўлланган.

⁷ Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Т., 2007. – 286 с.

⁸ Зимовец Н.В. К вопросу о происхождении английских пословиц и поговорок / Актуальные вопросы переводоведения и практики перевода. – Россия. Г. Белгород. 2013. – С. 112–118.

⁹ Сирот И.М. Русские пословицы библейского происхождения. – Брюссель: Жизнь с Богом, 1985. – 128 с.

¹⁰ Мансуров Б.Б. Религиозно-хадисный аспект в казахских пословицах и поговорках: Автореф. дис. ... док. философ. (PhD) по филол. наук. – Ашхабад, 2018. – 24 с.

¹¹ Башаран С. Hadislerin Turk Atasozlerine Tesiri. – Uludağ Üniversitesi Yayınları, Bursa, 1994. – 182 с.

¹² Жураева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дис. – Самарқанд, 2020. – 232 б.

MAQOL, MATAL, MAQOL-MATAL TIPIDAGI PAREMALAR

Tilshunoslikda frazeologizm, maqol va matal, aforizmlar barqaror birikmalar nomi ostida o'rganilib kelinmoqda. Biz esa paremlar nomi ostida maqol, matal, maqol-matal tipidagi paremlar va aforizmlarni birlashtirishni lozim deb topdik. Bu birliklarning barchasi pand-nasihati ifodalashga xoslanganligi bois ularni paremlar deb nomlash maqsadga muvofiq. Ammo ayni paytda har bitta birlikning o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

Tilshunoslikda maqol va matallarni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Matal nutqda axborot berish vositasi bo'lsa, maqol shu axborotni jonli timsollarda etkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi. Masalan, matal: *"Xavf-xatardan qo'rqqan maqsadga yetolmas"*.

Shu ma'noning maqollarda ifodalanishi:

1. *Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.*
2. *O'g'ridan qo'rqqan mol yig'mas.*
3. *Uchqundan qo'rqqan temirchi bo'lmas.*
4. *Ilondan qo'rqqan olachilvirdan hatlamas.*
5. *Bo'ridan qo'rqqan to'qayga kirmas.*
6. *Chigirtkadan qo'rqqan ekin ekmas.*
7. *Kuchukdan qo'rqqan gado bo'lmas.*
8. *Ayiqdan qo'rqqan o'rmonga kirmas.*
9. *Tulkidan qo'rqqan tovuq boqmas.*

Matallarning shakliy ko'rinishi, asosan, o'zgarmaydi (grammatik shakllar o'zgarishi bundan mustasno, albatta):

Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.

Maqollar timsollar vositasida ish ko'rar ekan, jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bog'liq holda ularning timsollari tizmasi – shakli o'zgarib turadi:

Bir qinga ikki qilich sig'magay ("Yulduzli tunlar", 270-bet).

Ikkita qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas ("Jimjitlik", 256-bet).

Demak, maqollar grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir.

Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o'z ma'nosida – to'g'ri ma'noda qo'llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi.

Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko'chma ma'noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo'lmay, faqatgina to'g'ri ma'noda qo'llanishida ko'rinadi.

Rost, maqol va matal orasiga Xitoy devorini o'rnatmoq mumkin emas, bunday qilib bo'lmaydi ham. Chunki jamiyatda bo'lgani singari tilda ham bir necha birliklar yonma-yon yashar ekan, albatta, ular bir-biriga ta'sir qiladi, o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabat natijasi o'laroq bir-biriga tomon siljishlar, o'tishlar bo'lib turadi. Masalan: "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" maqoliga e'tiborni qarataylik. Jahonning ko'pgina xalqlari orasida tarqalgan bu maqol insoniyat yaratgan eng qadimiy maqollardan biri bo'lib, uni melodiy V asrdayoq lotin adibi va tilshunosi F.Makrobiiy o'z "Grammatika" sida keltirgan. Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, qarg'a-quzg'unlar odamning yo biror hayvonning ochiq yerda qolib ketgan murdasini qo'rib qolsa, avval uning ko'zini cho'qib yerlarda, keyin go'shtini yeya boshlar ekan. Ammo tirik qarg'a va quzg'un o'lik qarg'a va quzg'unning ko'zini cho'qimas ekan¹³. Demak, bu paytda hikmat o'z ma'nosida ishlatilgan bo'lib, matal sanalgan. Vaqt o'tishi bilan idiomalashish natijasida maqolga aylangan. Olim B.Soatovning "*ayrim matallar davrlar o'tishi bilan maqolga aylanadi*"¹⁴ degan qarashi ham fikrimizga asos bo'la oladi.

Lekin bu holat maqol va matallarni batamom birlashtirib yuborish yoki ikki terminni juftlab (maqol-matal tipidagi paremlar) qo'llagan holda ularning xarakterli xususiyatlarini qo'shib o'rganish degani emas, aslo. Chunki tilda maqol-matal tipidagi paremlar deb yuritiluvchi birliklarning o'zi ham alohida holda mavjud bo'lib, o'zida maqollik va matallik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday ifodalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda bir qism so'zlar o'z ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi qismi ko'chma ma'no ifodalaydi:

¹³ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. – Т., 1988. – Б. 321.

¹⁴ Соатов Б. Мақолларининг мatal ва топшмоқларга муносабати // "Ўзбек тили ва адабиёти". 1987, 5-сон. – Б. 38.

*Boy boyga boqar,
Suv soyga oqar.
Hamsoya hamsoyadan ulgi olar,
Qovun qovundan rang.*

Paremiologik lug'atlarda maqol-matal tipidagi paremalarning quyidagi shakllarini uchratish mumkin:

1) soʻz, juft soʻz oʻz maʼnosida ishlatiladi:

Sababsiz oyoqqa tikan kirmas.

Ilm-u hikmat suvni yondirar.

2) gap oʻz maʼnosida boʻladi:

Asli dushman el boʻlmas,

Etakni kessang yeng boʻlmas.

3) bir necha gap oʻz maʼnosida boʻladi:

Yomon otga yol bitsa,

Yoniga toʻrsuq boylatmas.

Yomon erga mol bitsa,

Yoniga qoʻshni yoʻllatmas,

Yoʻllatsa ham tindirmas.

Bunday paremalar maqol va matal oraligʻida turganligi, shuningdek, hikmat ifodalashga xoslangani uchun lugʻatga kiritildi:

Sabab bilan savat aravaga chiqar.

Sababsiz oyoqqa tikan kirmas.

Sababsiz qush ham uchmas.

Shunday qilib, ushbu lugʻat paremalar: maqol, matal va maqol-matal tipidagi paremalarning oʻzaro sinonimik uyalaridan tarkib topgan.

PAREMALARDA SINONIMLIK

Maʼnodoshlik hodisasi dastlab leksik hodisa sifatida kuzatilgan va bu borada juda katta ishlar amalga oshirilgan¹⁵. Lekin tilshunoslikda shunday sinonimik hodisalar ham mavjudki, hali ular oʻzining aniq izohini topganicha yoʻq. Bulardan biri paremalar sinonimiyasidir. Paremalar sinonimiyasi nafaqat oʻzbek tilshunosligida, hattoki turkiyshunoslikda ham alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan.

¹⁵ Исамухамедова С. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида синонимлар. АКД. – Т., 1963. – 18 б. Данияров А. Стилистические функции синонимов в современном узбекском языке. АКД. – Самарканд, 1967. – 18 стр. Юнусов Р. Полисемия и синонимия имён существительных места в современном узбекском литературном языке. АКД. – Т., 1974. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изохли лугати. – Т., 1974.

Rus tilshunosligida esa tadqiqot obyektini sifatida tadqiq etilgan-u¹⁶, ammo sinonim paremlar lug'ati yaratilmagan. Bizningcha, buning sababi shundaki, haligacha faqat turkiyshunoslikda emas, umuman rus tilshunosligida ham maqollarning lisoniy o'rmi haqida qat'iy bir fikrga kelingan emas. Natijada maqollar leksik birliklar sinonimiyasi bilan bog'liq ishlarda frazeologiyaniing obyektini sifatida¹⁷, sintaktik uslubi-yatda esa sodda yoki qo'shma gap sinonimiyasi bilan aloqador ishlarda fikrni asoslash uchun misol tariqasida keltirish bilan chegaralanadi¹⁸, xolos. Matal hamda maqol-matal tipidagi paremlarning lisoniy xususiyatlari esa hozirga qadar o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Sinonim paremlar borliqda mavjud bo'lgan bir-biriga o'xshash harakat-holat, hodisalar mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday paremlar bir mazmunni turli xil shakllarda, obrazlarda ifodalaydi. Sinonim paremlar umumiy mazmunni ifodalashi jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, o'ziga xos ma'no nozikliklari, ayrim qo'shimcha ottenkalari bilan o'zaro farqlanib turadi. Paremlar o'zaro ma'nodoshlik munosabatida bo'lishi uchun, asosan, quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- 1) yagona ma'no asosiga egalik;
- 2) bir mavzuviiy guruhga tegishlilik;
- 3) har bir parema alohida obraz asosiga qurilgan bo'lishi;
- 4) ayrim mazmun nozikliklari va qo'llanish darajasi bilan farqlanishi.

Sinonim paremlarning eng asosiy omili ularning shakllaridan, obrazlaridan qat'iy nazar mazmun jihatidan biri ikkinchisining o'rnida qo'llana olish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. *"Bunday almashtirish natijasida ma'noda, stilistik bo'yoqda ma'lum o'zgarish yuz beradi. Bu – tabiiy. Aks holda almashtirish o'z mantiqini yo'qotib qo'yadi. Almashtirish natijasida nimadandir xalos bo'lamiz, nimagadir ega bo'lamiz. Ana shu "nimalar" sinonim haqida gapirish uchun asos bo'ladi. Aks holda sinonimga emas, dubletga ega bo'linadi"*¹⁹ (kursiv – bizniki):

1. It qutursa egasini qopar.

¹⁶ Савенкова И.Е. Структура и семантика пословиц поговорок современного русского языка. АКД. – М., 1989. – 16 стр.

¹⁷ Савенкова И.Е. Структура и семантика пословиц и поговорок современного русского языка. АКД. – М., 1989. – 16 стр.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. АДД. – Т., 1993. – 50 б.

¹⁸ Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка. АДД. – Т., 1991. – 60 стр.

¹⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. – Б. 55.

2. Sichqonning o'lgisi kelsa mushuk bilan o'ynashar.
3. Echkining kaltak yegisi kelsa cho'ponning tayog'iga surkalar.
4. Ilonning o'lgisi kelsa shig'irda yotar.
5. Ajali yetgan kiyik adirga qochar.
6. Parvonaning o'lgisi kelsa sham bilan o'ynashar.
7. O'lgisi kelgan chivin bolga qo'nar.
8. Bo'ri qutursa o'z qavmiga chopar.
9. Buqa semirsa egasini suzar.
10. To'rg'ay qutursa burgutga chopar.
11. Eshak semirsa egasini tepar.
12. Ajali yetgan tulki ovchining oldidan chiqar.
13. Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar.
14. Mushukning o'lgisi kelsa arslon bilan o'ynashar.

Ushbu paremalarning barchasida bo'ladigan baloga aksariyat hollarda kishining o'zi sababchi bo'ladi: o'zidan jismoniy, moddiy yoki mavqeyi jihatidan kuchli bo'lgan, yuqori turadigan odam bilan olishadi va o'z qilg'iligining qurboni bo'ladi, – degan umumiy mazmun ifodalangan. Yagona shu mazmun orqali ular bir mavzuviy guruhga birlashgan. O'zaro ma'nodoshlik tashkil qiluvchi bu paremalarning har biri alohida obraz asosiga qurilgan va ayni paytda har qaysi parema o'zining ma'no nozikligi hamda qo'llanish darajasi bilan farq qiladi. Masalan, «*Ilonning o'lgisi kelsa shig'irda yotar*», «*Ajali yetgan kiyik adirga qochar*» kabi maqollar kundalik nutqimizda juda kam uchraydi.

Yuqoridagi paremalarning mazmunan umumiy bir fikrni ifoda etishi hamda o'zaro farqli tomonlari shuni ko'rsatadiki, biz muayyan nutq momenti sharoitida ularning kerakli turini tanlash imkoniyatiga egamiz. Tanlash tarzi paremalarning mazmuniy va uslubiy tomoniga asoslangan holda ma'lum bir kontekst talabi bilan yuzaga chiqadi.

Tildagi ma'lum bir mazmuniy munosabat nutqda bir necha paremalar yordamida reallashadi. Turli paremalar vositasida bir xil mazmuniy munosabatning ifoda etilishi esa sinonim paremalar guruhini – qatorini yuzaga keltiradi. Paremalarning sinonimik qatorini kuzatish, o'z navbatida, har bir paremaning mazmunini aniq belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tilni yaxshi bilish, uning boy imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun, ayniqsa, sinonimik qatorga ega bo'lgan paremalarni bilish nihoyatda zarur. Masalan, quyidagi paremalar sinonimik qatorini olib ko'raylik:

1. Sayoz daryo shovqin oqar.
2. Tuxum tug'maydigan tovuq ko'p qoqog'laydi.

3. Ashula bilmaganning avji ko'p.
4. Arava qancha quruq bo'lsa shuncha taraqlaydi.
5. Sutsiz sigir ko'p ma'raydi.
6. Nog'oraning ichi po'k, ovozi baland.
7. Surnay chalishni bilmaganning ohangi ko'p.
8. Bo'sh tegirmon guldirar.
9. Sutsiz sigir suzag'on bo'lar.
10. Epsiz sozanda sozin cho'zar.

Bu sinonimik uyadagi barcha maqollar qo'lidan ish kelmaydigan, biror-bir ishga uquvi yo'q kishilar ko'zga ko'proq tashlanishga harakat qiladilar, ular juda ham sergap, mahmadana bo'ladilar, degan mazmunni ifoda etishga xizmat qiladi. Qatordagi paremalarning o'zaro sinonim yoki sinonim emasligini aniqlash uchun eng qulay yo'l ularni kontekstda bir-biri bilan almashtirib ko'rishdir:

– *Gapimni bo'laverma, iltimos... Arava qancha quruq bo'lsa, shuncha taraqlaydi, deganga o'xshab, shovqin solib, yugurib-yelganim sayin ich-ichimdan nimadir yo'qolib, meni go'yoki tashlab ketyapti* («Egilgan bosh», 95-bet).

Paremalar sinonimik qatorida qo'llanish darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, so'zlari umumiste'molda bo'lgan paremani dominant desa bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi ma'nodoshlik qatorida «*Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmas*» maqolini dominant deyish mumkin. Lug'atda dominant parema birinchi o'ringa qo'yilib, mundarija ham dominant paremalar asosida shakllantirildi.

O'zbek xalq paremalari lug'atlariga tayanib, 2000 yaqin paremani qamrab olgan 285 tadan ortiq sinonimik uya topishga erishildi va bir sinonimik uyaga eng ko'pi bilan 44 ta parema birlashgan.

Paremalar sinonimiyasi va ko'p ma'nolilik

Sinonimiya asosida ma'no munosabati yotadi. Uyalardagi ma'nodosh paremalarni kuzatish natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, ba'zi paremalar yagona ma'no doirasida harakat qilsa, boshqalari bir necha ma'noga ega bo'lib, har qaysi ma'nosi bilan alohida-alohida sinonimik qator tashkil etadi. Demak, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik nuqtayi nazaridan paremalar sinonimiyasini dastlab ikkiga bo'lish mumkin:

1. Bir ma'noli paremalar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalari.
2. Ko'p ma'noli paremalar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalari.

Bir ma'noli paremlar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalari

Bunday sinonimik uyalarga taalluqli bo'lgan paremlar orasidagi munosabat sodda bo'lib, ularning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri anglashilib turadi va hech qanday izoh talab qilmaydi. Masalan:

1. O'lma, eshagim, arpa pishar.
2. Muso qo'y keltirar.
3. O'lma, otim, yoz kelur, yo'ng'ichqa bitar.
4. O'lmagan qul oltin kosadan suv ichar.
5. Bola, yig'lama, senga oymomani olib beraman.
6. Bo'sh ombordan – botmon g'alla.

Ushbu sinonimik uyadagi barcha maqollar nuqul yolg'on so'zlar bilan kishi qo'ynini puch yong'oqqa to'ldiradigan, quruq va'dalar berib yuradigan kishilarga nisbatan istehzo, kinoya tarzida qo'llanadi.

Ko'p ma'noli paremlar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalari

Bunda ikki hodisani farqlash lozim:

1. Sinonimik uyadagi biror parema ko'p ma'noli bo'ladi.
2. Sinonimik uyadagi barcha paremlar ko'p ma'noli bo'ladi.

Biror parema ko'p ma'noli bo'lgan ma'nodoshlik uyalari

1. *Ot tepkisini ot ko'tarar.*
2. O'z gavroning o'zingga qattiq tegmas.
3. Enasi tepgan qulunning eti og'rimas.
4. Ho'kizning muguzi o'ziga og'irlik qilmas.

Bu paremlar tengqurlar, do'stlar, qon-qarindoshligi bo'lgan kishilar bir-birlarining qattiq-qurum gaplarini ko'taradilar yoxud ko'tarishlari kerak, degan umumiy ma'no bilan bir sinonimik uyaga birlashadi:

Men ham Shomurod akamning allaqaysi jihatini emas, o'zini yaxshi ko'rardim. Onam qancha yolvordi. Boshingda otang bo'lmasa, ot tepkisi otga o'tmaydi, tog'angning o'g'liga uzataman, deb uvvalo yalindi, ko'nmadim ("Ikki eshik orasi", 223-bet).

"Ot tepkisini ot ko'tarar" maqoli yuqoridagi umumiy ma'nodan tashqari yana ikki ma'noni:

1-ma'no: har kim o'z teng-to'shi bilan o'tirib-turishi, yashashi, umrguzaronlik qilishi lozim.

2-ma'no: har kim o'z teng-to'shi bilan olishishi, kurashishi, kuchini o'z tengiga ko'rsatishi kerak degan umumiy ma'nolarni ham ifodalaydi va bu ma'nolar vositasida quyidagi maqollar bilan sinonimlik tashkil etadi:

1. *Ot tepkisini ot ko'tarar.*
2. Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan.
3. O'rdak o'rdak bilan uchar,
G'oz g'oz bilan uchar.
4. Kabutar bo kabutar, jins bo jins.
5. Bosh – boshga, Yorg'uchoq toshga.
6. Tezakchining tengi bor,
O'roqchining o'mi bor.

Shuning uchun ham lug'atda bitta parema bir ma'nosi bilan bir sinonimik uyaga, ikkinchi ma'nosi bilan esa boshqa sinonimik uyaga kiritildi.

Barcha parema ko'p ma'noli bo'lgan ma'nodoshlik uyalari

1. *Bir tomchi suv chumoliga daryo ko'rinar.*
2. *Qaldirg'ochga tuy nuk – darvoza.*

Bular ikki ma'nosida sinonimiya hosil qiladi:

1-ma'no: ozgina ish ham ko'p va og'ir tuyulib, peshanasini tirishtiradigan, bo'yin tovlaydigan, ishyoqmas, dangasalarga qarata kinoya tarzida aytiladi.

2-ma'no: ba'zi birovlar mensimaydigan ozgina narsa yoki mablag' kambag'al, o'rtamiyona odamning ko'ziga dunyo bo'lib ko'rinadi.

1. *Ataladan suyak chiqibdi.*
2. *Kesakdan olov chiqibdi.*
3. *Qarqunoqdan bulbul chiqibdi.*

Bular to'rt ma'nosida sinonimiya hosil qiladi:

1-ma'no: xasis odamdan ittifoqo biror saxovatli ish chiqib qolsa;

2-ma'no: hech narsa bilmaydigan odamdan biror ma'noli fikr chiqib qolsa;

3-ma'no: hech indamay jim yuruvchi kishi biror-bir qiliq qilib qo'ysa.

4-ma'no: doim yaxshi deb maqtab yurgan kishingiz biror nojo'ya ish qilib qo'ysa.

Lug'atda bunday sinonimik uyalarning ma'nolari ketma-ket izohlandi.

Sinonim paremlar asosida yotgan obraz

Sinonim paremlarning o'zaro ma'nodoshligini ta'minlovchi shartlardan biri sinonimik uyadagi har bir paremlarning alohida obraz asosiga qurilgan bo'lishidadir. Bunday paremlarning shakllanish manbayi, ular asosida yotgan voqelik boshqa-boshqa bo'ladi. Ushbu holat sinonim paremlarning ko'pchilik qismiga xos xususiyat sanaladi. Ammo shunday sinonimik paremlar borki, ular asosida ayni bir obraz yotadi. Shunga qaramay bunday paremlarni ham o'zaro sinonim deb atashga to'g'ri keladi. Demak, bir uyaga birlashuvchi sinonim paremlar ular asosida yotgan obraz nuqtayi nazaridan ikki xil:

1. Asosida boshqa-boshqa obraz yotuvchi sinonim paremlar.
2. Asosida ayni bir obraz yotuvchi sinonim paremlar.

Asosida boshqa-boshqa obraz yotuvchi sinonim paremlar

Sinonim paremlarning katta qismi shu guruhga mansub bo'lib, ular hech qanday izohga muhtoj emas. Masalan:

Ikki parema qatnashadigan uya

Tuya bo'yiga ishonib yildan quruq qolibdi.

Bo'yiga ishonib qamish bo'ya bo'libdi.

Uch parema qatnashadigan uya

Bir qo'chqorning boshi ketguncha, necha to'qlining boshini yeydi.

Bitta qovun pishguncha, yuzta sapcha uzilib tushadi.

Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi.

Asosida ayni bir obraz yotuvchi sinonim paremlar

Aslida barcha sinonim paremlar uchun yagona, umumiy belgi sifatida boshqa-boshqa obrazga asoslangan bo'lishini talab etish izchillikka olib keladi. Ammo yig'ilgan misollar bunday yo'l tutishga imkon bermaydi. Tilimizda shunday paremlar ham uchraydiki, ular asosida ayni bir obraz yotadi. Lekin bu xususiyat ularni bir paremlarning variantlari sifatida qarash uchun asos bo'lolmaydi. Chunki garchi paremlar bir obraz asosiga qurilgan, aslida bir manbadan o'sib chiqqan bo'lsa ham, ulardagi leksik tarkib va gap bo'laklarining joylashuvi tamoman bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga ba'zi bir o'rinlarda obraz tushirib qoldirilib, obraz belgisi asosiy o'ringa chiqqan holatlar

ham uchraydi, bu esa ularni yangi mustaqil parema sifatida qarash uchun imkon beradi:

1. Ziqna birga unamay duvajaga tushadi.

2. Mumsikning xarji ikki baravar.

3. Bir ellik deb ikki ellikdan ajralar.

Shu sababli bunday paremalar ham lug'atdan o'rin olgan.

Yoki:

indamay jim yuruvchi kishilardan kutilmaganda bir narsa chiqib qoladi, demak, bundaylardan ko'p narsani kutsa bo'ladi. Shuning uchun bu toifa kishilarga nisbatan befarq bo'lmaslik lozim:

1. Indamasdan ish chiqar.

2. Yuvosh otning tepkisi qattiq bo'ladi.

3. O'tmas pichoq qo'l kesar.

4. Yuvosh mushuk qattiq timdalar.

5. Qopag'on it tishini ko'rsatmaydi.

6. Jim oqar suv to'g'on buzar.

7. Indamagan it qopar.

8. Yuvoshning muguzi ichida.

9. **Tinch oqar suv g'arq qilar.**

10. Sekin yoqqan yomg'irdan qo'rq.

11. Yorishib yoqqan havodan qo'rq.

12. Zaharli ilonning terisi yumshoq.

13. Suvning tiniq oqqanidan qo'rq.

14. Yuvosh it hurmay tishlar.

15. Yuvoshdan yo'g'on chiqar.

16. Yer boqardan yer qo'rqar.

17. Suvning sekin oqqanidan qo'rq,

Odamning yerga boqqanidan qo'rq.

18. **Pismiq-telba farq qilar,**

Tinch oqqan suv g'arq qilar.

Sinonim paremalarning ma'no qirrasida farqlanishi

Ikki va undan ortiq paremalarning o'zaro sinonim bo'lishi shartlaridan biri ularning ma'no jihatidan o'xshash bo'lishidir. Sinonim deyiluvchi hodisalarda ana shunday ma'no umumiyati bo'lishi shart. Lekin shu bilan birga har bir sinonim parema uchun umumiy ma'no

o'zanidan tashqari o'ziga xos ma'no qirrasini ham mavjud bo'lishi mumkin. Ko'pchilik sinonimlarda xuddi shunday xususiyat bor:

1. Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi.
2. Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar.
3. Yaxshi gapga ilon inidan chiqar.
4. Sigirni ham silasa sut berar.

Birinchi, ikkinchi paremalarda umumiy ma'no o'zanining kattalik semasi birinchi planda turgan bo'lsa, uchinchi paremada ayyorlik, vahshiylik ma'no qirrasini bo'rtib turibdi va nihoyat oxirgi paremada esa yuvoshlik ma'nosi ustun.

Ma'no qirrasida farqlanish sinonimlarga xos asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Lekin kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ba'zan bu qoidadan chetga chiqish hollari ham uchraydi. Ya'ni ba'zi sinonim paremalari ma'no qirrasini jahatdan deyarli farq qilmaydi:

1. O'rik o'rikni ko'rib oqarar.
2. Qovun qovundan rang olar.
3. Uzun uzumdan shira olar.

Bu uyadagi sinonimlar teng ma'no va qurilishga ega bo'lib, faqat asosida yotgan obraz hamda nutqda oz-ko'p ishlatilishi jihatidan farq qiladi.

Kontekstda bunday sinonim paremalarni bir-biri bilan o'zaro almashtirish ma'noga deyarli ta'sir etmaydi.

Ko'z ilg'amas uzoq davrlardan buyon o'zbek va tojik xalqi bir zaminda yashab kelayotgani bois nafaqat o'tirib-turish-u, muomala madaniyatida, balki nutqida ham bir-birlarining chiroyli qochirimli so'zlaridan, iboralaridan, shuningdek, paremalaridan foydalanishadi. Bu holat yozma adabiyotga ham ko'chgan bo'lib, ko'plab tojikcha paremalari o'zbek tilidagi badiiy asarlarga kirgan va bu barcha uchun birday tushunarli. Shuni inobatga olib bir qator tojikcha paremalarni ham sinonimik uyalarga kiritishni lozim topdik:

1. Umidli dunyo, noumid shayton.
2. *To resha dar obast umedi samarast*²⁰.
3. Chiqmagan jondan umid.
4. Umid o'rga tortar, umidsizlik – go'rga. (o'r – balandlik, tepalik.)
5. Umid o'lmas, rizq kamimas.

²⁰ Daraxt ildizi suvda ekan, meydan umid bor.

Sinonim paremalarning grammatik qurilishi

Bir hodisani turlicha ifodalab keluvchi ikki va undan ortiq sinonim paremlar grammatik qurilishi jihatidan bir xil ham, turlicha ham bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ular ikkiga bo'linadi:

1. Grammatik qurilishi bir xil sinonim paremlar.
2. Grammatik qurilishi har xil sinonim paremlar.

Grammatik qurilishi bir xil sinonim paremlar

Bunda bir uyaga birlashuvchi paremlarning barchasi bir xil grammatik qurilishga ega bo'ladi:

1. Bo'yingga qarab to'n bich.
2. Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
3. Qulochingga qarab ketmon chop.

Ushbu sinonimik qatorda barcha paremlar tuzilishiga ko'ra sodda gap qurilishiga teng keladi va gap bo'laklarining joylashuvi ham bir xil. Xuddi shunday sinonimik qatorni qo'shma gap qurilishiga teng keluvchi paremlarda ham ko'rish mumkin:

1. Ikki tuya olishar, o'rtada pashsha yanchilar.
2. Ikki ayg'ir tishlashar, o'rtada so'na yanchilar.
3. Ikki ot tepishsa, o'rtada eshak o'ladi.
4. Ikki ajdar urishsa, o'rtada toshbaqa pachoq bo'lar.

Ish davomida shunday paremlar sinonimik uyalariga duch kelindiki, ularda grammatik qurilish bir xil. Masalan: *Atlas ko'ylakka – bo'z yamoq*, *Egri to'nkaga – egri to'qmoq*, *Yirtiq to'nga – zar yamoq*, *Oltin uzukka – olmos ko'z*. Garchi grammatik qurilish bir xil bo'lsa-da, ammo ularni bir sinonimik uyaga umumlashtirib bo'lmaydi. Chunki har bir paremlarning ma'nosi o'zgacha bo'lib, shu o'zgacha ma'no asosida ular turli sinonimik uyaga kiradi. E'tibor bering:

Ijtimoiy kelib chiqishi, aqli, husn-halovati, tarbiyasi va h.k. lari tomonidan talab darajasida bo'lgan kishiga turli jihatdan o'ziga mos tushmagan odam yo'liqsa, turmush o'rtoq bo'lsa va h.k. shunday hollarda kinoya tarzida aytiladi:

1. Atlas ko'ylakka – bo'z yamoq.
2. Mis qozonga – loy tuvoq.
3. Zarvaraqqa – bo'z yamoq.
4. Amirkon mahsiga – ukpa kavush
5. Oltin uzukka – shisha ko'z

SamDTU
axborot-resurs markazi

319161

Yomon odamlar bilan o'ziga yarasha muomalada bo'lish lozim degan ma'noda yoki yomon xarakter-xususiyatli kishilarga xuddi shunday juftlik uchraganda ularga kinoya tarzida aytiladi:

1. Egri to'nkaga – egri to'qmoq.
2. Egri mo'ridan – egri tutun.
3. Eshakka yarasha tushovi.
4. Qiyshiq daraxtning ko'lankasi ham – qiyshiq.
5. Egri tayoqning butog'i burun yirtar.
6. Egarning soyasi ham – egri.
7. Teng tengi bilan,
Tezak qopi bilan.

Har jihatdan, ya'ni ma'naviyati, dunyoqarashi, bilim doirasi, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli va h.k. past bo'lgan kishiga har tomonlama yetuk, ma'naviyati boy, dunyoqarashi keng, bilim doirasi chuqur, yashash tarzi juda yaxshi va h.k. inson yo'liqsa yoki chor-nochor yashovchi, qandaydir kamchiligi, qusuri bor kishiga kattaroq, yaxshiroq biror narsa loyiq ko'rilsa, shunga kinoya tarzida aytiladi:

1. Kir ko'ylakka – kishan yoqa.
2. Yirtiq to'nga – zar yamoq.
3. Kal boshga – shamshod taroq.
4. O'tmas pichoqqa – zarhal sop.
5. Temir qarmoqqa – oltin baliq.
6. Bo'z ko'ylakka sadaf tugma yarashmas.
7. Eski to'nga – suvsar yoqa.
8. So'qir ko'zga surma.
9. Oqsoq otga – oltin taqa.
10. Eski uyga – yangi zardevor.
11. Eshakka kumush egar yarashmas.

Grammatik qurilishi har xil sinonim paremlar

Bunday paremlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bunda bir sinonimik uyada grammatik qurilishi jihatidan sodda hamda qo'shma gapga teng keluvchi paremlar aralash bo'ladi:

1. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
2. It qora ko'rmasa, hurimas.
3. O't bo'lmasa, tutun bo'lmas.
4. Sog' olma shoxidan tushmas.
5. Engak qimirlamasa, soqol likillamaydi.

Ba'zan tuzilishi jihatidan bir xil bo'lgan paremalarda ham gap bo'laklarining joylashish tartibi turlicha bo'lishi mumkin. Bunday hodisa sodda gap qurilishiga teng bo'lgan paremalarda ko'proq uchraydi:

1. Tarbiya taqani to'g'rilaydi.
2. Tayoq ayiqni ham mulla qiladi.
3. Mo'ynaning pardozi – chiviq.

Lug'at

Ikki parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Yuqori martabaga erishgan, katta boylikka ega bo'lgan va h.k. hollarda o'zidan pastroq martabadagi kishini yoki nisbatan kambag'alroq odamni nazar-pisand qilmay qo'ygan insonlarga nisbatan kinoya tarzida aytiladi:

1. Ayoq, ko'rgan kuningni unutma, ko'n chorig'ingni quritma.
2. Atlas kiysang, bo'zingni unutma, kimxob kiysang – alagingni.

O'zining boyligi, kuchi, savlati, amal-mansabi va h.k. ga ishonib, mag'rurlanib yuruvchi kishilarga nisbatan istehzo tariqasida aytiladi:

1. Tuya bo'yiga ishonib yildan quruq qolibdi.
2. Bo'yiga ishonib qamish bo'yra bo'libdi.

– *Siz yakan nima ekanini bilasiz, a? – deb so'radi Hikmat O'rolov.*

Anvar bu so'zni eshitgan, ammo nimani anglatishini aniq bilmas edi...

– *Faqat pul, demang. Otarchilar bir paytlarda pulni “yakan” deyishardi. Yakan – o'simlik, qamishzorda o'sadi. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Qamish, bilasiz, uzun. Yakan esa pastak o'simlik. Xullas, yakan bir kuni qamishga qarab: “O', birodar, hadeb g'o'dayaverma, sal egil, Ollohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik”, debdi. Qamish unga qaragisi ham kelmay, burnini jiyirib qo'yibdi. Vaqti-soati kelib qamishni o'ribdilar. So'ng yakanni. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yrani bir uyga to'shabdilar. Shu uy to'sinlariga esa uzumni osibdilar. Yakandan to'qilgan savat qalpoqni devorga ilibdilar. Oradan kunlar o'taveribdi. Qamish pastda, yakan esa tepada ekan. Oxiri qamish tepadagi yakanga zorlanibdi: “Meni o'rib olib quritdilar, tepkilab qovurg'alarimni sindirdilar, so'ng suvga bo'kdilar. So'ng qayirib bukib, bo'yra holiga keltirdilar. Endi esa har kuni tepkilaydilar. Bu ham yetmaganday bir chetimni qayirib, tupuradilar...”*

Shunda yakan debdiki: «Siz bekorga g'o'daydingiz. G'o'dayib o'saverdingiz. Ammo ichingiz g'ovak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganingiz uchun ham tepkilanishdan bo'lak narsaga yaramadingiz» («Shaytanat», ikkinchi kitob, 250-bet).

1. Bir tomchi suv chumoliga daryo ko'rinar.

2. Qaldirg'ochga tuynuk – darvoza.

1-ma'no: ozgina ish ham ko'p va og'ir tuyulib, peshanasini tirishtiradigan, bo'yin tovlaydigan, ishyoqmas, dangasalarga qarata²¹ kinoya tarzida aytiladi.

2-ma'no: ba'zi birovlar mensimaydigan ozgina narsa yoki mablag' kambag'al, o'rtamiyona odamning ko'ziga dunyo bo'lib ko'rinadi.

Har bir narsa, predmetga o'ziga mos keladigan narsa, predmetni topish kerak:

1. Toyga to'qim ursang, egar sinadi.

2. Izvoshga eshak qo'shib bo'lmaydi.

– *Toyga to'qim ursang, egar sinadi*, – dedi Danilchenko odaticha salmoqlab va hijjalab, hammaga qarab. – *Sizning bitirishingizning o'zi sir. Siz buni birinchi marta uchragan satangga aytasiz. U maktab eshigiga kelib, sizning rota va vzvodingizni aytib yo'qlaydi. Bu xoinlikning boshi* (“Shinelli yillar”, 29-bet).

Har kim bilimi, kasb-hunariga yarasha gapira oladi, yoza oladi, ish qila oladi, faoliyat ko'rsatadi:

1. Qozonda bori cho'michga chiqadi.

2. Har idish o'z ichidagini to'kadi.

– *Meni qiynagan ikkita masala bor*, – dedi Feruza,...

– *Birinchi masala bu yilgi paxtaga doir. Brigadama-brigada yurib, hosilni chamalab chiqdim. Norqo'zi brigadasi planini oshirib bajaradi. Tursunoy ham bajaradi. Lekin boshqa brigadalar bajara olmaydi.*

Qozonda bori cho'michga chiqadi (“Feruza”, 63-bet).

Biror-bir narsa yoki hodisani sir tutish zarurligi haqida gapirilganda majozan qo'llanadi:

1. Oq tuya ko'rdingmi? «–Yo'q».

2. O'raga sichqon tushdi, guldur-gup.

– *Sekin, do'st, sekin!* – Nurbek og'ziga barmog'ini bosdi, – *sekin!*

²¹Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 38.

– Shuni ong-da, meni qo'yib yuboring, – direktorning yuziga qon yugurdi, – shuyting, aka, – u ko'ylagi ichidan bog'langan belbog'ini yechib, Nurbekka tutqazdi.

U qirqta yuztalikni sanab, cho'ntaklariga tiqdi-da, qolganini qaytarib berdi. So'ng:

Oq tuya ko'rdingmi, yo'q, do'st! – dedi keskin bir ohangda ko'zlarini chaqchaytirib, – bo'lmasa sizni hech kim qutqazolmaydi! («Uyg'oq kunlar», 104-bet).

Vaqtni g'animat bilgan dadasi bir kechadayoq Pishpakdan sho'ng'ib, Mirsalim hozir turgan shahardan chiqdi. Biroz vaqt o'tgach, oilasini chaqirtirib oldi. «Tuya ko'rdingmi? Yo'q!» deb, to'nini o'zgartirdi, fuqaro bo'lib oldi («Oltin zanglamas», 259-bet).

Maqol to'g'ri, halol odam bo'lsang, bexavotir bo'lasan, har kimdan cho'chib, hadiksirab yurmaysan, – degan ma'noda ishlatiladi:

1. Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.
2. Savdogarning moli beshubha bo'lsa, yo'lustida yoyar.

Nohaqlikni ko'rib turib qaysi vijdon bilan ko'z yumaman? Tilingiz qisiq joyi bo'lsa, ayting! Nega qo'rqasiz! Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich! («Girdob», 221-bet).

Bu maqollar xudbin, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, o'zgalarning g'amini yemaydigan kishilarga nisbatan aytiladi:

1. Dunyoni suv bossa, o'rdakka nima g'am?
2. Daryo toshsa, quduqqa ne zarar?
3. Suvsizlikdan baliq o'lsa, daryoga nima g'am.

Biror ish kutilgandek, o'ylagandek, oldindan tasavvur etilgandek bo'lib chiqmagan hollarda, shuningdek, biror-bir ish yuzasidan oldindan va'da berib qo'yish ham doim o'zini oqlamasligini ta'kidlash maqsadida ishlatiladi:

1. Uyning gapi ko'chaga to'g'ri kelmas.
2. Uydagi narxni bozordagi baho buzar.

Kordonning joyidin Boyo'g'lining maskani uzoq erdi. Balki muddati safar erdi. Safar yarog'ini bekam-u ko'st qilmoq kerak, agarchi debdurlar: ... “Uydagi so'z bozorga rost kelmas”(«Zarbulmasal», 38-bet).

Odamzodning tabiati shundayki, biror kishi boshqa birovga o'z boshiga tushgan tashvishni aytib yuragini bo'shatmoqchi bo'lsa, boshqa odam ham beixtiyor o'z dard-hasratini ayta boshlaydi. Mazkur maqollar shunga o'xshash hollarda ishlatiladi:

1. Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'lar.

2. Har kim o'z o'ligi uchun yig'laydi.

Mahkam aka bir nima so'ramoqchi bo'lib, og'zini juftlagan edi, chol yana o'zi gapirib ketdi.

– Kechagi kelganlarni ko'rib, juda yuragim ezilib ketdi. Kampirimga aytib bersam, ko'z yoshi qilib yubordi. «Vanya, bilgin, berishsa biz ham bittasini olib, tarbiyalaylik», deb qoldi...

– Shundoq deng. Bundan chiqdi siz ham shu niyat bilan kelgan ekansiz-da.

– Nima desam ekan, – deya mo'ylovini siladi chol, – o'zbeklarda azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'lar, degan maqol bor. Shunga o'xshab men ham o'z dardim bilan kelaman bu yerga («Hazrati inson», 106-bet).

Yomonlikni yomonlik bilan tugatib bo'lmaydi, qaytaga u avj oladi:

1. Qonni qon bilan yuvib bo'lmas.

2. O'tni o't bilan o'chirib bo'lmas.

– Ibi, jilli bo'libmanmi saroyga borib? – dedi Zoriy. – Xoning avval bo'g'zini tozalasini, keyin she'r aytsin! Hozir qalam tutajak qo'lini yuvib o'tirgan bo'luy kerak. Sharif tarroning arvohi Feruzni tirigida tinch qo'yimas!

– Qon yuqini qon bilan ketkazib bo'lmas, – deya o'ychan gap qo'shdi Avaz («Avaz», 45-bet).

Birov nima qilsa shuni qilgisi, birov nima kiysa, shuni kiygisi keladigan, o'zgaga ko'r-ko'rona taqlid qiladigan odamlarga nisbatan kinoya, istehzo tarzida qo'llanadi:

1. Otga taqa qoqqanda, qurbaqa oyog'ini ko'tarar.

2. Ot arpa yesa, eshak qulog'ini soladi.

Ishyoqmasga biror ishni buyurguday bo'lsang, o'zi qilishga erinib, sen buyurgan ishni o'zidan kichkinaga yoki o'zidan lavozimi pastga buyuruvchi ishyoqmas, dangasalarga nisbatan qo'llanadi:

1. It itga buyuradi, it quyruq'iga.

2. Ish buyurdim Alitozga, Alitoz qo'yar yozga.

Har bir ishni yoshlikda o'rganish, o'z vaqtida bajarish zarur, aks holda kech bo'ladi, o'z maqsadiga yetolmay qoladi:

1. Qirqida qo'lga soz olgan qiyomatda qulog'ini burar.

2. Qirqingda surnaychi bo'lsang qachon chalasan?

Tubandagi paremlar ikki ma'nosi bilan sinonim bo'ladi:

1-ma'no: qo'lidan kelmagan ishga urinib, uddasidan chiqolmay, o'zini oqlamoqchi bo'ladigan quruq maqtanchoq kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi.

2-ma'no: erisholmagan narsasini ayblaydigan noshud, nouddaburo odamlarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi.

1. Mushuk charviga yetisholmay: «Birovning moli yarashmas» deydi.

2. Changakdagi go'sht – sassiq.

– *Menmi? – Sherzod o'ychan qiyofada boshini quyi soldi. – Harbiy akademiyada o'qib, kosmonavt bo'lmoqchi edim... – Aynidim, – dedi afsus-nadomat bilan bosh chayqab. – Endi farmaga kiramam.*

– *Uzumga bo'ying yetmagandan keyin puf sassiq ekan-da, – Shoir tag'in bijir-bijir qildi («Ikki eshik orasi», 426-bet).*

Agar menga «akangday darg'a bo'lasan, o'zingdan kattaroqlarga akangday laganlik qilasan» desa, o'lib qolsam ham bo'lmas edim!

– *Ha, endi, bo'ying yetmagandan keyin «puf sassiq» deysan-da!* («Qora ko'zlar», 206-bet).

Quyidagi paremlar ikki ma'nosida sinonimlikni yuzaga keltiradi:

1. Egasini siylagan itiga suyak tashlar.

2. Egasini siylasang, kuchugini sizsira.

1-ma'no: ba'zi pixini yorgan, xushomadgo'y, laganbardor kishi bevosita tegishli odamning o'ziga emas, uning xotin, bola-chaqasiga xushomad qilib, sovg'a-salomlar berib, shu yo'l bilan u odamning ko'nglini o'ziga moyillashtirmoqchi, o'z manfaatini ko'zlab iltimos qilib borgan ishini bitirmoqchi bo'ladi²²:

Nima qilsin? Quruqdan quruq boraversinmi? Har kim o'z obro'siga yarasha ish tutishi kerak. Gilam oborsa, chol nazariga ilmaydi. Magnitofon oboray desa chol odam uni nima qiladi... Shunday narsa oborsinki, Rahimovning qulog'iga yetsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti desin. Egasini siylasang, itiga suyak tashla, deb bekorga aytishmagan («Jimjitlik», 225-bet).

2-ma'no: agar kishi birovni sevsa, ardoqlasa, shu bois unga yaqin bo'lgan kishilarni ham izzat-ikrom qiladi, e'zozlaydi:

Egasini siylagan itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko'rar edilar («O'tgan kunlar», 340-bet).

Vaqtincha erishgan muvaffaqiyatlariga keriluvchi, maqtanib yuruvchi, hovliquvchi odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Chiranma tovuq, ketingdan uradi sovuq.

²² Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 397.

2. Maqtanma g'oz, hunaring oz.

Birovga biror narsaga muhtoj bo'lib qolganda yordam qilsang, bu unga madad bo'ladi. Ammo qayta-qayta yordamlashaversang, uning uchun bu narsa odat tusiga kirib qoladi; odatni tark etish esa qiyin:

1. Bir qilgan – madad, ikki qilgan – odat.

2. Gadoni gado qiluvchi – sadaqa beruvchi.

Hech qayoqqa sig'maydigan, qo'nimsiz, bir ishga qovushmay, taralla-bedod qilib yuruvchi boqibeg'am odamlarga nisbatan ishlatiladi:

1. Bedananing ini yo'q, qayga borsa pitbildiq.

2. Oshpichoqning qini yo'q, pitbildiqning ini yo'q.

Har qanday tartibsizlik, notinchlik, buzilish va h. k. avvalo «yuqori» dan boshlanadi:

1. Baliq boshidan sasiydi.

2. Suv boshidan loyqar.

Noma'qulgarchiliklarni tuzatadigan mutasaddi odamlarning o'ziki shunday bo'lgandan so'ng, o'shalarki yomon yo'lga kirgandan so'ng, xo'sh, bu chirkinliklarni keyin kim tuzatadi?! Qanday qilib tuzatadi?! Hamma balo baliq boshidan chirishida... («Girdob», 402-bet).

– ... Ayb bularda emas.

– *To'g'ri aytdingiz: ayb bularda emas. Suvning boshi loyqa* (“Shinelli yillar”, 538-bet).

Andishasiz, bezbet, ochko'z, sulloh, yebto'yimas, dangasa, tebsatebranmas va h.k. kishilarga nisbatan kinoya tarzida aytiladi:

1. Betimning qalini – jonimning huzuri.

2. Beti qattiq buyurmagan ovqatni ichadi.

Tegishli odamning o'ziga bevosita ochiq-oydin aytilmay, boshqa turli yo'llar: kinoya, qochirim va h.k. bilan yoki boshqa birovga shama qilish orqali fikrini ifodalamoqchi bo'lgan kishilarga nisbatan aytiladi:

1. Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit.

2. Kosa, kosaning tagida nimkosa.

Qalandarov kresloning suyanchig'iga o'ng qo'ltig'ini qo'yib, prezidiumga orqa o'girib, ko'chaga qarab o'tirar ekan, dokladni ikki marta to'xtatib, bir marta pochталon bilan, ikkinchi marta ferma mudiri bilan gaplashdi; aftidan, yana “gaplashib turinglar-chi”, – deb chiqib ketgani bahona izlar edi. Shu payt “qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida uni ogohlantirish, intizomga chaqirish uchun juda qulay bahona topilib qoldi (“Sinchalak”, 82-bet).

1. Ochiq qozonga it tegar.

2. Ochiq dasturxonga pashsha ko'p yopishar.

Bu maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: hammani o'ziga do'st deb bilib, gapini aytaveradigan kishilarga nisbatan: "Ehtiyot bo'l, o'z boshingga o'zing balo ortirma", – degan ma'noda ishlatiladi.

2-ma'no: har qanday ifloslik o'ziga o'ng'ay bo'lgan joyda imkon topadi, rivojlanadi.

1. Tulkining dushmani – chiroyli baroq dumi.

2. Ot chachasi uzunligi – o'ziga zarar.

Bu maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: aqliy jihatdan yetuk, jismoniy jihatdan kuchli, o'z kasbining ustasi va h.k. bo'lgan kishilarni ko'rolmaydilar, chiqishtirmaydilar, turli tuhmat toshlarini otadilar, payini qirqish, oxiri biror balo-qazoga giriftor qilish, o'z oralaridan chetlatish, yo'qotish harakatida bo'ladilar. Unday odamlarning o'tkirligi, kuchliligi, boshqalardan ustunligi o'ziga ziyon-zahmat keltiradi.

2-ma'no: kishining o'ziga xush yoqadigan, rohat bag'ishlaydigan ba'zi bir "xurmacha qiliq"lari boshiga balo keltirishi mumkin:

– *Qorong'i tushishini poylagan ko'rshapalakdek nima qilib yuribsan? Ketmadingmi?*

– *Kechki smenaga keldim! – dedi Himmatilla... – O'zing nima qilib yuribsan?*

– *Ish bor! – ko'zini mug'ombirona qisdi master.*

Tulkining dushmani – chiroyli baroq dumi, deganlar-a, esingdan chiqmasin! ("Bir kecha fojiasi", 34-bet.)

1. Terakning soyasi tubiga tushmas.

2. Chiroq tubi – qorong'u.

Bu maqollar boylikka yoki amal-mansabga ega bo'lgan odam kezi kelganda o'z yaqinlariga qo'lidan keladigan yordamni bermaganida achchiq kinoya tarzida aytiladi:

Ayog'ingga tushar har lahza gisu

Masaldurkim: «Chirog' tubi qorong'u» (Lutfiy).

Har kim o'z tirikchiligi uchun o'zi qayg'urishi, jon koyitishi va yo'lidagi barcha mushkullarni ham o'zi hal qilishi lozim:

1. O'zing uchun o'l yetim.

2. Kigiz kimniki bo'lsa, shuning bilagi qavarar.

Uch yil kuyovnni kutdi, bir bevalik dardini tortdi. Endi er qilay deb o'zing uchun o'l yetim bo'lib yuribdi. Qayishadigan na akasi bor, na ukasi ("Ufq", 601-bet).

O'z ota-onasining hali ko'zi ochiqligidayoq ulardan qoladigan mol-mulk – merosni o'zaro bo'lib olish ilinjida bo'lgan farzandlarga nisbatan qo'llanadi:

1. Azroil odamning joniga qasd,
Yomon o'g'il otaning moliga qasd.

2. Ayiq o'lmay turib terisini shiladilar.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1. Aldagani bola yaxshi.
2. Aldamoqqa bachcha yaxshi,
Chaynamoqqa – kulcha.

1-ma'no: yig'layotgan, xarxasha qilayotgan bolaning qo'liga biror narsa tutqazib yoki unga biror narsani va'da berib, osongina aldash mumkin.

2-ma'no: yosh, sodda bolani aldash mumkin, ammo bizni aldab bilmaysiz, degan ma'noda qo'llanadi.

Ona-yurt, uy-joy, ota-ona, qarindosh-urug', yor-do'stdan ajralish nihoyatda og'ir ekanligi uqtiriladi:

1. Ayriliq – o'limdan qattiq.
2. Ayriliqning shiddati,
Qon yig'latar muddati.

Ayiriladigan do'st yo'q narsani jo'rttaga sendan so'rab, bermasang yoki topib berolmasang, shu bahona ajrab ketadi:

1. Ayrilar do'st ayovli narsangni so'rar.
2. Ayrilar do'st egaming orqa qoshini so'raydi.

Turmush qurish uchun qiz tanlagan yigit yoki yigit tanlagan qiz unisini o'poq, bunisini so'poq deb injiqlik qilaversa, oxir-oqibat eng xunugi, eng yoqimsizi, eng injiqi va h.k., xullasi kalom, eng yomoniga duchor bo'ladi:

1. Tanlab-tanlab toziga yo'liqibdi.
2. Gul tanlagan qoratolga ham qo'nolmabdi.

1. Bor tovog'im, kel tovog'im, qaytishingda quruq bo'lsang, o'rta yo'lda sin tovog'im.

2. Oling quda, bering quda, olmasangiz, bermasangiz, o'ling quda.

1-ma'no: qudang seni siylab shuncha narsa berib yuboribdimi, sen ham uni siyla, bo'sh qaytarma. Kezi kelib unikida biror voqea bo'lib qolsa, sen ham uni yo'qla. Aks holda quda-andachilik bo'shshadi, munosabatlar soviydi, deyilmoqchi²³.

²³ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. – Т.: Ўзбекистон энциклопедияси бош редакцияси, 1990. – Б. 62.

2-ma'no: umuman, yor-u do'st, oshna-og'ayni, qarindosh-urug'chilikda qars ikki qo'ldan chiqadi, birov senga biror yaxshilik qildimi, sen uni bee'tibor qoldirma. O'mi bilan o'sha qilgan yaxshiligiga munosib javob qil, aks holda munosabatlar uziladi, degan ma'noda qo'llanadi:

O' r i n b o y. Maqol – so'z ko'rki. "Bor tovog'im, kel tovog'im" deganlaridek, qudalarimni bir chaqirsam degan edim.

M a h k a m. Quda, quda, qudalaringni tinch qo'y. Qiz uzatdingmi, endi jim o'tir ("Kelinlar qo'zg'oloni", 326-bet).

Farzandlar, shogirdlar voyaga yetgach, ota yoki ustoz tinadi, mas'uliyatdan qutuladi:

1. Toy ot bo'lgach,
Ot ozod bo'ladi.

2. Toy ulg'aysa ot tinar,
O'g'il ulg'aysa ota tinar.

Qo'rqqoq kishilar jamiyatda izzat-ikrom, hurmat-e'tibor topmaydi:

1. Qochoqqa shafqat yo'q,
Qo'rqqoqqa – hurmat.

2. Yovdan qochganga go'r yo'q.

Agar sening qadringga yetmasa, joningga oro kirmasa, dilingga ozor bersa, vafodorlik qilmasa, oldingda "do'st" ko'rinib, orqangdan dushmanning ishini qilib yursa – har qancha yaqin, azaliy, qadrdon bo'lmasin, baribir bunday yor-do'stingning bahridan o't, undan "qo'lingni yuvib, qo'ltig'ingga ur, kechib yubor", demoqchi bo'lganlar²⁴:

1. Oltin egaring otga botsa, oltinni ol-da, o'tga yoq.

2. Oltin halqadan kech – quloq og'ritsa,
Zardo'zi etikdan kech – oyoq og'ritsa.

Xayrli, ezgu ishlarni hech bajarmagandan ko'ra kech bo'lsa ham amalga oshirgan ma'qul, chunki ezgulik hamma vaqt jamiyatga naf keltiradi:

1. Hechdan ko'ra kech.

2. Ezgulikning kechi yo'q.

Odatda, o'zbek oilalarida bir xonadondan bir qiz olinadi, ikkinchisiga ham sovchi bo'lganda qiz tomon, yoki aksincha, qiz tomon ikkinchi

²⁴ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 142.

qizini ham shu xonadonga uzatish niyatini bildirganda yigit tomondan shu maqollar yordamida javob qaytariladi:

1. Har supradan – bir kulcha.

2. Har chinordan – bir yaproq.

Buyurilgan vazifa, berilgan topshiriqni vaqtida bajarmay, shuningdek, qarshilik ham qilmay; galga solib, aldab-suldab yursa, oxiri u odamning toqati toq bo'lib, jahli chiqib: "Axir qachon bajarasan?" degan mazmunda qo'llaydi:

1. "Xo'p"ning boshi og'rimas.

2. Yilning oyi ko'p, oyni kuni ko'p.

Qo'rquv bilan hech bir ishni hal qilib bo'lmasligi, maqsadga yetishish dushvorligi uqtiriladi:

1. Qo'rquv o'limdan qutqarmas.

2. O'limdan qo'rqqan umr ko'rmas.

Daraxtlar vaqti bilan kallaklab turilsa, serhosil va mevasi yirik bo'ladi:

1. Kallaklab tursang, kalladek bo'ladi.

2. Butamasang – meva oz,

Tarasang – yeysan qish-u yoz.

Birov senga mehr qo'yib, muhabbat, hurmat bilan munosabatda bo'lsa, vaqtida qadriga yet, uning sendan ko'ngli sovishiga, uzoqlashishiga yo'l ochadigan xatti-harakatlarni qilma. Aks holda ikkincha marta uning muhabbatini, hurmatini qozonolmaysan, demoqchi:

1. Bir yugurgan yovushmas (yovushmoq – yaqinlashmoq, yetishmoq),

Bir ayrilgan qovushmas.

2. O'tin yonib kul bo'lgach, qaytib yonmas.

Ustoz sabog'ini olmagan, ya'ni qaysidir sohani o'rganmoqchi bo'lgan kishi o'sha yo'nalish bo'yicha yetuk mutaxassisdan ta'lim olmas ekan, u sohaning barcha sir-asrorini atroflicha o'rgana olmaydi, har qadamda qoqiladigan, pand yeydigan bo'ladi:

1. Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

2. O'rgatilmagan ayiq o'ynay olmas.

Ustozdan ta'lim olgan, saboq chiqargan shogird o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'ladi, sohaning barcha ikir-chikirlarini puxta egallaydi:

1. Ustoz ko'rgan shogird xat tanir.

2. Otboz ko'rgan – ot tanir.

Ustoz ko'rgan – xat tanir.

Mehmon oldida hech qanday nojo'ya ish, noo'rin harakat qilmaslik: ya'ni ovozini balandlatish, baqir-chaqir qilish u yoqda tursin, hatto mehmonning ko'ngliga tegadigan zig'ircha harakatlardan ham tiyilish lozimligi uqtiriladi:

1. Mehmon oldida, mushugingni "pisht" dema.
2. Uyingga mehmon kelganda kapkiringni taqillatma.

Mehnatsiz topilgan mol beqadr bo'ladi:

1. Mehnatsiz topilgan molning qadri bo'lmas.
2. O'zi topmagan molning qadri yo'q.

Mehnatsiz o'tgan umr mazmunsiz bo'ladi:

1. Mehnatsiz umr – chirigan ko'mir.
2. Mehnatsiz turmush – umrga xiyonat.

Quyidagi sinonimik uya ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: bola voyaga yetgach, uni bolaligidagi singari erkalash yaxshi natija bermaydi, aksincha, unga nisbatan talabchanlikni oshirish, mas'uliyatni anglatish lozim bo'ladi.

2-ma'no: har qanday ishda, lavozimda ishning maromini olgan xodim yoki ishchiga ishning ibtidosidan boshlab tushuntirish shart emas:

1. Yetti yashar otni "husht-husht"lab sug'orma.
2. Tishi chiqqan bolaga chaynab berish yarashmas.

Birov senga bir nima bermoqchi bo'lsa-yu, sen u narsani kam deb bilsang, mensimasang, takabburlik qilsang, arazlasang, u odam bermay qo'yadi, qaytaga o'z rizqingni o'zing qiyasan, xolos²⁵.

1. Gadoy arazlasa – to'rvasiga zarar.
2. G'aribning qahri – joniga balo.

Gohida paxmoq, o'ziga qaramaydigan, biror-bir ishga qattiq jazm qilmagan kishining ham omadi kelib qoladi, ishini xudoning o'zi o'ng qilib qo'yadi. Ushbu ~~ma~~qollar shunday kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Devonaning ishini xudoning o'zi o'ng qilar.
2. Paxmoq qizning baxtini berar.

Uch parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Bolaning oldida har qanaqa, ayniqsa, sir tutilishi lozim bo'lgan gaplarni aytmalik lozim. Chunki bola bolagiga borib, uni oshkor etib qo'yadi:

1. Bolali uyda sir yotmas.

²⁵ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маълумлар маҳзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 70.

2. Bolaga aytilgan sir – bog'lanmagan sigir.

3. Bolali uyda o'g'irlik yotmas.

Bajariladigan ishdan ikkala tomon ham zarar ko'rmay, manfaatdor bo'ladi, – degan ma'no anglashiladi:

1. Six ham kuymaydi, kabob ham.

2. Bo'rilar ham to'q, qo'ylar ham omonda.

3. Ham la'l ba dast oyad-u, ham yor naranjad²⁶.

– ... bir ish qilki, boy bilan oqsoqlar mendan ranjimasinlar, ...

– Bu to'g'rida xotirjam bo'l, "sipohigari si poy dorad" (sipohigarchilikning o'ttiz oyog'i bor) deganlar. Men sipoh bo'lmasam ham, necha yildan beri sipohlarning mis tovog'ini yalab "bilarman" bo'ldim. Bir ish qilamanki ham la'l ba dast oyadu, ham yor naranjad ("Doxunda", 138-bet).

... bu ziyofat majlisida hamma shod, hamma xursand va muxtor vakil o'rinbosarlarining yugurdagi so'ziga ko'ra, "bo'rilar ham to'q, qo'ylar ham omonda" edi ("Doxunda", 323-bet).

Bir og'iz gap bilan ma'qul maslahatni topib berardi: «**Qo'y ham butun, bo'ri ham to'q**» bo'lardi ("Kecha va kunduz", 239-bet).

Quyidagi sinonimik uya ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: birovning imkoniyati, hol-qudratining cheklanganligini bildirish maqsadida aytiladi.

2-ma'no: birovning hol-qudrati, imkoniyatini mensimay, yerga urib, kamsitish maqsadida aytiladi.

1. Buzoqning yugurgani – somonxonagacha.

2. Tovuqning yugurgani – tomgacha.

3. Yelpig'ichning yeli dalaga kor qilmas.

"Buzoqning yugurgani somonxonagacha" deganlari kabi, sizning sohibqironligingizning qahramonligi ham qurolsiz dehqonlarning uyigacha ("Doxunda", 330-bet).

– Hozir u shunaqa gap tarqatgan odamni axtarib yuribdi...

– Topadimi? – o'zidan hadiksirab so'radi Murodxo'ja aka.

– Kim iqror bo'ladi? **Buzoqning yugurgani somonxonagacha!** Hovuridan tushadi qoladi ("Chayon yili", 202-bet).

Quyidagi sinonimik uya to'rt ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: xasis odamdan ittifoqo biror saxovatli ish chiqib qolsa;

²⁶ Ham la'l qo'lga kirsin, ham yor ranjimasin.

2-ma'no: hech narsa bilmaydigan, hech kim pisand qilmaydigan odamdan biror ma'noli fikr chiqib qolsa yoki qobil, aqlli, chiroyli va h.k. farzand tug'ilsa;

3-ma'no: hech indamay jim yuruvchi kishi biror-bir qiliq qilib qo'ysa;

4-ma'no: doim yaxshi deb maqtab yurgan kishingiz biror nojo'ya ish qilib qo'ysa.

1. Ataladan suyak chiqibdi.

2. Kesakdan olov chiqibdi.

3. Qarqunoqdan bulbul chiqibdi.

– *Ko'rgansan, bolaligida ko'rgansan. Bo'yi yetib, juda ochilib ketibdi. Ushoqqina qiz edi. Men o'zim ham "Yo tavba!" – deb hayron qoldim. Anavi mahallamizda Sattor bejirim bor-ku, o'shaning qizi. Qarqunoqdan bulbul chiqibdi* ("Bir kecha fojiasi", 27-bet).

– *Qaror, vazifa, topshiriq... lekin shu qaror, shu vazifa, shu topshiriqlarni bajaradigan odamlardan, "bu to'g'rida sen nima deysan, sening qandoq o'y-mulohazalaring bor", deb bir og'iz so'ralmadi-da! Otiga majlis, otiga maslahat...*

Bu gap Qalandarovga yashinday tegdi... u o'tirgandan keyin Qalandarov o'rnidan turdi...:

– *Qani, gapir bo'lmasa! Nega o'tirding? Maslahatingni eshitaylik! Bugun kesakdan o't chiqib qoldi...* ("Sinchalak, 58-bet).

Imkoni boricha birovdan bir nima so'rama, o'z ehtiyojini o'zing ta'minlashga harakat qil. Chunki birovning qo'liga qaram bo'lib qolgan odam o'zini noqulay sezadi, qisinib-qimtinib yeydi, ovqatga miriqmaydi. Shuning uchun birovning beradigan luqmasini kutib o'tirma, o'zing mehnat qilib top, shundagina yayraysan, o'zingni erkin sezasan:

1. Qo'ldan berganga qush to'yimas.

2. Tilab olgan to'n tizzaga chiqmas.

3. Tilab olingan non qorin to'ydirmas.

– *Oling! Siz bu yerga nonga kelgan edingiz.*

– *Nonday aziz bo'ling, uka. Biz ko'rgan kunlarni hech ko'rmang.*

Qo'ldan berganga qush to'yimas... Lekin men shuning kuchi bilan qishlog'imga yetib olaman ("Yulduzli tunlar», 108-bet).

Biror-bir mansab yoki lavozimga erishib, uni eplab bilmagan kishilarga nisbatan kinoya tarzida aytiladi:

1. Semizlikni qo'y ko'tarar.

2. O'lanni to'y ko'tarar.

3. Og'irlikni yer ko'tarar.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko'tarib oldi. "Semizlikni qo'y ko'tarar" deganlaridek Omonga badavlatlik yoqmas edi. O'rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so'mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq – boyvachcha qiliq chiqara boshladi ("Shum bola", 23-bet).

Odamlarning qarichi, alchini uzun-qisqa bo'lgani kabi, o'zini tutishi, aql-idroki, did-farosati, harakat doirasi, bilimi, dunyoqarashi ham turlicha bo'ladi. Ular birovga baho berganda, fikr bildirganda mana shu imkoniyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun bundan xafa bo'lishning hojati yo'q:

1. Har kim o'z qarichi bilan o'lchar.
2. Har kim o'ziga qarab to'n bichar.
3. O'zi o'g'ri hammani o'g'ri biladi.

Qiyinalib, muhtoj bo'lib turgan odamga biroz yordamlashib yuborsang ham unga ancha quvvat baxsh etgan bo'lasan, u sening shu o'zgina yordaming bilan o'zini o'nglab olishi mumkin, – degan ma'noda aytiladi:

1. Hayt, degan tuyaga madad.
2. Arg'amchiga qil – quvvat.
3. Chanqoqqa bir tomchi ham madad.

«Hayt degan tuyaga madad.

Zabo gospitalga o'z xohishi bilan feldsher bo'lib kirgach, onasiga ham ish topilib qoldi («Shinelli yillar», 49-bet).

– Rost. Oyimla dasturxon ustida maqul sizni gapirib o'tiradilar... "Hayt, degan tuyaga madad, bolam, quruq bo'lsayam borib, "Hormang", deb kelishim lazim..." deydilar maqul ("Hazrati inson", 325-bet).

Eng beozor, indamas kishini ham haddan tashqari ezaversang, qiyinasang, oxiri o'shanday odam ham qarshilik ko'rsatadi:

1. Qarshiqni bossangiz «vaq» deydi.
2. Qayiqni bossang, sichqon ham chiyillaydi.
3. Bossang, chavolchang ham qimirlaydi.

– Meni aldolmayson matlaham! Yaz!

– Bu tushingizni suvga aylang! – Eshim zo'r chekinish foydasizligini sezib hujumga o'tdi. – Tog'angizning hurmatini qilib o'zinni tiyib turgandim. Qarshiqni bossangiz vaq deydi, men-ku odamman. Sovxoz sizning shaxsiy mulkingizmas, davlatniki, unutmang! («Uyg'oq kunlar», 48-bet).

Biror-bir shaxsning, yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'i nazar, tengi topilavermasa, bundan tashvishlanishning hojati yo'q, albatta, bir kun o'ziga yarashasi topiladi, – degan ma'noda qo'llanadi:

1. Po'lat pichoq qinsiz qolmas.
2. Teshik munchoq erda qolmas.
3. Tirik ilon insiz qolmas.

To bahaddeki alomati bullug' zohir bo'lub, tishi chiqib, ko'zi suzulib, onasining to'g'ri so'zlaganiga egri so'zlay boshladi. Onasi qabzlanib aydiki:

– *Ey bolam, ko'nglungiz er tilar o'xshar, oshuqmang. «Oshuqq'on qiz erga borsa, yolchimas va teshik munchoq yerda qolmas», – der erdi («Zarbulmasal», 20-bet).*

Ziqna, xasis odam ishning arzon tarafini ko'zlaydi. Oqibatda bu arzonning baqosi bo'lmay, yana xarajat qilib, bir narsani qaytadan qurishga, olishga, yaratishga, keltirishga va h. k. majbur bo'ladi:

Mumsikning xarji – ikki baravar.

Ziqna birga unamay, duvajaga tushadi.

Bir ellik deb ikki ellikdan ajralar.

– *Agar lampani chiqarib tushirishda uning shishasi sinsa, «mumsikning xarji ikki baravar» degan maqol to'g'ri bo'lib qoladi, – dedim men.*

Singan shishaning zarari menga emas, u lampaning egasi bo'yniga tushadi, – dedi Qori-Ishkamba, – shuning uchun bu lampani yondirishga ichkariga berib yubormay, u lampani bu yerga olib chiqishini buyurdim.

– *Ichkari hovlingizdagi lampa sizniki bo'lmay, kimniki bo'ladi? – deb taajjub bilan so'radim.*

– *Xotinlarimniki! – dedi Qori-Ishkamba... («Sudxo'ring o'limi», 39-bet).*

Har bir kishi o'z iqtidori, salohiyati, bilim doirasi, imkoniyatiga ko'ra ma'lum bir ishni bajaradi:

1. Mulla bilganin o'qir.
2. Bo'zchi bilganin to'qir.
3. Tovuq ko'rganin cho'qir.

– *Menimcha, unday bo'lmaydi... Lekin bu dastxatni menga ishongan ekansiz, ikkimiz ozgina bahslashib, ba'zi bir nuqtalarni aniqlab olishimizga to'g'ri keladi.*

– *Mayli. Albatta, – dedi Qodirjon.*

– *Buxorolik bo'lganim uchunmikan, G'ozidinni buxorolik deganingiz...*

– O'zinga ham yoqmaydi. Lekin iloj qancha, bo'zchi bilganini to'qiydi. Men u yerlik yaxshi odamlarni ham eslaganman («Egilgan bosh», 255-bet).

Har kim o'z holiga, imkoniyatiga qarab ish ko'rishi lozim:

1. Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
2. Bo'yingga qarab to'n bich.
3. Qulochingga qarab ketmon chop.

Mahallada bo'ladigan to'y-hasham borki, Jamol xolasiz o'tmasdi... Jamol xolaning eng yaxshi odati, uni ko'pga manzur qilgan ham bir narsa edi: avvalo to'y qiluvchi bilan gaplashib orzusini bilib olardi-da, keyin qurbiga qarardi. Mabodo qurbi etmasa-yu, kattaroqqa intilsa, «Hoy, ko'rpangga qarab oyoq uzat. Qarzga botadigan bo'lsang, ma, to'yingni o'zing eplab ol!» deb, shartta o'rnidan turib ketaverardi («Hazrati inson», 49-bet).

Biror manfaat ko'rish niyatida bir yo'la ikki ishning ketiga tushgan kishi ikkalasining ham uddasidan chiqa olmay, quruq qolishi mumkinligi, maqsadiga erisholmasligi uqtiriladi:

1. Ikki kemanding boshini ushlagan g'arq bo'ladi.
2. Ikki quyonni quvlagan birini ham tutolmas.
3. Ikki suyukli bir ko'ngilga sig'mas.

Turumtoy aydi: «Andog' eshitganim borki, odamizod farzandidin Xolboqi miskar degan bir ko'knori bor erdi, namozshom vaqtida birovning mehmonxonasiga taom ustida hozir kelubdur... Kishilar aydilar: «Avval namoz o'qub, so'ngra taom tanovul qiloli. Har kim namoz o'qumasa, taom yemasun» dedilar... Siz anga o'xshabsiz. Siz o'z nafsingizni bitkazing, yo sulton amrini. «Ikki suyuklik bir ko'ngilga sig'mas» debdurlar («Zarbulmasal», 39-bet).

Aqli kalta kishilarga biror-bir yumushni bajarishni topshirsang, qaytaga u senga tashvish keltiradi:

1. «Bo'rk» ol desa, bosh oladi.
2. Ahmoqqa namoz o'qi desang, peshonasini yoradi.
3. Bo'yoqchini bo'yoqchi desa, otasining soqolini bo'yabdi.

Birovga baho berishda shoshilmang, odamning olasi ichida deganday, har qanday shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishi va h. k. si keyinchalik namoyon bo'ladi, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Yangi ko'zaning suvi – sovuq.
2. Yangi supurgi toza supurar.
3. Yangi libos – oroyish.
4. Yangi yorning yolini kuchli (yolin – yolqin, alanga, o't, cho'g').

Ichi qora, xudbin kishi birovning muvaffaqiyatini, erishgan yutuqlarini ko'rolmaydi va har xil bo'lmag'ur gaplar bilan unga loy chaplashga urinadi:

1. Mevali daraxtga tosh otilar.

2. It oyga qarab hurar.

3. Mevali daraxtga tosh tegar.

Yog'och uchiga yel tegar.

– *Yolg'on! Tuhmat! Tanqidning ma'nosini o'zingiz tushunmas ekansiz. Tanqid yegan odam xursand bo'lishi kerak, chunki mevali daraxtga tosh otiladi*(«Sinchalak», 120-bet).

Yomon xatti-harakati, gap-so'zi yoxud o'zboshimchaligi oqibatida biror ishning pachavasini chiqarib qo'ygan, noma'qul ishni amalga oshirgan odamga qarata: «Buni o'zing buzdingmi, endi o'zing tuzat!» degan ma'noda ishlatiladi:

1. O'zing pishirgan osh –

Aylanib ich, o'rgilib ich.

2. O'zing yoqqan o'tga o'zing isin.

3. Itni o'ldirganning o'zi ko'mar.

Keyin kelinposhshaning oyoq-qo'li chaqqon emasligi, latta-puttaga o'chligi, kir yuvganda teskari siqishi, xullas, nimaiki aybi bo'lsa, hammasi doston bo'ldi. Elmira hasratini kimga aytishni bilmasdi. Otonasiga gapirsa, o'zing pishirgan oshni o'zing ich, deyishi turgan gap («Nur borki, soya bor», 128-bet).

Ayol kishi beva bo'lib qolgach, uning boshiga har xil tuhmat toshlari yog'iladi, uzun-quloq gaplar paydo bo'ladi, bir musibati o'n musibatga aylanadi:

1. Bevani tuyaning ustida it qopar.

2. Tul xotinning boshiga turna tezaklar.

3. Beva xotinga Buxorodan it hurar.

Sobiraxon iylab yumshatgan ko'ngli kutmaganda Sodiqdan g'oyibona suv ichib qoldi. Orqavarotdan surishtirdi: u yomon emas, minsa ham bo'ladi, oldiga solib yursa ham bo'ladigan. Axir qachongacha beva yuradi, bevani tuyaning ustida it qopadi(«Oltin zanglamas», 52-bet).

Ahmoq, kaltabin odamlarning senga aytgan har qanaqa gaplariga parvo qilmay, yo'lingda ketaver yo qilayotgan ishingni davom ettiraver. Ular itga o'xshab vovullab-vovullab qolaverishadi:

1. It hurar, karvon o'tar.

2. It oyga qarab huraveradi,

Oy ko'kda suzaveradi.

3. It vovullagani bilan tog' qulamas.

– *Eskidan gap bor, it huraveradi – karvon o'taveradi. Hozir odamlarga «mana senga, ko'rdingmi» deb tumshug'ining tagiga suqmaguningizcha, ishonishmaydi. Kim kim-u, lekin men sizga ishonaman, ukam («Girdob», 68-bet).*

Odam tirik ekan, hayotda yashar ekan, hech qachon och qolmaydi. Tishini bergan Alloh uning rizqini ham berib turadi, – degan ma'noda birovga tasalli berganda ishlatiladi:

1. Qul o'lmas, rizqi kamimas.

2. Ochiq og'iz och qolmas.

3. Og'ilda uloq tug'ilsa, adirda o'ti unib chiqar.

Ota o'g'lini gap bilan yengib bo'lmasligini fahmlab, irg'ib turdi. Narigi xonaga o'tib, Avazning o'g'li bilan uch-to'rt yashar qizini yetaklab keldi.

– *O'zingni o'ylamasang, mana bu qorako'zlarni o'yla! Yetim bo'lib qolaversinmi? Qul o'lmas, rizqi uzilmas. Bularning qornini to'yg'izarman, ko'nglini netaman, a? Hech o'ylaysanmi, xomkalla! («Avaz», 102-bet).*

Har bir ishni ham boshlagan paytning o'zida, birinchi martadayoq bir tomonlama qilgan ma'qul. Agar ish cho'zilaversa, «to'rt» kishi eshitadi, odamlarning og'ziga tushadi, yaxshi-yomon fikrlar paydo bo'ladi. Keyin kishi sarosimalanib, nima qilishini bilmay qoladi:

1. Avval – bahor, oxir – xazon.

2. Avvalgi savdo – savdo, keyingisi – g'avg'o.

3. Avval kelgan ho'kiz suvning tozasini ichar.

O'zini el oldida ko'z-ko'z qilish uchun zo'raki kuchanuvchi, hol-qudrati yetmasa-da, kichkinagina bir marosimni dabdabaga aylantirib yuboruvchi maqtanchoq kishilarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi:

1. So'k oshiga ham surnaymi?

2. Chumchuqni to'p bilan otish aqldan emas.

3. Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o'tirma.

Birov tosh, birov gul, o'z joyida ikkovi ham yaxshi...

– *To'g'ri! Juda to'g'ri! Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o'tirmasag-u, sizning o'rningizga o'sha odamlarimizdan birini kirgizsak. Mayli, meni byuroga kirgizmay qo'ya qoling («Sinchalak», 79-bet).*

Ahvol ilgaridan sira o'zgarmagan, yomon hol yaxshi bo'lmagan, aslicha qolgan degan ma'no anglashiladi:

1. Eski – tos, eski – hammom.
2. Boyagi-boyagi, Boyxo‘janing tayog‘i.
3. Eski – belbog‘, eski – to‘n.

– *Kuzda karmonga picha pul tushsa, charchoq o‘lgur qochadi. Tushmay-tushmay yurgan pul bir tushsa katta ko‘rinadi-da.*

– *Tuvri-yov. Umrimiz ketmonni suyrash bilan o‘tdi, tag‘inam, boyagi-boyagi, boy bovamning tayog‘i*(«Shu kunlar shiddati», 189-bet).

...«*Men qancha kurashmadim, shu kasalxona songa kirsin, deb! Foydasi bo‘lmadi. Ahmoqqa o‘xshab o‘zim yugurganim qoldi, chunki hech kimning joni achimaydi! Hamon eski hammom, eski tos...*» («Egilgan bosh», 226-bet).

1. Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi.
2. Bir qo‘chqoming boshi ketguncha, necha to‘qlining boshini yeydi.
3. Bitta qovun pishguncha, yuzta sapcha uzilib ketadi.

Bu maqollar ikki ma‘nosida sinonimlik tashkil etadi:

1-ma‘no: bir boshliqning baxtsizligi, omadsizligi, ishdan ketishi qo‘li ostidagi ko‘plab odamlarning ishi yurishmasligiga, baxtsizligiga sabab bo‘ladi.

2-ma‘no: ana o‘ladi, mana o‘ladi deb turilgan bir qariya o‘lgunicha necha-necha yosh-yalanglar o‘lib ketadi.

Kishiga ta‘lim-tarbiya, pand-nasihating o‘zigina kor qilmaydigan bo‘lsa, do‘q-po‘pisa qilish, kaltakni ishga solish foydadan xoli bo‘lmaydi:

1. Tarbiya taqani to‘g‘rilaydi.
2. Tayoq ayiqni ham mulla qiladi.
3. Mo‘ynaning pardozi – chiviq.

– *Yaxshi odamlarni zap topibsiz-da, – dedi Hayit Isomiddinning fikriga qo‘shilmasdan, – “Xirs mulla meshavad az zarbi cho‘p” (Tayoqning zarbidan ayiq ham mulla bo‘ladi) deganlar. Bularni Sharif kichiri hovlisida bo‘lgan voqea hushyor qilib, «yaxshi odam» bo‘lishga majbur etgan* (“Doxunda”, 164-bet).

1. Dushmanni shakar bilan o‘ldir.
2. Dushmanni paxta bilan bo‘g‘izla.
3. Dushmanlik o‘qini do‘stlik kamoni bilan ot.

Bu maqollar ikki ma‘nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma‘no: dushmaningni oshkora dushmani bo‘lib emas, do‘sti bo‘lib, shirin va yumshoq muomala qilib turib yanchib tashla.

2-ma'no: dushmaning bilan ham yaxshi muomalada bo'lib, hurmat-izzat ko'rsatki, bunday munosabatdan uning o'zi uyalib qolsin va dushmanlik qilganidan pushaymon bo'lib, qing'ir ishlariga chek qo'ysin.

Agar kishidan omad yuz o'g'irsa, uning hamma ishi teskarisiga ketadi: ishi yurishmay qoladi, hech kutmagan kichkina narsa, voqea-hodisalardan ham juda katta ko'ngilsizliklar kelib chiqadi:

1. Omadi ketgan kishining ataladan tishi sinadi.
2. Omadi yo'qning iti o'g'ri ketgandan so'ng hurarmish.
3. Omadi ketganning tovug'i ham kurk qoladi,
Omadi kelganning xo'roziyam tuxum tug'adi.

– *Befoyda, inim! Yig'i yurakni bo'shatadi, lekin jinoyatni yengillashtirmaydi. O'zingizni qo'lga oling, aqlingizni yig'ing. Omadi yo'qning iti o'g'ri ketgandan so'ng hurarmish. Siz ham shu qabilida ish tutmang* (“Bir kecha fojiasi”, 119-bet).

Aqlli, bilimdon, olim-u donishmand odam o'ta mulohazakor bo'lib, o'zini doimo kamtar tutadi, hamma yerda ilm-bilimini pesh qilavermaydi, oz gapirib, ko'p tinglaydi:

1. Mevali daraxtning boshi xam.
2. Chuqur daryo sokin oqar.
3. Boshuq boshi qancha tig'iz bo'lsa, qaddi shuncha bukilar.

Kishining qo'li qisqa bo'lsa, puli, mablag'i bo'lmasa, durustroq biror-bir ishga qurbi yetmaydi, na o'ziga, na o'zgaga yordam bera oladi, degan mazmunda ishlatiladi:

1. Qisqa ip qamrovga kelmas.
2. Oz yirtiqqa yamoq bo'lmas, teshikka tiqin.
3. Kalta ip bog'lovga yetmas²⁷.

Quyidagi maqollar ikkita ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: qiyinchiliklarga chidamli, bardoshli, sabr-matonatli bo'lishga da'vat etganda ishlatiladi.

2-ma'no: bir nimadan qiynalib, iztirob chekayotgan odamni yupatish, unga dalda va tasalli berganda qo'llanadi:

1. Barcha yukni ko'targan tuya
Cho'michni ham ko'tarar.
2. Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidar.
3. Qishi ketib yozi qoldi,
Ko'pi ketib ozi qoldi.

²⁷ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 448.

E, tavba! Shuncha yil indashmagan... endi yaroqsiz bo'p qolibsizmi?! Butun ro'zg'orni ko'targan tuyaga bitta elak og'irlik qip qoptimi? Qanday odamlar-a, qanday odamlar! Qo'rqishmaydiyam! («Girdob», 284-bet).

Quyidagi maqollar ikki ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: o'zaro o'ynashayotganda yoki hazil-mutoyiba qilishayotganda noxosdan biron ko'ngilsizlik yuz bersa yoki birov ranjib qolsa mazkur maqollar ishlatiladi.

2-ma'no: hazil, o'yin gohida janjalga sabab bo'lishi, shuning uchun bunday holatlarda ehtiyot bo'lish lozimligi uqtirilganda qo'llanadi:

1. Hazilning tagi – zil.
2. Hazildan zil chiqar,
Zildan – zilzila.
3. O'yindan o'q chiqar.

Bir vaqt Jamila uning qarab turganini payqadi, shekilli, qanoti qayrilgandek bo'shashib xiralik qilavergan yigitlarni siltab tashladi.

Yetar, hazilning tagi zil bo'lmasin tag'in!

I-ye, senga nima bo'ldi, – deb kimdir xoxolab kulib, uni yana quchoqlamoqchi bo'lgan edi, Jamila uning ko'krigidan itarib yubordi:

Nima ishing bor? Nari tur! («Jamila», 52-bet).

Mol, pul topishning o'zi bo'lmaydi. Inson o'z hayotiy ehtiyojlarini ta'minlaydigan mablag'ni topish yo'lida ter to'kib, jon koyitib mehnat qiladi, mashaqqat chekadi²⁸. Shuning uchun agarda kishining moliga biror zarar yetsa, u mol achchig'ida o'z jonini ham ayamaydi:

1. Mol achchig'i – jon achchig'i.
2. Mo'minning moli – mo'minning qoni.
3. Mol jigardan bunyod bo'ladi.

– Ammamning buzog'iday mo'ltillab o'tirdingizmi? Dod solmaysizmi, butun uyni boshingizga ko'tarib baqirmaysizmi! Odam yig'maysizmi!

«Mol achchig'i – jon achchig'i» deb tushungan ota otaligiga borib salmoqlandi:

– Jon shirin ekan, qizim! («Bir kecha fojiasi», 41-bet).

Birovning narsasini omonat so'rab olgan bo'lsang, avaylab ishlat, unga biror shikast yetkazma. Aks holda egasining ko'nglini qoldirasan, xafa qilasan. Qaytib yana biror narsa so'rasang, bermaydi, turli bahonalar ko'rsatadi, deyilmoqchi:

²⁸ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 233.

1. Kishi oti terchil, kishi to'ni kirchil.

2. Kishining otini minsang, ketingni qalqa tut (qalqa tut – ketingni ko'tarib yur, og'irligingni solma degan ma'noda).

3. Eshagin beling toldirma, Egasin ko'ngling qoldirma²⁹.

Bir odam bir odamga dard-hasratini aytsa, undan maslahat yo madad kutsa, u odam unga yordam bergisi kelmay, o'zini go'llikka solib, go'yo uning aslida nima demoqchi bo'layotganini fahmlamagan bo'lib, gapni boshqa yoqqa buradi, fikrini chalg'itadi, demoqchi bo'ladilar³⁰.

1. Men bog'dan kelsam, u tog'dan keladi.

2. Men nima deyman-u, qo'bizim nima deydi?

3. Men Ashtdan kelsam, u dashtdan keladi.

Hamla qilishayotganda sen ularning qurolidan kuchliroq vosita bilan o'zingni himoya qil; mard, g'ayratli, harakatchan bo'l; aks holda, tang ahvolga tushib qolishing, yutqazishing mumkin, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Kaltak ko'targanga cho'qmor ko'tar (cho'qmor – to'qmoq shaklidagi qadimiy urush quroli; gurzi, sharpar; tosh kesadigan og'ir to'qmoq).

2. O'qloq o'qtalganga to'qmoq o'qtal (o'qloq – o'qlov, xamir yoyadigan silliq yog'och).

3. Uloqqa bostirib bormasang, bosilib ketasan.

Agar kishi biror amalga minsa yo katta bir boylikka ega bo'lib qolsa (u jismoniy yoki aqliy tarafdin zaif bo'lishidan qat'i nazar) hamma unga kelib bosh egadi, bo'ysunadi, farmoniga muntazir bo'lib turadi, deyilmoqchi:

1. Davlat qushi qo'nsa chivin boshiga,
Semurg' kelar kunda uning qoshiga.

2. Olti yashar otga minsa,
Oltmish yashar salom berar.

3. Kemachi xon bo'ldi, biz navkar bo'ldik,
Allohning amridan suv to'kar bo'ldik³¹.

²⁹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 195.

³⁰ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 225.

³¹ Navkar – 1) xizmatchi; 2) askar, yigit. Kemada ketayotganda kuchli to'lqin turib qolsa, kemanding ichiga suv tusha boshlaydi. Shunda kemadagilar cho'kib ketmaslik uchun duch kelgan idish-oyoq bilan suvni olib, kemadan tashqariga to'kib turadilar.

*Quloq soling Boysarining tiliga,
Ko'chib ketay men Kashal eliga.
Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga*

(“Alpomish”, 19-bet).

O'zidan kuchlilarni ko'rganda zaif kishilar chekinadi, ko'zga tashlanmaslikka harakat qiladi:

1. Kemali kelsa, qayiqli qochar.
2. Qirg'iy uchsa, chumchuqni yoriqda ko'r.
3. Arslon bo'kirsa, ot oyog'i tushovlanur.

Kiringa erishmoq uchun biroz chiqim qilmoq, mashaqqat chekmoq lozim bo'ladi, aks holda inson maqsadiga erisha olmaydi. Ana shu chiqim yoki mashaqqatga chidagan, bardoshli bo'lgan odamgina muvaffaqiyat qozonadi, maqsadiga yetadi:

1. O'limiga chidasang qo'y qil,
Yeyuviga chidasang – to'y.
2. Doniga chidagan tovuq boqar,
Yemiga chidagan – sigir.
3. Yomg'ir tilasang, momaqaldirog'idan qo'rqma.

Bo'lar-bo'lmasga janjal ko'tarib, urishib yuruvchi kishilar hammaning ko'ziga yomon ko'rinib qoladi, oxir-oqibatda esa yakkalanib qoladi, ularga hech kim yaqin yo'lamaydi:

1. Urishqoq xo'roz semiz bo'lmas.
2. Suzong'ich sigirga shox bitmas.
3. Eshakning fe'lini bilib, unga shox ato etmagan.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosi bilan sinonimiyaga kirishadi:

1-ma'no: dardga chalingan bemordan ko'ra unga dardkashlik qiluvchi, qarovchi kishi ba'zan ko'proq aziyat chekadi, chunki kasal dardining og'riqlik darajasini, holatini tanasida his qilib turadi, dardkash esa kasallikning og'irlik darajasini faqat bemor orqali anglaydi, ba'zan kasal yengillik his qilsa ham, dardkash dardning yumshaganini toki bemor unga bildirmas ekan, avvalgidек og'ir deya sarosimuga tushaveradi.

2-ma'no: bemor faqat bitta muammo – dardi, kasali bilan giriftor bo'lsa, dardkash kasalning dardi bilan birga unga kerak bo'ladigan barcha narsalarni ham muhayyo qilishi, ya'ni dori-darmon bilan ta'minlashi, oziq-ovqati, ust-boshi, kiyim-kechagi, tozaligi va h.k. larining tashvishini ham qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun bemordan ko'ra unga qarovchi kishi ko'proq aziyat chekadi.

1. Kasal – kasal emas, kasal boqqan – kasal.
2. Dardni dardkash biladi.
3. Hamdardi bor dard – yarim dard.

Sen da`vo qilayotgan kishi har tomonlama kuchga ega, yuqori mansab kishisi, qo`li to`rt tomonga yetadigan shaxs bo`lsa yoki shu sohaning arbobi bo`lsa, uni yengish amrimahol, degan ma`noda qo`llanadi:

1. Da`vogaring podsho bo`lsa, arzingni Alloh eshitsin.
2. Da`vogaring shoh bo`lsa, kimlar tinglar arzingni?!
3. Da`vogaring qozi bo`lsa, dodingga kim yetsin?!

Biror kimsa yoki hodisani ataylab kutib tursangiz, vaqt ham tezlikda o`tmay qoladi:

1. Tikilgan qozon qaynamas.
2. Ochga tortgan kechgga tortar.
3. Yolg`onchiga tong otmas.

U shoshib yugurganicha bekatga yetib kelib, endi sabrsizlik bilan avtobus kuta boshladi. Ammo tikilgan qozon qaynamaydi, avtobus tez orada qorasini ko`rsatadiganga o`xshamas edi («Egilgan bosh», 24-bet).

Har bir yaratiladigan iste`mol mahsulotiga, xoh u kiyim bo`lsin, xoh u ovqat bo`lsin va h.k., sarflangan xomashyosi bahosidan kelib chiqib tannarx belgilanadi. Tabiiyki, arzon xomashyo sifati past bo`lganligi bois undan tayyorlangan tovar ham shu qadar bo`ladi:

1. Arzon beillat emas,
Qimmat – behikmat.
2. Arzonning sho`rvasi tatimas.
3. Arzon olgan aldanur,
Qimmat olgan aldanmas.

1. Gap bilan o`roq o`rish oson.
2. So`zda botir bo`lmoq oson.
3. Aytmoq oson, qilmoq qiyin.

Bu maqollarni, ko`pincha, “Maqtanma, og`zingni to`ldirib katta gapirma, chunki gapirish oson, ammo gapning o`zi bilan hech nimani hal qilib bo`lmaydi”, – degan ma`noda qo`llaydilar.

Quyidagi paremlar ikki ma`nosida sinonimlikni hosil qiladi:

1-ma`no: odamlar orasida bo`lar-bo`lmas, maza-bemaza gaplarni o`mi bo`lsa-bo`lmasa gapiraveradigan kishilarga nisbatan tanbeh ma`nosida qo`llanadi.

2-ma'no: har bir ishda, joyda navbatni bilib harakat qilish lozimligi uqtirilganda qo'llanadi:

1. Qurbaqa ham vaqti bilan vaqillar.
2. Tegirmon ham navbati bilan.
3. Otang o'lsa, damba-dam.

To'rt parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Boy birdaniga kambag'allashib, holi xarob bo'lib qolmaydi, kambag'al esa arzimagan, kichkina muvaffaqiyatsizlik oqibatida ham juda katta aziyat chekadi³², – degan ma'noda ishlatiladi:

1. Yo'g'on cho'zilguncha, ingichka uziladi.
2. Semiz oriqlaguncha, oriql o'ladi.
3. Keng kengashib yirtilar, tor tortishib yirtilar.
4. Bor cho'zilar, yo'q uzilar.

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin... tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday paytda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi ("Bemor").

Quyidagi maqollar ikki ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: katta-katta xarajatlar qilib, katta yeb ichgan, haddan tashqari bashang kiyinib, o'zi uchun pulni ayamay sovuradigan yoki katta-katta sovg'a-salomga o'rganib qolgan kishini ozgina, arzimagan narsa bilan qanoatlantirib, ko'nglini olib bo'lmaydi.

2-ma'no: kichik, arzimas narsalar bilan katta-katta maqsadlarga erishib bo'lmaydi:

1. Tuyani cho'mich bilan sug'orib bo'lmas.
2. Chanqoqni tomchi bilan qondirib bo'lmas.
3. Igna bilan quduq qazib bo'lmaydi.
4. Suv o'pirgan to'g'onni do'ppi bilan bekitib bo'lmas.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: biror ayb bilan qo'lga tushib, qamalib chiqqan odam qattiqroq jazodan qo'rqmaydi, ayb-gunohning batarrog'ini qilaveradi.

2-ma'no: ilgari qattiq qiyinchiliklar ko'rgan odam uncha-muncha qiyinchilikdan qo'rqmaydi, chidaydi, bardosh beradi:

1. To'rga tushgan baliq qarmoqdan cho'chimaydi.

³² Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 176.

2. Tegirmonda tug'ilgan sichqon momaqaldiraqdan qo'rqmas.

3. Suvga tushgan yomg'irdan qo'rqmaydi.

4. Tegirmonda tug'ilgan sichqonning fe'li keng.

Dilovarxo'ja hazilga oldi:

– *Sizning bir baloyingiz bor, mendan yashiryapsiz, mayli. Endi foydasi yo'q, aytaversangiz ham bo'lardi.*

– *To'rga tushgan baliq qarmoqdan cho'chimaydi, nimasini yashiraman. Tuhmat!* («Oltin zanglamas», 209-bet).

Odamlar yaxshi sifatlarni ham, yomon xislatlarni ham bir-birlaridan, atroflaridagi kishilardan o'rganadilar:

1. Qovun qovundan rang olar.

2. O'rik o'rikni ko'rib oqarar.

3. Uzum uzumdan shira olar.

4. Chillaki chillakini ko'rib chumak uradi.

Chillaki chillakini ko'rib chumak uradi degandek, Zeboning shodon ruhi, qarashi Muharramga ko'cha boshladi. Rashid haqidagi mudhish o'ylar xayolidan ko'tarilib ketdi («Shinelli yillar», 227-bet).

Har bir ishni o'z vaqtida qilsang, maqsadga erishasan:

1. Temimi qizig'ida bos.

2. Nonni tandirning qizig'ida yop.

3. Tandır issiqligida tutadi.

4. Otingni qamchilab qol.

– *Navoiy g'azallaridagi qo'fiyalarni yod olaman, hamma shoirlar ham ustozlaridan o'rgangan-ku!*

– *Aqlingizga tasanno, yigitcha, bizdan qanday yordam kerak?*

Temirni qizig'ida bos deganday, bo'lajak muharrirdan iltimos qildim:

– *O'zingiz ustozlik qilib menga taxallus qo'yib bersangiz* («Qaysar kuyov», 13-bet).

Hayotingda har qancha yetishmovchilik sezganing, qiynalغانing taqdirda ham birovdan hadeb so'rayverma, tilanma. Negaki birovning narsasi minnatli bo'ladi. Oz bo'lsa ham o'z mehnating bilan topilgan narsang halol, beminnat, betashvishdir:

1. Och qomim – tinch qulog'im.

2. Yarimta non – rohati jon.

3. Oz oshim – g'avg'osiz boshim.

4. Uyim sinch – ko'nglim tinch.

Zafar o'z o'quvchisi bilan yonma-yon borar ekan, unga, uning sinfdoshlariga va'da bergani – to'garak haqida, uni qanday qilib ochish

haqida o'ylar edi: «Nima qilsam ekan? Anvar aka bilan maslahatlashib ko'rsammikan? Yoki direktor aytganday, och qornim, tinch qulog'im, deb yuraveraymi?.. Yo'q, bu bo'lmaydi. Hamma o'z tinchini o'ylayversa, bolalarning taqdiri nima bo'ladi («Intizor», 62-bet).

Biror-bir ish yoki mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi kishini uning tashqi ko'rinishidan, yurish-turishidan, o'zini tutishidan, muomalasidan va h.k. bilsa bo'ladi:

1. Bo'yoqchining bo'yoqchiligi qo'lidan ma'lum.
2. Yog' xumchasi tashidan ma'lum.
3. Ov olgan tozi burnidan ma'lum.
4. Achigan qatiq xurmachasidan ma'lum.

Har bir narsaga kishi ixlos qo'ysagina, qat'iy ishonsagina o'sha narsa unga foyda beradi:

1. Ixlos – xalos.
2. Ixlos bilan yig'lasang,
So'qir ko'zdan yosh chiqar.
3. Ixlos bilan yopishsang,
Taqir yerdan chang chiqar.
4. Ixlos qilsang cho'pdan topasan.

– Duongiz foyda bermabdi-da, domla, Sharifboyning xotini o'libdi-ku, dedi xalfa, domlani masxaralagan bo'lib.

– Shakkoklik qilma! – dedi domla va yana qo'shimcha qildi: – Duo, albatta, foyda berar edi, u o'zining ixlossizligidan o'lgan, agar ixlosi bo'lsa, qutular edi. **“Ixlos – xalos”** deganlar (“Eski maktab”, 121-bet).

Kishida o'z maqsadiga erishish uchun intilish, harakat, qat'iylik, jur'at, ishtiyoq va h.k. bo'lsa, u albatta, o'z niyatiga, ko'zlagan maqsadiga erishadi:

1. Havas bo'lsa anqoning urug'i ham topilar.
2. Uringan xotin o'g'il tug'ar.
3. Tirishganning teshasi toshga chega qoqadi.
4. Ko'ngillagan cho'pon takadan sut sog'ar.

Hayotda ba'zan yaxshi, aqli kamolli, husni jamolli qiz (yoki yigit) yomon, badfe'l, badbashara, nobop odamning xotini (yoki turmush o'rtog'i) bo'lib qolgan paytda shunday kishilarga nisbatan aytiladi:

1. Uzunning sarasini it yer.
2. Mevaning yaxshisini qurt yeydi.
3. Qovunning sarasini it yer.
Olmaning sarasini qurt.

4. Tut yaxshisi – yerga,
Qiz yaxshisi – ko'rga.

Yo'ldosh bu paytda Saltanatga o'g'rincha qarab-qarab, ichida Azizdan kulardi. "Bo'rivachchadek chetga chiqib, xo'mrayib turishini qara! Man-man degan yigitlarni sarson qilgan Saltanat kelib-kelib shuni topibdi! Qovunning yaxshisini it yeydi o'zi!" ("Girdob", 84-bet)

Ikki odam urushib qolsa, ajrataman, yarashtirib qo'yaman, deb ularning o'rtasiga tushgan odamning sho'ri quriydi, u o'z boshiga o'zi balo ortiradi degan ma'noda qo'llaniladi:

1. Ikki tuya olishar, o'rtada pashsha yanchilar.
2. Ikki ayg'ir tishlashar, o'rtada so'na yanchilar.
3. Ikki ot tepishsa, o'rtada eshak o'ladi.
4. Ikki ajdar urushsa, o'rtada toshbaqa pachoq bo'lar.

Tengqurlar, do'stlar, qon-qarindoshligi bo'lgan kishilar bir-birlarining qattiq-qurum gaplarini ko'taradilar yoxud ko'tarishlari kerak, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Ot tepkisi otga o'tmas.
2. O'z gavroning o'zingga qattiq tegmas.
3. Enasi tepgan qulunning eti og'rimas.
4. Ho'kizning muguzi o'ziga og'irlik qilmas.

Men ham Shomurod akamning allaqaysi jihatini emas, o'zini yaxshi ko'rar edim. Onam qancha yolvordi. Boshingda otang bo'lmasa, ot tepkisi otga o'tmaydi, tog'angning o'g'liga uzataman, deb uvvalo yalindi, ko'nmadim. Shomurod akamdan ajralsam o'lib qolaman, deb o'ylardim («Ikki eshik orasi», 223-bet).

Bir odamdan bir nimani iltimos qilganda: «Bu ish siz uchun hech gap emas», degan ma'noda qo'llaydilar:

1. Karnaychidan – bir puf.
2. To'ng'izdan – bir tuk.
3. Suvdan – qatra, oftobdan – zarra.
4. Tegirmonchidan – bir bo'p.

– Bizdan nima ketibdi, Malikjon aka, ...karnaychidan bir puf, deydilar ("Mangulik", 280-bet).

– Hay, voqean, – dedi maxdum,.. boya Abdurahmon kelgan edi... Chog'i u ham mirzolikka kirishmakchi...

– Hozircha mirzoga ehtiyojimiz yo'q..

– ... Yoshligingiz bor, bolam, yoki Yangi mirzo olishda birovning ruxsatiga hojat bormi?

– Yo'q.

– *Ana, xolos! Az karnaychi yak puf!* (“Mehrobdan chayon”, 133–134-betlar).

Ig‘vogar, muttaham odam o‘zining kuchi yetmaydigan ikki odamning o‘rtasiga nifoq solib, urushtirib, o‘zlari bilan o‘zlarini ovora qilib qo‘yib, ularga tegishli bo‘lgan biror narsadan manfaatlanib qoladi:

1. Ikki shunqor urushsa, bir qarg‘aga yem tushar.
2. Ikki sichqon urushdi, bizga noni tushdi.
3. Ikki qarg‘a urushsin, o‘rtaga pati tushsin.
4. Ikki lochin urushsa, yapaloqqa jo‘n bo‘lar.

Qon-qarindoshligi bo‘lgan kishilar o‘zlarining yomon qiliqlari, xatti-harakatlari, qo‘pol so‘zlari bilan bir-birlarini ranjitsalar, buning uchun ular o‘zaro arazlashmasliklari, ayrilmasliklari lozim. Aks holda bu yomon oqibatlariga olib keladi:

1. O‘zimdand chiqqan baloga, qayga boray davoga.
2. Burunni sassiq deb kesib bo‘lmas.
3. Tilini tishlagan tishini sug‘urib tashlamas.
4. O‘z tovug‘im chaqirsa, qayga qarab qichqiray.

Birdan-bir yo‘l shu edi: qattiq gapirsa muz qotadi, yumshoq gapirsa pisand qilmay qo‘yadi.

– *Tilini tishlab olgan kishi tishini sug‘urib tashlamaydi! Chidaydi, qonini tupurib tashlab, chidaydi* («Bir kecha fojiasi», 126-bet).

Har kimni ham chin do‘st deb o‘ylab, sir-asroringni aytaverma. Sen do‘st deb hisoblab yurganing siringni bilib olgach, seni «sotib» rosa adabingni berdirishi mumkin:

1. Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga.
2. Ishongan tog‘da kiyik yotmas.
3. O‘ng ko‘zing chap ko‘zingga dushman.
4. Ishonmagil oshnangga, oshnang urar poshnangga.

B a h r i. Chakki qipsan-da, singlim. Dadam bechora uylansalar uylanib qo‘yaqolganlari ma‘qul edi.

N a z m i. Voy dod! Siz ham o‘sha tomonga og‘ib ketdingizmi? Ishongan tog‘da kiyik yotmas, deb shuni aytadilar-da («G‘ildirak», 229-bet).

Ozgina harakat bilan ko‘p narsaga erishaman yoki erishdim deb xomtama bo‘lma. Unga yetishish uchun tinimsiz mehnat, izlanish, sabr-toqat kerak bo‘ladi, degan ma‘noda qo‘llanadi:

1. Bir gul bilan bahor kelmas.
2. Bir daraxt o‘rmon bo‘lmas.
3. Bir qarg‘a bilan qish kelmas.

4. Bir mix bilan imorat qurib bo'lmas.

Kishi harakat qilsa, biror-bir narsaga intilsa, tirishsa, quruq qolmaydi, oxiri niyatiga erishadi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Qimirlagan qir oshar.
2. Tarmashgan tog'dan oshar.
3. Qo'li qimirlaganning og'zi qimirlar.
4. Tirishqoqning labi yog'liq.

...qovunni so'yishdan avval xuddi Azizga ko'z-ko'z qilayotganday, u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi. Keyin shirr etib pichoq tortishi bilan gazeta yuziga totli sharbat quyilib tushdi.

– Ha, jonvor-a! – dedi Mahamat chatoq ham og'zining suvi kelib... Oling, Azizjon, oling. Kafidakkina yerga, tagini cho'qilab go'ng solib ekanmiz, dorisi yo'q. Qo'li qimirlaganning og'zi qimirlaydi («Girdob», 67-bet).

Bu maqollar kishilarni o'zgalarga zinhor yomonlik qilmaslikka, yomon so'z aytmaslikka da'vat etadi:

1. Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa – birovga.
2. Tikanni o'zingga sanch, og'rimasa boshqaga.
3. Birovga juvoldiz suqmoqchi bo'lsang, oldin o'zingga igna ur.
4. O'tni o'zingga bos, o'tmasa – o'zgaga.

– Xudo seni sinayotgan edi. Sen boshqalarning boshiga ofat toshlari yog'dirib kun ko'rding. Endi bu toshlarni o'zing ham bir totib ko'r-chi? «Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa birovga ur», degan hikmatni eshitmaganmisan? Sen bu hikmatga amal qilmading. Pichoqni avval birovlariga urib, lazzatlanding. Endi esa pichoq etingni sal tilib ketsa, voy-voylab o'tiribsan... («Shaytanat», uchinchi kitob, 128-bet).

Biror ishning uddasidan chiqa olmagan bo'lsa ham hadeb behudaga urinaveradigan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Yiqilgan kurashga to'ymas.
2. Yalang'och suvdan qaytmas.
3. Yutqazgan o'yinga to'ymas.
4. To'kilgan to'lmas, yiqilgan to'ymas.

– Ochiq gapirganingiz ma'qul, albatta. Qalay, iloj bo'lsa Shayboniyxon bilan yana olishmoqchimisiz?

Mahmudxonning savolida: «Yiqilgan kurashga to'ymaydi, chamasi-da!» - degan kinoyali ma'no bor edi («Yulduzli tunlar», 206-bet).

Bilasanmi, yalang'och suvdan toymas, deydilar. Qo'lga tushsam, peshanamdan otishadi, shundoq ekan, bittasini o'ldirdim nima-yu,

ikkitasini o'ldirdim nima. Yaramas Azizni o'ldirmaguncha armonimdan chiqmayman. O'ldirmasam, go'rimda tikka turaman ("Ufq", 211-bet).

Har bir kasb egasining "tili"ni, ya'ni uning hol-ahvoli, sir-asrori, ichki kechinmalari, nuqson-kamchiligi, niyat-maqsadini, xullas, jamiki o'ziga xos xususiyatlarini o'sha kasb egalari; qariya tilini qariya, ayol tilini ayol, bola tilini bola tushunadi, his etadi, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Qush tilini qush biladi.
2. Tuya tilini tuyakash bilar.
3. Gung qizning tilini enasi tushunar.
4. Ayol sirini ayoldan so'ra.

Orif ota harna qilsa ham ko'pni ko'rgan odam emasmi, bu masalada Abduhafizdan maslahat chiqish u yoqda tursin, sado chiqmasligiga aqli yetgan edi... "Ha, qush tiliga qush tushunganidek, qariyaning tiliga qariya tushunadi", deya o'zini yupatdi ("Hazrati inson", 342-bet).

1. Ot boshiga ish tushsa, suvlig'i bilan suv ichar.

Er boshiga ish tushsa, etigi bilan suv kechar.

2. Boshiga kun tushsa, xonoyim zog'ora yopar.
3. Boshiga tushsa, baytal ham yo'rg'a bo'ladi.
4. Boshingga kun tushsa, boshmoqchi ham bo'lasan:

Yana bir masal borki: "Er boshig'a ish tushsa, o'tuk chechmay, suv kechar, ot boshiga ish tushsa, so'luq birla suv ichar" ("Zarbulmasal", 42-bet).

1. Quduqni kim qazir,
Suvini kimlar ichar.
2. Qo'yini birov qarar,
Sutini kimlar ichar.
3. Ot topadi, eshak yeydi.
4. Bo'ri yorar, quzg'un to'yar.

Bular ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: mehnati, mashaqqati, azobini birov tortib, rohatini boshqa kishi ko'radi, degan ma'noda aytiladi.

2-ma'no: o'z qarindosh-urug'ining mehnatini ko'z-ko'z qilib, maqtab, uning qo'li ostida bo'lgan kishilarga pisanda qilish maqsadida qo'llanadi.

– Ha? – dedi ammam yo'g'on tovushda. – To'rvasini yo'qotgan gadoydek talmovsirab qopsiz, kelinposhsha?!

– Yo'q, opa, o'zim... – Oyim chaynalib qoldi. – Ziragim o'lgurning bir poyi tushib qopti...

– *Qo'ying, opajon, – oyim uning yelkasiga ohista kaftini qo'ydi. – Yuring uyga, hali zamon ukangiz kelib qoladilar.*

– *O'zi shunaqa bo'ladi, – dedi ammam yerdan bosh ko'tarmay. – Ot topadi, eshak eydi!* (“Nurli dunyo”, 116-bet).

Kishi tirikchilik uchun zarur bo'lgan narsa-mablag'ni, bilimni va h.k. oz-ozdan bo'lsa ham jamg'arib, o'rganib borsa bir kuni juda katta mablag' yoki bilimga ega bo'lganligini o'zi sezmay qoladi:

1. Toma-toma ko'l bo'lar,
Oqa-oqa sel bo'lar.
2. Chala-chala chalag'on bo'lar.
3. O'tin degan cho'p bo'lar,
Teraversang ko'p bo'lar.
4. Suvning boshi – qor,
Botmonning boshi – misqol.

Toma-toma ko'l bo'lur, deydilar. Abduhamid o'ta tirishqoqligi, tinmay mutolaa qilishi, jamoat ishlaridagi faol ishtiroki natijasida nafaqat bilim yurtida, balki Samarqand shahri ziyolilari o'rtasida ham tez orada tanilib qoldi (“Eng gullagan yoshlik chog'imda”, 96-bet).

Oz-ozdan bo'lsa ham yig'amiz! – Qamchi O'tapning gapini quvvatladi.

Toma-toma ko'l bo'lur! – Luqma tashladi Mavlon aka (“Mash'al”, 18-bet).

Quyidagi maqollar ikki ma'noda sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: foydani nihoyatda yaxshi ko'radigan, foyda desa harom-harishni, yaxshi-yomonni farq qilmay ish ko'raveradigan, “foydasi tegsa – bas” deydigan odamlarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi.

2-ma'no: shunchaki nomigagina, xo'jako'rsinga ish bajaradigan, birovning zarariga bo'lsa-da o'zining boshidan gunohni soqit qiladigan kishilarga nisbatan qo'llanadi:

1. Taka bo'lsin, suti bo'lsin.
2. Quyon bo'lsa ham eti bo'lsin.
3. Eshak bo'lsa ham xayri bo'lsin.
4. Go'r kuysa-kuysin, qozon qaynasin.

Ma'mur. Hunarimiz shu bo'lgandan keyin to'yga aytsa ketaveramiz-da. Bizga taka bo'lsin, yuz gramm suti bo'lsin (“G'ildirak”, 253-bet).

Odatda, o'zbek ayollari qo'shninikiga chiqqudek bo'lsa yoki ko'cha-ko'yda birovni uchratib qolsa, gapni indalosidan boshlamay, avval u yoq bu yoqdan suhbatlashib, chaqchaqlashib o'tirib, so'nggina maqsadga o'tadi. Aksariyat ayollarning bunday yo'l tutishlari ularning

uddaburoligidan darak beradi, chunki ular suhbatdoshini avval iydrib, so'ngra ishini bitiradi:

1. Elakka kirgan xotinning ellik og'iz gapi bor.
2. Ikki xotin bosh qo'shsa bozor bo'ladi.
3. Xotin yettiga chiqsa, yetti uyning kalitini ola chiqadi.
4. O'tga kelgan xotinning o'ttiz og'iz gapi bor.

Bir parcha etni tarbiyalab, voyaga yetkazguncha ota-ona; bitta shogirdni yo'lga solguncha ustoz, pir va h.k. juda ko'p azob, mashaqqat chekadi:

1. Toylar ot bo'lguncha, jigarlar xun bo'lar.
2. Toyni ot qilguncha, egasi it bo'lar.
3. Bola o'stirish – tosh kemirish.
4. Bola bola bo'lguncha, Ona moma bo'ladi.

Qachonlardir, kimdandir chala-chulpa eshitgan bi' gapiga asoslanib, shuni (garchi noto'g'ri bo'lsa ham) hammaga ma'qullab yuruvchi, e'tiroz bildirsalar, urib-yenguvchi odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaydilar³³:

1. Ko'r tutganini qo'ymas, kar – eshitganini.
2. Ko'r tovuqqa har narsa bug'doy ko'rinar.
3. Ko'rga ko'rsatma, karga gapirma.
4. Ko'r tovuqqa bari – tariq.

Ikki do'st (biri ko'r ekan) uzoq safarga chiqibdilar. Sahroyi Kabirda ko'rning qamchisi qo'lidan tushib ketadi. U otining jilovini tortib, qamchini izlaydi. Bir zaharli ilon tun sovug'ida karaxt, qotib yotarkan. Ko'r uni qamchi deb olganicha otiga minadi. Ko'zi ochiq hamsoyasi uning qo'lida ilonni ko'rgach, oshiqadi:

Do'stim, qamchi xayol qilib olganing zaharli ilon-ku! Tashla! ...

Bu so'zlarini o'jar ko'rga ma'qullata ulgurmasdanoq odam qo'lining haroratidan jonlangan ilon uni chaqadi va halok qiladi.

Shu-shu, «ko'r tutganini qo'ymaydi» maqoli yashar emish (“Yulduzlar jamoli”, 74-bet).

Ikki narsaning unisi ham baribir, bunisi ham baribir degan ma'noda ishlatiladi:

1. Ikki o'n besh – bir o'ttiz.
2. Alixo'ja – Xo'jaali.
3. Ikki sakkiz – o'n olti.

³³ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 210.

4. Biri o'n to'qqiz, biri bir kam yigirma.

– U sizlarda bo'ladi ko'p xotinlik. Ko'p xotinlik – feodallik.

– Bu-chi? Bu feodallikka kirmaydimi? Farqi nima: biri uyida oshkora saqlabdi, biri ularni o'z uylarida yashirin tutibdi. Ikki o'n besh – bir o'miz! (“Shinelli yillar”, 527-bet).

Har bir joy, manzilning o'z urf-odati, rasm-rusumi, yashash tarzi bo'ladi. Uni o'sha yerda yashovchi kishilargina yaxshi bilishadi. Shuning uchun sen shunday joylarga borib ish bitkazmoqchi bo'lsang, avvalo, o'sha yerda yashovchi kishilar bilan kengash. Ularning maslahati bilan ish tut:

1. Har yerning tulkisini o'z tozisi bilan ovla.
2. Har eyrning quyonini o'z ovchisi ovlasin.
3. Har tog'ning qulonini o'z tozisi bilan ovla.
4. Har yerning bo'risini o'z tozisi bilan ovla.

Har bir kishining xayolida o'z o'ylab yurgan o'yi, orzu-havasi, intilishi, ko'zlagan maqsadi, niyati bo'ladi:

1. Har kallada bir xayol.
2. Har kimning o'z fikri bor,
Qurbaqaning zikri bor.
3. Har kimning bir o'yi bor,
Xayolida ming qo'yi bor.
4. Har ko'ngilda – bir gavhar.

Kezi kelsa, boshingga biror ish tushib, mushkul ahvolda qolsang, ketmon chopishdan, o'roq o'rishdan (ya'ni o'zingcha “qora ish” deb hisoblaydigan ishni qilishdan) orlanma, qilaver³⁴, deyilmoqchi:

1. Yumushning yomoni yo'q.
2. Kezi kelsa, ketmon chop.
3. O'mi kelsa, o'roq o'r.
4. O'g'rilik ayb, buzuqlik ayb, mehnat ayb emas.

Bo'lar-bo'lmasga injiqlik qilavermaydigan; qildan qiyiq axtarib, dunyoni kishi ko'ziga tor qilib qo'ymaydigan, hayotning achchiq-chuchugiga ko'p ham e'tibor bermaydigan; har qanday holatda o'zini bosiq, vazmin tutuvchi fe'li keng insonlar jamiyatda izzat-obro'ga ega bo'ladilar, hayotlari ham farovon, tinch, osoyishta o'tadi:

1. Kengga keng dunyo, torga tor dunyo.
2. Keng bo'lsang, kam bo'lmaisan.

³⁴ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 184.

3. Keng bo'lgan keng yashar.
4. Keng bo'lganga g'am yuqmas.

Tabiatda ham, jamiyatda ham sababsiz hech bir voqea-hodisa ro'y bermaydi. Har bir voqea-hodisaning obyektiv va subyektiv sabablari bo'ladi:

1. Sababsiz oyoqqa tikan kirmas.
2. Sabab bilan savat aravaga chiqar.
3. Sababsiz qush ham uchmas.
4. Sabab bilan ziyorat,
Balchiq bilan imorat.

Turmush tajribasi bo'lmagan, ya'ni hayotning issiq-sovug'ini totmagan, holatni o'z boshidan kechirmagan inson senga to'g'ri maslahat berishga, yo'l ko'rsatishga ojizlik qiladi, shuning uchun bunday kishilarning maslahati bilan ish tutsang, adashib qolishing mumkin, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Bo'ydoqning ko'zi bilan qiz olma.
2. Bo'ydoqning aqli ikki ko'zida.
3. Ot olma piyodaning maslahati bilan,
Xotin olma bo'ydoqning maslahati bilan.
4. Umr savdosi – qiyin savdo.

Ajdodlarimizda sigir-buzog'i bor xonadon boy, o'ziga to'q, himoyalangan oila sanalgan:

1. Oqlik³⁵ bo'lsa, ochlik bo'lmas.
2. Agar bo'lsa oqliging, bilinmaydi yo'qliging.
3. Oqimiz bo'lsa, so'kimiz³⁶ bo'lsa, o'lmaymiz.
4. Oqlik bor uyga og'riq kirmas.

Ba'zan beodobdan odobni, aqlsizdan aqlni, betamizdan tamizni o'rganish mumkin. Ya'ni har qanday xunuk, noo'rin, beo'xshov va h.k. larni ko'rganda, ularga ro'para kelganda bunday holatlar kishilarda salbiy munosabat uyg'otishini his qilasan, shuning uchun o'zingda o'sha xususiyatlarning bo'lmasligiga harakat qilasan:

1. Aqlni aqlsizdan o'rgan.
2. Adabni beadabdan o'rgan.
3. Tamizni betamizdan o'rgan.
4. Odobning nima ekanini odobsizni ko'rganda bilasan³⁷.

³⁵ Oqlik – sut, qatiq, pishloq, suzma, qurt, qimron, qimiz va h.k. (Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 5).

³⁶ So'k – tozalangan tariq.

Birovning qilmishi uchun birovni jazolamaydilar. Har kim o'z qilmishiga yarasha jazosini tortadi:

1. Echkini o'z oyog'idan osadilar,
Qo'yni ham.
2. Har kimning amali o'z oyog'idan.
3. Oq qo'yni oyog'idan osadi,
Qora qo'yni ham o'z oyog'idan osadi.
4. Har kimning kori a'moli – o'ziga.

Bundan chiqdi hamma gunoh o'zimda ekan-da! Nimaga? Aybim nima! Shu odamni sevganimmi! Agar yaxshi ko'rish ayb bo'lsa... bu dunyoda beayb odamning o'zi bormi? Mayli, kim nima desa – desin! Qo'yniyam o'z oyog'idan osadi, echkinyam («Ikki eshik orasi», 384-bet).

Kishida qancha mol-davlat, shart-sharoit, keng imkoniyat va h.k. bo'lgani bilan undan faqatgina o'zi manfaat ko'radi, shuning uchun birovga buni ko'z-ko'z qilishning ahamiyati ham, hojati ham yo'q:

1. Qo'ling yog'li bo'lsa, boshingga surt.
2. To'ng'izning semizligi – o'ziga.
3. Otning dumi – o'ziga qo'rg'ich.
4. Har kimning huzuri – o'ziga,
Otasining go'riga.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: kichiklar kattalarga ergashadilar, ularning qilganlarini qiladilar, ularning boshlagan ishlarini davom ettiradilar.

2-ma'no: kichiklar kattalarning yo'lidan borishlari, ularning ko'rsatmasini bajarishlari, chizgan chizig'idan chiqmasliklari lozim:

1. Katta arava qaydan yursa, kichik arava shundan yuradi.
2. Katta karvon qay yo'ldan ko'chsa, kichik karvon ham shu yo'ldan ko'char.
3. Katta boshlar, kichik tashlar.
4. Og'asin ko'rib inisi o'sar,
Opasin ko'rib singlisi o'sar.

Raqib tomonning yengilayotganligini, kuchsizlanayotganini sezgandan keyin ovozini balandlatadigan, “men zo'rman” deb ko'kragiga uradigan, maqtanchoq, mahmadana kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

³⁷ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 5.

1. Yov qochsa, botir ko'payar.
2. Yov yo'g'ida hamma botir.
3. Yov ortidan – yuduruq (yuduruq – musht).
4. Bizning aka – o'zi qo'rqqoq, qo'li botir,
Yov qochganda – qilichini yaraqlatur.

Qadringni bilmaydigan, senga joni koyimaydigan qarindoshdan yaxshi-yomon kuningda yoningda turib beradigan, dardingga hamdam bo'ladigan begona afzal:

1. Qadr bilmas qarindoshdan qadr bilgan yot yaxshi.
2. Yoli semiz eshakdan yag'ir bo'lsa ham ot yaxshi,
Qadr bilmas qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.
3. Bemehr qarindoshdan mehribon qo'shni yaxshi.
4. Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi,
Yaxshi yuguruk eshakdan yomon bo'lsa ham ot yaxshi.

Yolg'on gapirish insonga hech qachon manfaat keltirmagan. Chunki yolg'on so'z uzoq yashamaydi, darrov fosh bo'ladi:

1. Yolg'onning umri qisqa.
2. O'truk (o'truk – yolg'on)ning dumi – bir tutam.
3. Bugungi yolg'onning ertaga chini chiqar.
4. Gapi duro'g' da sargini xar pana.

Kishining qanaqaligini hamma vaqt ham uning tashqi ko'rinishidan, xarakter-xususiyatidan bilib bo'lmaydi. Ayyorlikni, hiyla-nayrangni kasb qilib olgan inson o'zini tutishda, muomalada hech qanday sir boy bermaydi, siyratini namoyon qilmaydi, shuning uchun bunday kishilardan doimo ehtiyot bo'lish lozim:

1. Mol olasi tashida, odam olasi ichida.
2. Qarg'a qarisin kim bilar,
Kishi olasin kim bilar.
3. Yerdan chiqadi tilla,
Odamdan chiqadi hilla.
4. Ko'rinib turgan ajdardan, biqinib yotgan ilon yomon.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimiya hosil qiladi:

1. Yog'masang ham gurillab o't.
2. Yemasang ham qora mayizdan gapir.
3. Yemasang ham palovdan gapir.
4. Yog' bo'lmasa, chalpak qil,
Un bo'lmasa – patir.

1-ma'no: shirin orzu-umidlar qiluvchi kishilarga nisbatan qo'llanadi.

2-ma'no: quruq maqtanadigan kishilarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi.

– *Obbo chol-e. oldiz, oldiz. Bu deyman, hazil-hazil deb yurib, qarmoqqa ilinib qolsangiz-a, ota?*

– *Koshkiydi, – dedi Orif ota og'zining tanobi qochib, – saniyam gohi-gohida nafaslaring issiq bo'lib turadi-ya, cho'loq.*

– *Bo'sh kelmaysiz-a. Yemasang ham qora mayizdan gapir deb shuni aytishsa kerak-da, a, chol...* (“Hazrati inson”, 254-bet).

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: moddiy boyligi, mablag'i yetarli inson o'z pulini dastmoya qilib, puldan pul undiradi, kambag'al esa imkoniyati yo'qligi bois borgan sari qashshoqlashib boradi.

2-ma'no: puldor kishibiror-bir tadbir, tantana va h.k. o'tkazadigan bo'lsa, unga sovg'a ustiga sovg'alar kelaveradi, kambag'alning tadbiri esa o'z holicha o'tadi:

1. Boyga boy ham beradi,
Boyga xudoy ham beradi.
2. Yog' yoqqa tomar, moshovaga jaz ham yo'q.
3. Pul pulni topadi,
Bepul – dardisarni.
4. Berganga qo'sha-qo'sha,
Bermaganga o'sha-o'sha.

Jahl kishi boshiga balo keltirishi, har qanday holatdan aql bilan chiqib ketish mumkinligi, shuning uchun ortiqcha g'azablanmaslik lozimligi uqtiriladi:

1. Jahl – dushman, aql – do'st.
2. Jahl – pichoq, aql – tayoq (tayoq – hasa, kishiga tayanch bo'ladigan, yordam beradigan narsa).
3. Oqilning aqli – o'ziga yo'ldosh,
Johilning jahli – o'ziga kundosh.
4. Jahl kelsa, aql qochar.

Har bir ishning o'z mavridi keladi, bajarilish vaqti bo'ladi:

1. Olma pishsa, tagiga tushadi.
2. Qovun pishsa, dum beradi.
3. Osh dam yemasa, tirik qoladi.
4. Yov ketsa yovon ochilar,
Osh pishsa qozon ochilar.

– *Qani endi urush birinchi maygacha tugasa...*

– Sabr qil, do‘stim, ko‘pi ketib ozi qoldi. Qo‘mondonlarimiz ham qo‘l qovushtirib o‘tirishmayotgandir. O‘zing aytasan-ku, qovun pishsa, dum beradi deb. Bizning hujum ham vaqti yetib, hali pishmagandir-da,.. (“Shinelli yillar”, 557-bet).

Bir-birlariga qarama-qarshi, raqib bo‘lgan kishilar kezi kelganda manfaat yuzasidan o‘zaro inoqlashib, bir-birlariga ko‘maklashishlari yoki bir-birlariga yon bosishlari mumkin, degan ma‘noda ishlatiladi:

1. Bo‘ri bilan quzg‘un ovda o‘rtoq.
2. Daraxt kesuvda arra bolta do‘st bo‘lar.
3. It bilan ovchi ovda o‘rtoq.
4. Ovchi tulkinging etini yemaydi, terisini shiladi³⁸.

Quyidagi paremlar ikki ma‘nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma‘no: birovning nuqsonini yo‘qotish, yashirish uchun qanchalik tirishmang yoki uning o‘zi bu uchun qanchalik harakat qilmasin, baribir, nuqson bilinib, ko‘zga tashlanib turadi, – degan ma‘noda qo‘llanadi.

2-ma‘no: birovning ko‘zini shamg‘alat qilib, shaklini o‘zgartiradigan, mohiyati esa o‘zgarmay qoluvchi holatlarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llanadi:

1. Eshak o‘sha eshak,
To‘qimi boshqa.
2. Atir suvin sepgan bilan
Sarimsoq xushbo‘y hid bermas.
3. Makkada bo‘lgani bilan
Eshak hoji bo‘lmas.
4. Nodon zarbof to‘nda ham nodon.

Janjalkashlik, beobro‘lik, shallaqilikda bir-biridan qolishmaydigan insonlarga nisbatan qo‘llanadi:

1. Onasi jinni – bari jinni.
2. Tuxumi birning bari bir.
3. Ali jinni, Ali jinnining bari jinni.

³⁸ Kishilik jamiyatida shunday hollar ham bo‘ladiki, boyning, amaldorning o‘zi yo umr yo‘ldoshi, farzandlari yoxud yaqinlariga biror odam (turli yo‘llar bilan) yaqinlashib, do‘stlashib, qadrdonlashib, “bordi-keldi”, “oldi-berdi” qilib, apoq-chapoq bo‘lib ketadi. Bunday tasodifiy holdan taajjublangan odam bir odamga: “Nechuk falonchi falonchi bilan juda “ogiz-burun o‘pishadigan” bo‘lib ketibdi?” desa, u odam kinoya, qochirim yo‘sinida mazkur maqolni aytadi va bu bilan: “He, shuni ham bilmaysanmi? Uning bu do‘stlashib, qadrdonlashgani bejiz emas. Asli maqsadi – u bilan xolisanillo do‘stlashishmas, balki “yoliga” shunday qilib, qulay payti kelganda uning vositasi bilan o‘zining qo‘lidan kelmaydigan biror ishini bitirib olish yoinki undan biror narsa undirib, moddiy manfaat ko‘rishdir”, demoqchi bo‘ladi (Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 252).

4. Eshigidan qarasam – bir jinni,
Tuynugidan qarasam – bari jinni.

Besh parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Har qanday ish yoki narsadan umidni uzmay, harakat qil, yetishmagan ish yoki narsangga, albatta, yetishasan, degan mazmunda ishlatiladi:

1. Chiqmagan jondan umid.
2. To resha dar obast umedi samarast³⁹.
3. Umidli dunyo, noumid shayton.
4. Umid o'rga tortar, umidsizlik – go'rga. (o'r – balandlik, tepalik.)
5. Umid o'lmas, rizq kamimas.

– *Buni jin chalipti. Vaqti o'tipti. Kechaning o'zida menga xabar berishing kerak edi. Vaqtida kelib jinlarni bog'lardim, – dedi va uy egasini umidvor qilish niyatida: – hozir ham vaqti, kuchimiz yetgunicha harakat qilamiz. Ajab emaski omon qolsa, "To resha dar obast umedi samarast" deganlar ("Doxunda", 42-bet).*

Bu maqollarni bir odam boshqa bir kishi tufayli, uning bahonasida bir nimadan bahramand bo'lib qolsa, yaxshi odam tufayli yomon odam ham foydalanib, manfaatlanib qolsa va h.k. shu kabi hollarda qo'llaydilar:

1. Sholining orqasidan kurmak suv ichar.
2. Bir ot orqasidan ming eshak yem yeydi.
3. Bug'doy orqasidan qoramug' ham suv ichar.
4. Gul tufayli tikan suv ichar.
5. Bo'ri orqasidan tulki to'yadi.

– *Men novvot choy ichmayman, – dedi kichik xotin qizishib, – kelinga beravering! Novvotni amakilari u kishiga yuborgan.*

– *Siz ichmaydigan bo'lsangiz, men icha qolay, – deb katta xotini piyolani kundoshi oldidan oldi-da:*

Amakilari kelinga yuborgan bo'lsalar ham, «sholining orqasidan kurmak suv ichadi», degan gap bor, – deb qo'ydi («Eski maktab», 140-bet).

Bir ota-onadan bir necha bola tug'ilsa, ular tashqi ko'rinishdan bir-birlariga o'xshasalar ham, xulq-atvorlari jihatidan har xil bo'ladilar, bir-birlariga o'xshamaydilar:

1. Bir palakdan bir necha xil qovun yetishadi.

³⁹ Daraxt ildizi suvda ekan, mevadan umid bor.

2. Bir uyadan necha alvon qush uchadi.
3. Bir otdan ola ham tug'ilar, qora ham.
4. Bir onadan alvon xil bola tug'iladi.
5. Bir onaning bolasi – bir tog'ning lolasi.

Bir palakda necha xil qovun, degandek A'zamjon o'sgan oilannng bolalari bir-biriga o'xshamagan chiqdi. Ota mol-dunyo oldida har qanday pastkashlikdan toymaydi. Onasi rahmatlik mungli, qobil xotin edi ("Ufq", 544-bet).

Man-man degan zo'rlar ham qarisa, qo'lidan hech bir ish kelmaydigan bo'lib qoladi va o'ziga mutlaqo yarashmaydigan maydachuyda ishlarga aylanishib qoladi:

1. Qarchig'ay qarisa chumchuqqa mayna bo'lar.
2. Bo'ri qarisa itga kulgi bo'ladi.
3. Arslon qarisa tulkiga kulgi bo'ladi.
4. Arslon qarisa sichqon inini poylar.
5. Burgut qarisa sichqon ovlar.

... Kunduzi-ku, o'ziga yumush topadi. Saharlab sutga chiqadi (Natasha o'rgatgan odat). Sut olib qaytayotganida, albatta, Qurbonoyni ko'radi. Gapga soladi. Arslon qarisa kuni sichqon tutishga qoladi, deganlari shu bo'lsa kerak-da! Aqalli shu xotin bilan gaplashsa ham harna-da. Vaqt o'tadi... ("Nurli dunyo", 564-bet).

Odatda, kambag'al kishi or-nomusli, uyatchan, o'zi to'q bo'lmasa ham, «ko'zi to'q» bo'ladi, garchi tansiq taomlarni onda-sonda, oydayilda bir yeb qolsa ham, biror yerga borib qolganda dasturxondagi lazzatli taomlarni apil-tapil yeyavermaydi, odob saqlaydi. Bunday taomlarni kunda yeb yurgan kishilar esa, aksincha, o'zini tiyib, odob saqlab o'tira olmaydi. Negaki, katta-katta yeyishga o'rgangan nafsi bunga yo'l qo'ymaydi:

1. Kunda yegan och, yilda yegan to'q.
2. Oyda yegan to'q, kunda yegan suq.
3. Kunda yegan osilib o'lar,
4. Oyda yegan tek turar.
5. Oyda yegan ot bo'lar, kunda yegan it.

Zaynab bir chimdim-bir chimdim ushatib ularning qo'liga berdi.

– Endi qolganini tog'ang yesinlar. Xo'pmi, opoq bolalarim.

Yo'q, bolalar talashib, tortishib nonni uloq qilvorishdi. Tolibjon zo'rg'a bir burdagina yeb qoldi. Kampir yana gapga tushdi:

– Kunda yegan och, yilda yegan to'q, deb shuni aytadi-da («Jimjitlik», 60-bet).

Uning ochqaganidan qorni quldirab ketdi. Oqshom ichgani bir kosa atalaning kuchi qanchaga yetar edi? Lekin boshqa nima iloj bor? Birovlarning uyida shu atala ham yo'q-ku. Hozir Qalandarning nimadir yegisi keldi. Biroq nima yeydi? Kambag'alning bolasi sabr-qanoatli, chidamli bo'ladi. Oyda yegan to'q, kunda yegan suq, degani shudir-da («Intizor», 102-bet).

Bu maqollar ish aksiga olgan, omad yurishmagan damlarda aytiladi:

1. Tayoqsizga tovushqon uchrar.
2. Kamonsizga kiyik uchrar.
3. Eshakliga tulki uchrar.
4. Qop to'lganda tezak uchrar.
5. Yemas yerga o't bitar,
Ichmas yerga suv bitar.

Mazkur maqollar ehtiyotkorlik bilan so'zlash, hushyor, ziyrak bo'lish kerak degan ma'noda ishlatiladi:

1. Devorning qulog'i bor.
2. Kunning ko'zi bor, tunnning qulog'i.
3. O'z uyim deb gapirma, tom orqasida odam bor.
4. Do'ppining tagida odam bor.
5. Chayon kesak tagida yotadi.

Buki derlar bordurur devor keynida quloq,

Ul fazo davrida ko'z yetguncha devor o'lmag'ay (Navoiy).

O'zi dong'i ketgan boy bo'laturib, xasislik qiladigan yoki nomi ulug' bo'la turib, oddiygina ishni ham eplab bilmaydigan, faqat o'zining «falonchi»ligidan kerilib, mag'rurlanib yuradigan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Sirti – yaltiroq, ichi – qaltiroq.
2. Nomi – kalon, shahri – vayron.
3. Nomi – ulug', suprasi – quruq.
4. Usti – butun, ichi – tutun.
5. Oq uyim, qoq uyim, tevarak chetiga boq uyim.

“Xudoga shukrki, nimaga qo'l uzatmay – yetadi! Birovning shunday nozik, shunday suluv xotiniga ham... Odamlar bor, og'zidagini oldirib o'tiradi. Akang qarag'ay... Manavilarning hammasi bir go'r! Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Kimsan, shunday akademik tog'am ham vaqti kelsa menga elanadi-yu...” (“Girdob”, 84-bet).

Ishyoqmas, dangasa, badfe'l, o'jar kishilar doimo ishni buzib yuradilar, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Yomon arava yo'l buzar.

2. Yomon baliq suv loyqatar.
3. Yomon ot oxurga yolchimas.
4. Yomon ho'kiz shomiyon sindirar.
5. Yomon ilon tegirmon boshida aylanar.

Ba'zilar biror ishini bitirib beradigan odamning atrofida ishi bitguncha girdi-kapalak bo'lib, yalinib-yolvorib yuradi, unga xushomad qilib soyasiga ko'rpacha to'shaydi. Ishini bitirib olgach esa u odamga qayrilib ham qaramaydi, mabodo ko'cha-ko'yda ko'rib qolguday bo'lsa, o'zini ko'rmaganga solib, chetga qarab o'tib ketaveradi. Ushbu maqollar ana shunday kishilarga qarata kinoya tarzida aytiladi:

1. Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi.
2. Bug'doy o'rilgach, o'roqni zang bosadi.
3. Bo'yin tuzalguncha: "Salom alaykum, g'oz aka".
Bo'yin tuzalgach: "Qoch, nari tur, g'oz aka".
4. Suvdan o'tguncha, yo Bahovuddin,
Suvdan o'tgach, qoch Bahovuddin.
5. Yotar oqshomi – yorim.

M u l l a d o' s t (kirib). ... Hay, taqsir bajardingizmi?..

M u l l a r o' z i. Yo'q-ey, mana endi biz bugundan axtarishga tushamiz-da!

M u l l a d o' s t. O'rgulay, aytmadimmi, eshak loydan o'tguncha deb... Bo'ldi-ey taqsir! ("Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi", 114-bet).

Biror-bir kamchiligi, nuqsoni bor kishi nuqsonli, biror aybi mavjud bo'lgan kishiga yo'liqsa, hamroh bo'lsa yoki u bilan turmush qursa va h.k. hollarda "o'ziga yarashasi aslida shu edi" degan ma'noda ishlatiladi:

1. Kapasiga yarasha qirmovi,
Eshagiga yarasha tushovi.
2. Ko'lmak suvga – sassiq alaf.
3. Qum qozonga – loy tuvoq.
4. Yoriq hovonchaga – siniq sop.
5. Notavon ko'ngilga – qo'tir jomashov.

G' a n i. Uylanolmaymanmi, a, ... Shu zax, qorong'i uyda ko'kragimni zaxga bosib, muzdek yostiqni quchoqlab g'ingshib yotaveramanmi?!

R a h i m a. Voy, tavba! O'gay onali bo'ladiganga o'xshaymiz. Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov, degan ekan, bir dono odam ("G'ildirak", 203-bet).

Ijtimoiy kelib chiqishi, aqli, husn-halovati, tarbiyasi va h.k. lari tomonidan talab darajasida bo'lgan kishiga turli jihatdan o'ziga mos tushmagan odam yo'liqsa, shunday odam unga turmush o'rtoq bo'lsa va h.k., shunday hollarda kinoya tarzida aytiladi:

1. Atlas ko'ylakka – bo'z yamoq.
2. Mis qozonga – loy tuvoq.
3. Zarvaraqa – bo'z yamoq.
4. Amirkon mahsiga – ukpa kavush (ukpa – sifati past teri).
5. Oltin uzukka – shisha ko'z.

Biron-bir shaxs yoki narsani haddan tashqari asrab-avaylasangiz, aksiga olgandek, o'sha shaxs yoki narsaga ziyon tegib qoladi:

1. Asragan ko'zga xas tushar.
2. Tilab olgan bolamni tuya tepib o'ldirdi.
3. Qo'rchalagan ko'zga cho'p tushar.
4. Asragan qo'l sinar.
5. Asragan otning oyog'i sinar.

– *Yolg'iz o'g'illarini hatto mendan ham qizg'anar edilar. Otangni kechalari ham chaqirib turardilar. Shunaqa asrardilar. Lekin... asragan ko'zga cho'p tushishini bilmagan ekanlar* (“Shaytanat”, ikkinchi kitob, 235-bet).

Ishyoqmas, dangasa, imkoniyati bo'lgan paytda qo'lini sovuq suvga urmay tarallabedod qilib yuruvchi, tirikchiligi uchun zarur bo'lgan narsalarni jamg'armay, yalqovlik qiluvchi; noiloj qolgan, tirikchilik va boshqa jihatlardan qiynalib qolgan paytda esa vaqti kelsa ana unday qilaman, mana bunday qilaman deb atrofdagilarga keriluvchi kishilarga nisbatan kinoya tarzida aytiladi:

1. It: “Yozga chiqsam, suyakdan saroy solaman”, – der.
2. Qurbaqa: “Yozga chiqsam, oq uy, ola borgoh solaman”, – der. (borgoh – saroy, qasr.)
3. Eshak: “Boshim omon bo'lsa, dengizdan suv ichaman”, – der.
4. Ho'kiz: “Ko'klamga chiqsam, ko'kat yeyman”, – der.
5. Qurbaqa: “Boshim omon bo'lsa, daryoda suzaman”, – der⁴⁰.

Har bir narsasini birovdan qizg'anadigan, o'la qolsa birovning hojatini chiqarmaydigan qizg'anchiq, ziqna odamlarga yoki qaltis vaziyat, davrga nisbatan qo'llanadi:

1. Nari borsa ho'kiz o'lar, beri kelsa arava sinar.

⁴⁰ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 145.

2. Bir kunga ho'kiz o'lmaydi, ikki kunga egasi bermaydi.
3. Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi.
4. Toz taroqli bo'ldi, tarog'i yaroqli bo'ldi.
5. O'larmon o'z uvadasiga o'ralib o'ladi.

Yana birontasini toparmiz, borib, toza havoda bir o'ynab kelasizlar. Bu – ishingizga xalal beradi albatta. Lekin noilojmiz, uka. Bilasiz-ku, ko'plar dekretda, ko'plar kasal... Bir kunga ho'kiz o'lmaydi, ikki kunga egasi bermaydi («Girdob», 260-bet).

Tubandagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik tashkil etadi:

1-ma'no: ro'zg'or tebratish oson emasligini ta'kidlagan holda chidamli, bardoshli bo'lishga da'vat etib, bu borada qiynalayotgan odamga tasalli berish uchun ishlatiladi⁴¹.

2-ma'no: ro'zg'orga qancha narsa olib kelmang, baribir, yetishmovchilik bo'lishi tabiiy, degan ma'noni uqtirish maqsadida qo'llanadi.

1. Ro'zg'or – g'or.
2. Ro'zg'orning nimasi yo'q – bo'zdan xaltasi.
3. Uyga uy bo'yi uysang ham oz.
4. Ro'zg'ori kattaning tashvishi ham katta⁴².
5. Ro'zg'or tushdi boshga, qo'l tegmadi oshga.

Yashab, ishlab hayotingni o'tkazib turgan yeringning shart-sharoitiga, issiq-sovug'iga, yaxshi-yomoniga ko'nik, sabr-u qanoat qil. Agar bu shart-sharoitlarni yoqtirmay, “issiq o'ring”ni tashlab, qo'nimsizlik qilib, yaxshiroq yerni qidirib ketsang, baribir, qadr-qimmat topa olmaysan. Negaki, har bir yerning ham yaxshi va yomon jihatlari, qiyinchiliklari, kamchilik va nuqsonlari bo'ladi... Shunday ekan, o'z o'rgangan yeringni tark etma, sabr-u qanoat qilsang, ... bora-bora kamolga yetasan.., degan ma'noda nasihat qiladilar:

1. Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-u tarozu.
2. Har yerning o'z botmoni bor.
3. Qayga borsang ham qozonning qulog'i to'rtta.
4. Xo'roz hamma yerda bir xil qichqiradi.
5. Bormagan joyda oltin bor, Bormagan joyda – kumush⁴³.

⁴¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 322.

⁴² Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 322.

⁴³ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 465.

O'larmon odam o'z manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmaydi, uyatni, or-nomusni bilmaydi, o'lgan-tirilganiga qaramay, harakat qilaveradi⁴⁴.

1. O'ladigan ho'kiz boltadan to'ymas.
2. O'larmoning ko'zi yomon.
3. Och it tayoqdan qo'rqmas.
4. O'lar to'ng'iz qaynoq suvdan tap tortmas.
5. O'larmonning joni – savil.

– *Endi yashirishimning foydasi yo'q. Ishim kecha tamom bo'ldi, sudga oshdi. O'ladigan ho'kiz boltadan toymas, degandek, mening qo'rqadigan yerim qolgani yo'q. Hammasi ochilib bo'ldi, hammasini ochdilar, organga qoyilman* («Oltin zanglamas», 160-bet).

O'ladigan ho'kiz boltadan toymaydi, deyishadi. Endi menga hammasi baribir edi. Qo'lidan kelsa otib tashlasin. Gapimni aytib bo'lmaguncha qimir etmayman! («Tushda kechgan umrlar», 108-bet).

Dangasa, ishyoqmas kishiga biror-bir vazifani bajarishni topshirsangiz, dangasaligi tufayli o'sha ishni bajargisi kelmay, turli xil o'yinlar (o'sha ishni boshqa yo'l bilan bajarish mumkinligi yoki zararli jihatlari mavjudligi va h.k.) ko'rsatib, sizni asosiy maqsaddan chalg'itmoqchi bo'ladi, ishingizni paysalga soladi:

1. Ishyoqmasga ish buyursang, otang bermagan maslahatni beradi.
2. Ishyoqmasga ish buyursang, o'zingga aql o'rgatar.
3. Ishyoqmasga o'rgatma, gaping bekorga ketadi.
4. Erinchoqqa ish buyursang, ensasi qotar.
5. Ishonmagin Alitozga, Alitoz qo'yar yozga.

Qo'rqoq kishilar maqtanchoq, mahmadana, uyatsiz bo'lishadi, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Qo'rqoqning odati – maqtanmoq.
2. Qo'rqoq ketaturib maqtanur,
Botir kelaturib maqtanur.
3. Quyun o'zin sel sanar,
Qo'rqoq o'zin er sanar.
4. Qo'rqoq uyatni bilmas.
5. Qo'rqoq qo'rqoqligin obro' sanaydi.

Majozan chog'i kelsa-kelmasa birovdan qolishmaslikka, unga ko'g-ko'rona yetishishga harakat qiluvchi odamlarga nisbatan qo'llaydilar:

⁴⁴ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 426.

1. Eshak eshakdan qolsa, qulog'ini kesadi.
2. Toydan toy qolsa, qulog'ini tishlar.
3. Eshak eshakdan qolsa qulog'ini kesar,
Xotin xotindan qolsa oyog'in kesar.
4. Eshak eshakdan qolsa ham,
Odam odamdan qolmaydi.
5. Yugurukdan yuguruk chiqsa,
Oyog'i tipir-tipir qiladi.

Talangan mollardan ozroq ulushga ega bo'lgan "g'oz" "eshak eshakdan keyin qolsa, qulog'ini kes" maqoliga muvofiq, Dushanbi atrofidagi aholidan yana biron kishini yoki hovlini talashga urinardi ("Doxunda", 297-bet).

O'zi va so'zi qo'pol, dag'al, qilig'i sovuq, gap-so'zi va xatti-harakati bilan kishilarga ozor beruvchi odamlarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi:

1. Tuyaga: "Noz qil", desa, bir tanob yemi yebdi.
2. Takaga noz qil desa, tolga osilibdi.
3. Qo'poldan to'ngak aylansin.
4. Qo'polning o'pganidan to'qolning tepgani yaxshi.
5. Tuyaning hazili botmon g'o'zani yebdi.

– Shuning uchun xudo senga amal bermaydi-da! – dedi birov pastdan.

– Tuyaga qanot bersa, qaysi imorat sog' qoladi? – dedi kal Hasan. Hamma kulib yubordi ("Kecha va kunduz", 227-bet).

Inson uchun o'z tug'ilib o'sgan yurtidan azizroq joy yo'q, har kimga o'zining maskani, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, go'zal, ardoqli, huzurbaxsh tuyulaveradi:

1. Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga.
2. Har kimning o'z yurti o'ziga – Misr.
3. Har kimning o'z elati o'ziga shirin.
4. Har toycha o'z suv ichgan bulog'ini maqtaydi.
5. Har qush o'z uyasini maqtaydi.

Er va xotin urug'ini ajratadigan, ya'ni erning urug'iga ziqnalik, xasislik, yoqtirmaslik va h.k. qilib, peshanasini tirishtiradigan, ularni sig'dirmaydigan; o'z qarindosh-urug'iga nisbatan esa saxiy, xushmuomala, mehmondo'st bo'lib, bag'rikenglik qiladigan kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Kelsa xotin urug'i, topilar uning yo'rig'i,
Kelsa erning urug'i, bo'lar yurak burug'i.

2. Xotin urug'i kelsa – eshik ochiq,
Er urug'i kelsa – xotin qochiq.
3. Er urug'i – savat bosh,
Xotin urug'i – ilon bosh.
4. Ammang kelsa, paranjisin ol, tagiga eski to'qim sol,
Xolang kelsa, paranjisin ol, tagiga yangi to'shak sol.
5. Ammang kelsa, paranjisin ol, temir qoziqqa il,
Xolang kelsa, paranjisin ol, kumush qoziqqa il.

Arzimagan ishi, yutug'i, daromadi va h.k. bilan maqtanuvchi, shov-shuvga o'ch kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi:

1. Dahsar tariq, sisar hayqiriq.
2. O'nsar unga – sisar siyosat.
3. Qilishi bitta tuxum-u, qaqolashi olamni buzadi.
4. Toshbaqa yuzta tuxum qo'ysa ham indamaydi,
Tovuq bitta tuxum tug'sa ham olamni buzadi.
5. Haydagani ikki ulog'-u, hayqirig'i tog'-toshni buzadi.

Har bir ishda ham bilim, mahorat talab qilinadi:

1. Gadoychilikka ham uquv kerak.
2. Dud demakka dudoq kerak,
Sirka tilamakka – usul.
3. Tug'uluq so'ramoqning ham a'moli bor.
4. Elak so'rashga ham og'iz kerak.
5. Novvoy chaqirishga ham kekirdak kerak.

Olti parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Agar kishi jiddiyroq kasalga chalinib yotib qolsa, darrov mutaxassislariga uchrab, kasallikning oldini o'z vaqtida oladi. Ammo og'riq sim-sim, gohi-gohida bo'lsa, odam bunga e'tibor bermaydi. Bugun-erta qolib ketar deb hafsalasizlik qiladi. Natijada o'z sog'ligini boy berib qo'yadi. Shu singari hayotda ham insonning uncha-muncha zararkunandalik, asabbuzarlik va h. k. larga e'tiborsizligi oqibatida bunday holat uzoq davom etadi va o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi:

1. Tomchi toshni teshar.
2. Yomg'irdan chakkasi yomon.
3. Sharqirab yoqqan yomg'ir yoningdan,
Tomchilab yoqqan yomg'ir joningdan o'tar.
4. Urgandan turtgan yomon.
5. To'kilgandan tomchilagan yomon.

6. Tomchi toshni yorar,
Kichkina tosh – boshni.

Hammomdan sal narida selsovetning sekretari uchrab rais uchun Qalandarovdan qirqta pishiq g'isht so'radi.

Chaqasini buxgalteriyaga to'lang, bolalar o'zlari eltib berishadi, – dedi Qalandarov.

Sekretar kuldi.

– Uch so'mlik vaj, shunga ham buxgalteriyami!

– To'kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon! To'kilganni kishi darrov payqaydi, tomchilaganni uzoq payqamaslik mumkin, – dedi Qalandarov va otga qamchi bosdi («Sinchalak», 124-bet).

Birovga bir ish qildiradigan bo'lsang, u ish arzimagan, kichkina bo'lsa ham ustasiga, qo'lidan keladigan odamga murojaat qil, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin.
2. Ish ustasidan qo'rqar.
3. Suxan az dahani Luqmon xush.
4. Bo'yrachi to'quvchi bo'lsa, kiyishing bordon bo'ladi (bordon – bo'yaning dag'al bir turi).
5. Qo'yni qassob so'ysin,
O'likni g'assol yuvsin.
6. Yamoqchining ishini suvoqchi bilmas.

Kuzgacha 30 xonadon uy-joyli bo'lishi kerak. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin degandek, qurilish brigadasidagilar yaxshi tajribali ekanlar, «hash-pash» deguncha anchagina uyning poydevorini hozirlab, bir talay g'isht quyib qo'ydilar («Bir kecha fojiasi», 185-bet).

Fe'l-atvori bir-biriga zid bo'lgan ikki kishi bir yerda o'zaro kelishib tinch-totuv ishlab ham, yashab ham bilmaydi:

1. Ikkita qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas.
2. Bir qinga ikki qilich sig'magay.
3. Bir salla tagida ikki kalla turmas.
4. Bir ungurga ikki ayiq sig'maydi.
5. Bir qo'ltiqqa ikki tarvuz sig'mas.
6. Bir etikka ikki oyoq sig'maydi.

Yo'l-yo'l ko'ylagining yengini qayirib olgan baland bo'yli bir yigit Faridani zina oldida kutib turgan ekan. Ikkovlari yetaklashib ketishdi. Faridaning atrofida parvona bo'lib, qanotini kuydirib olgan alamzada yigitlar Sherzodni «tabriklashdi». ..

Ertasiga u Farida bilan xuddi o'sha zina oldida to'qnash keldi.

– *Bitta qinga ikkita qilich sig'maydi. Mabodo sig'sayam harom bo'ladi!* – *Sherzod bu gapni shu qadar sovuq g'azab bilan aytdiki, Faridaning rangi o'chib ketdi («Nur borki, soya bor», 66-bet).*

Har bir narsa yoki hodisaning xavfli tomonlari borligi ta'kidlanib, undan saqlanish choralarini bilish va ko'rish zarurligi uqtiriladi. Shunday hodisalarga nisbatan aslo beparvo bo'lmaslik, hamisha hushyor bo'lib turish ta'kidlanadi:

1. Itning ishi – yirtmoq.
2. El ishi – sovurmoq.
3. O't ishi – qovurmoq.
4. Ilonning ishi – zahar solmoq.
5. Suvning ishi – o'pirmoq.
- O'tning ishi – kuydirmoq.

6. Chayonning kasbi – chaqish.

Chayonning kasbi nish urmoq,

Xoh dushman-u, xoh o'rtoq.

Birovga nohaq yomonlik tilasang, o'sha yomonlik, albatta, o'zingga qaytadi yoki tinch yotgan biror narsani qo'zg'atsang, uning ziyoni ham o'zingga tegadi:

1. Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan.
2. Yoqma – pisharsan, qazima – tusharsan.
3. Ko'kka tupursang, betga tushadi.
4. Balchiqqa tosh otsang, shatmog'i o'zingga sachrar.
5. Tuproqni changitsang, ko'zingga uradi.
6. Birovga laqab qo'ygan o'ziga laqab ortirar.

Podsho devonani o'z dargohiga chaqirtirib keltirgan ekan, podshoning oldiga kirganda ham podsho va vazirlarga ta'zim qilib o'z gapini takrorlab: “Har kim qilsa o'ziga qiladi, ko'kka tupursang betingga tushadi”, deb tupurib ko'rsatibdi (“Oltin beshik”, 126-bet).

Biror sabab bilan o'z yurtidan, oilasidan yo ish joyidan boshqa yerlarga ketib qolgan odam oxiri bir kunmas-bir kun qaytib keladi. Yana o'z tug'ilib o'sgan joyida, o'z ishida muqim topib, tinib-tinchib, turg'un bo'lib qoladi:

1. Ot aylanib qozig'ini topadi.
2. Otning borur yeri oqibat – oxur.
3. Bug'doyning borur yeri – tegirmon.
4. Suv aylanib yorig'ini topar.
5. Buzoqning yugurgani somonxonagacha.

6. Tovuqning uchgani tomgacha.

Oysara, bechora Oysara opam, o'z g'ami o'ziga yetmagandek, mening qo'ltig'imga kirdi.

«Xursand bo'ling, jon singlim! O'g'lingiz tirik ekan, shunga shukr qiling. Ot aylanib, qozig'ini topadi. Bir kuni sizni o'zi topib keladi...» («Ikki eshik orasi», 413-bet).

Saroydagi ishlarni men ham ko'rib turibman. Zo'rlik, nola, fahsh, rishvaxo'rlik... Illo, nachora? O'rganib qoldik chog'i. Otning borur yeri oqibat – oxur («Avaz», 53-bet).

Turmush tarzi, qarashi, ichki olami o'zaro mos yoki qon-qarindoshligi bor bo'lgan shaxslar bir-birining yonini olib, qo'llab-quvvatlaydi, o'z yaqinlarini aslo xor-zor qilmaydi:

1. Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.

2. To'ng'iz to'ng'izni yormaydi.

3. Pichoq o'z sopini kesmas.

4. Sulton suyagini xor qilmas.

5. Bo'ri bo'rini yormas.

6. Qilich o'z qinini kesmas.

– *Ha? – debdi.*

– *Qishlog'imga ketaman. Nima bo'lsa peshonamdan ko'rdim, bola-chaqamni sog'indim.*

– *Hoy, bola, sho'rolar bilan o'ynashma, qoziq qilib qoqib yuboradi, – desa:*

– *Men kambag'aldan chiqqanman, pichoq o'z sopini kesmaydi, – debdi* («Oltin zanglamas», 160-bet).

–...*Mana, baxtimizga sen ministr bo'lding. Bu ham xudoning inoyati. Sulton suyagini xo'rlamas, deb bekorga aytmaganlar. Shu bolani yoningga ol* (S.Ahmad. Uch jildlik, 1-jild, 61-bet).

Bitta yomon, ig'vogar, dilozor va h. k. odam butun bir jamoani, hatto bir yurtni bulg'aydi, uning nomiga dog' tushiradi, nomus keltiradi; bitta noqobil farzand butun oilaning yuzini yerga qaratadi, bitta axloqsiz bola bir qancha bolaning xulqini buzadi singari ma'nolarda ishlatiladi:

1. Tiraqi buzoq butun podani bo'lg'aydi.

2. Bir qorin moyni bir qumaloq chiritar.

3. Qo'tir taka qo'ra bulg'ar.

4. Bir chirigan olma bir ombor olmani chiritadi.

5. Bitta kalamushning tezagi bir xum gurunchni harom qiladi.

6. Bir qozon asal-u, bir qoshiq zahar.

– *Bir tirraqi buzoq podani bulg'aydi, deganday, aljirayapti, hammasi tuhmat...*

Nomard haqiqatdan qo'rqadi, haqiqat shunday achchiq narsa, do'stlarim! Pok bir qiz nogahon tuzoqqa ilinibdi-yu, lekin iqboli yorqin ekan, qochib qutulibdi. Labini yalab turgan bu maxluq iblisning o'zi! – Umarali qo'lining keskin harakati bilan Eshonxonni ko'rsatdi («Ulug' yo'l», 195-bet).

Yomonlikni, buzg'unchilikni, jinoyatni va h. k. birov qilib, jabrini, azobini, tashvishini boshqalar tortadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi:

1. Tariqni yegan chumchuq, baloga qolgan bedana.
2. G'at-g'at etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi.
3. Sigir o'g'irlagan qutuldi,
Boshvoq ushlagan tutildi.
4. Qatiq ichgan qutular,
Xurmacha yalagan tutilar.
5. Qozon o'g'irlagan qutular,
Cho'mich ushlagan tutilar.
6. Qochgan – qutular,
Turgan – tutilar.

Qo'ling ostidagi kishilarni, shuningdek, senga yaqinligi bo'lgan insonlarni o'z holiga tashlab qo'ysang, har bir bosgan qadamini nazorat qilib turmasang, uning xulqi buziladi, haddidan oshib ketadi, natijada o'ziga ham, senga ham ziyon-zahmat yetkazadi:

1. Buzoqni bo'sh qo'ysang xurmachani ag'darar.
2. Qamishni bo'sh tutsang qo'lingni qiyar.
3. Tuyaning yuki yengil bo'lsa yotag'on bo'lar.
4. Eshakni siylasang oxurini bulg'ar.
5. O'ynoqi qo'zichoq oyna sindirar.
6. Chilvimi bo'sh ushlang qo'lingni qiyar.

Tubandagi maqollar ikki ma'nosida sinonimiya hosil qiladi:

1. Qora sigirning ham suti oq bo'lar.
2. Qora bulutdan tiniq suv tomar.
3. Qora tovuq ham oq tuxum qiladi.
4. Qozondan qora narsa yo'q,
Ochsang qorning to'ydirar.
5. Qiyshiq butoqda ham qizil jiyda bitadi.
6. Muzdan suv tomar.

1-ma'no: ba'zi nazarga ilinmaydigan, ko'rinishidan yomondek tuyuladigan odamdan ko'p foydali ishlar va ma'nili gaplar chiqadi.

Shuning uchun ko‘rinishiga qarab baho berma, shunga qarab u bilan muomala qilma, degan ma‘noda qo‘llanadi.

2-ma‘no: yomon, razil, qabih, xudbin, yalqov va h.k. kabi kishilardan ham yaxshi farzandlar tug‘ilishi yoki yetishib chiqishi mumkin.

Hayotiy qonuniyat shunday: ilon-chayon chaqsa, ilon-chayonning zahrini surtadilar, achchiq gapga achchiq gap bilan javob qaytaradilar, urganni uradilar, so‘kkanni so‘kadilar va h. k. Mazkur maqollar bilan har bir ish va harakatning o‘z muqobili borligi va shunga rioya qilish zarurligi uqtiriladi. Ya‘ni yomonga yomonlikcha, yaxshiga yaxshilikcha muomala qilinadi:

1. Achchiqni achchiq kesar.

2. Egovni egov yeydi,
Zaharni zahar yeydi.

3. Zaharni zahar qaytarar.

4. Sovuqni sovuq kesadi,
Issiqni – issiq.

5. Loy yorig‘iga loy chapiladi,
Ganch yorig‘iga – ganch.

6. Ponani pona bilan chiqaradi.

Xolidiy o‘ylay-o‘ylay, achchiqni achchiq kesadi, degan aqidaga amal qilib, Asadbekning kushandasi kim bo‘lishi mumkin, deb so‘rab-surishtirdi. Asadbek hammadan zo‘r bo‘lgani bilan albatta kimdir, qaysi bir kavakda turib bo‘lsa ham unga qarshi tish qayraydi (“Shaytanat”, 177-bet).

– *Bizni chalg‘itmoqchi bo‘lgan, demoqchimisiz?*

– *Chalg‘itishi bir masala. Ikkinchi masala – bizning odamga qarmoq tashlashgan. Undan shubhalanishgan bo‘lsa-chi? Biz o‘sha qabristonni bossak, shubhalari tasdiqlanadi. Ana unda odamimizni ayab o‘tirishmaydi.*

– *Bu turgan gap. Ponani pona bilan chiqaradi, degan gap bor. Agar ular bizni chalg‘itmoqchi bo‘lsa, biz ham shunday qilaylik («Shaytanat», uchinchi kitob, 347-bet).*

O‘z ishini eplab bilmaydigan, kam-u ko‘stini tuzatib, to‘g‘ri yo‘lga sololmaydigan noshud kimsadan biron yaxshi natijali ish kutib bo‘lmaydi, degan ma‘noda ishlatiladi:

1. O‘ziga yeng bo‘lmagan o‘zgaga bo‘y bo‘lmas.

2. O‘ziga yol bo‘lmagan birovga quyruq bo‘lmas.

3. O‘ziga yon bo‘lmagan birovga bo‘y bo‘lmas.

4. O'ziga tuppa kesolmagan birovga ugra kesarmish.
5. Uyida ishton bicholmagan dalada to'n bicharmish.
6. O'ziga ugra kesa olmagan birovga lag'mon cho'za olarmidi?

Tekin tomoq yoki tekin berilgan narsa minnatli bo'ladi, minnati esa kishiga qattiq botadi:

1. Birovning noni qorin og'ritar.
2. Tekin go'shtning suyagi burun yirtar.
3. Tekin tomoq biqin teshar.
4. Tekin ovqat tish sindirar.
5. Tekin tomoqning tikanagi tiqilar.
6. Tekin to'n qimmatga tushar.

Mazkur maqollar tekinxo'r, tamagir, ochko'z, badnafs kishilar tilidan aytilgan bo'lib, ularga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi:

1. Tekin tomoq totli bo'lar.
2. Tekin sirka boldan totliq.
3. Tekin tomoq tanni toza qiladi.
4. Ko'rdingki tekin, uraver sekin.
5. Ko'rdingki osh, ko'tarma bosh.
6. Tekin tomoq topilganda yemoq kerak,
Tekin kafan topilganda o'lmoq kerak.

Mana bu xatni qarang. Juda qiziq, – u o'zicha o'qiy ketdi: – Biz paxta tayyorlash planimizni oshig'i bilan to'ldirdik, sizlarning plan qachon o'rinlaydi..?

Jangchi o'zinikiga o'xshash xat chiqishini umid qilib, boshqalarnikiga nazar tashladi. Hech kimda bunaqa jingalak savol yo'q edi. Oxir hafsalasi pir bo'lib joyiga borib o'tirdi. Kimdir Yana tegishdi.

– Yuborgan odam, sovg'am "Tekin tomoq tanni toza qiladi" deydiganning qo'liga tushdi, shekilli, javob ham qaytarmadi, deb o'ylaydi-da ("Shinelli yillar", 250-bet).

Avvalo, birovdan omonat olingan narsani yo'qotma, sindirma, uzma, buzma va h. k. Aks holda molning egasi o'zining yo'qolgan narsasini «ana undoq edi, mana bundoq edi» deb maqtab, bahosini oshirib, o'miga to'lagan uncha-muncha narsangni nazar-pisand qilmaydi:

1. Yo'qolgan pichoqning sopi – oltin.
2. O'lgan sigir sutli bo'ladi.
3. Yo'qolgan buzoqning arqoni – qimmat.
4. Tug'mas tovuqning tuxumi – aziz.
5. Yo'qolgan molning egasi – vali.
6. Ketgan baliq – kemadek.

Lekin Muharram uning bunchalik uzoq kek saqlab yurishini o'ylamagan edi. Hatto bir mahal ko'nglidan: «Nahotki u meni sevardi! Yo'qolgan pichoqning sopi oltin bo'layotgani yo'qmi?» degan fikrni o'tkazgan edi («Shinelli yillar», 203-bet).

Har bir inson o'z tug'ilgan yerida o'zini erkin sezadi, bemalol harakat qiladi:

1. Changal ham o'z joyida gurillar.
2. O'z joyida laycha ham sher.
3. O'z joyida kuykanak, ham g'oz o'lur, ham o'rdak.
4. Ovloq ko'lda baqa – xon.
5. Chumchuq o'z uyasida o'zini qarchig'ay sanaydi.
6. It uyasida o'zini yo'lbars sanaydi.

... *“Yaxshilar topib so'zlar, yomonlar qopib so'zlar” degandek, ya'ni bizni arkoni davlat arosida kichkina ko'rdingizmi? «Kichkina demang bizni, ko'tarib urarmiz sizni”, yoinki, “Kuykunak o'z yerida ham g'oz o'lur, ham o'rdak”... («Zarbulmasal», 32-bet).*

Bu maqollar xalqning falsafiy qarashlari mahsuli bo'lib, «Tabiatda ham, jamiyatda ham ro'y beradigan har bir voqea-hodisaning muayyan sababi bor. Masalan, odamlar orasida bir gap tarqalibdimi, demak, asosi bor», degan ma'noda qo'llanadi:

1. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
2. Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur.
3. Yelsiz terak tebranmas.
4. It qora ko'rmasa, hurimas.
5. Sog' olma shoxidan tushmas.
6. Engak qimirlamasa, soqol likillamaydi.

...*O'sha siz aytgan Dilovarxo'ja men bo'laman.*

– *Yo'g'-e! – barmog'ini tishladi Sodiq.*

– *Ha, men, ishoning! Endi talashadigan hech narsamiz yo'q. Siz ham bu yerda bekorga o'tirmagandirsiz. Bir sababsiz shudgorda quyruq yotmaydi («Oltin zanglamas», 160-bet).*

– *Gapning indallosi shuki, o'g'lim, bultur uylar buziladi, deb o'lchab-netib ketishuvdi. Endi eshitsak, buzilasmish. Uzunquloq gaplarga qaraganda sen to'xtatgan emishsan.*

– *Menmi? – Asadbek ajablandi. – Kim aytdi?*

– *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi, – dedi Jo'ra cho'loq («Shaytanat», 250-bet).*

Tubandagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: biror-bir aybi, illati bor kishi hamisha o'zidan qo'rqib turadi, aybining ochilib qolishidan hadiksiraydi.

2-ma'no: biror-bir jinoyat qilib qo'ygan odam fosh bo'lib qolishidan qo'rqib, arzimagan narsadan ham cho'chib, hadiksirab yuradi⁴⁵.

1. Bo'ynida illati borning oyog'i qaltirar.
2. Bo'ynida gunohi borning tili qisiq.
3. Xiyonatkorning qo'li qaltirar.
4. O'g'rining keti quvish bo'ladi.
5. Ishtonsizning hadigi cho'pdan.
6. Yalangoyoqning cho'pdan xavfi bor.

Borgan sari so'nib borayotgan chiroqning nurida ona bu gapni kimga aytganini Roziya aniq ko'rmasa ham, har vaqtdagiday, albatta, menga aytilayotgandir, deb irg'ib o'rnidan turdi. Ikkilanmay, pochasini tizzasigacha shimarib, suvni kechib o'tdi, yog'ni olib berdi. Ona qizining bu harakatini «bo'ynida gunohi borning tili qisiq» qabilida tushundi, lekin eti bir jimirlashib, rahmi keldi («Bir kecha fojiasi», 175-bet).

– Aytib bering, Sodiqjon, do'stning achchiq so'zidan nodon xafa bo'ladi!

Ikrom otaning bu xolis so'zi «ishtonsizning cho'pdan hadigi bor» degandek, Mirsalimga tegib ketdi, ichida «menga kesak otmagan sen sassiq chol qoluvding» deb tishini tishiga bosdi («Oltin zanglamas», 106-bet).

Qo'rqoq kishi qarshilik qilishga ojiz bo'lganligi sababli hamma ta'na-dashnom, tanbeh, tuhmat va h.k.lar uning boshiga yopiriladi:

1. Qo'rqoqning boshida kaltak sinadi.
2. Qo'rqoqning qo'li qisqa.
3. Qo'rqoqning o'z quroli – o'ziga yov.
4. Qo'rqoqning boshidan musht ketmas.
5. Qo'rqoqqa kun yo'q.
6. Qo'rqoqni ajal quvlar.

Har bir ishda tavakkal qilaverish, orqa-o'ngini o'ylamaslik yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi:

1. Tavakkalning boshi kal.
2. Tavakkalning tagi taxir.
3. Tavakkalning tubi tosh,
Boshingga ursang yorilar.

⁴⁵ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 64.

4. Tavakkal tog'ni yiqar.
5. Tavakkal andisha bilmas.
6. Tavakkalning tagi voy.

– *Anna Ivanovna nima uchun batalyon katta mashg'ulot o'tkazyapti? Axir jang ko'rgan sobiq kursantlar ekan-ku deyaptilar. Men bo'lsam «hammasi kursantlar emas, boshqa qismdan o'tgan, tuzukkina mashg'ulot ko'rgan-ko'rmagani bizga noma'lum bo'lganlari ham bor. Ko'zdan o'tkazyapmiz, tavakkalning tagi taxir» deyman. Shundaymasmi? («Shinelli yillar», 160-bet).*

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan, bu yo'lda o'zgalarning ziyon ko'rishi bilan ishi bo'lmaydigan, har qanday yo'l bilan bo'lmasin, o'z ishini bitirishga, niyatiga erishishga harakat qiladigan xudbin odamlarga nisbatan qo'llanadi.

2-ma'no: shirin muomala, muloyim munosabat, iliqlik bilan ish bitirish oson kechadi, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Lo'lining eshagini sug'or, pulini ol.
2. Ko'nglimni top, pulimni ye.
3. Tarig'i pishganning tovug'i bo'l.
4. Go'r kuysin-u, qozon qaynasin.
5. Dunyo kuysa-kuysin, devonaning kabobi pishsin.
6. Eshakning oyog'ini yuv-u, pul top.

... Kallam ishlamaydi, nega o'ttizga chiqmay uylandim-a? Bo'lmasa bu qishloqiga yo'l bo'lsin edi. Muborga o'zim uylanar edim.. E, baribir emasmi? Lo'lining eshagini sug'orib pulini ol deyishadi. Ish bitguncha-da. Keyin... Ha, mayli, endi foydasiz («Uyg'oq kunlar», 71-bet).

Bu maqollar sir saqlashga oid bo'lib, xoh oilada bo'lsin, xoh jamoada bo'lsin va h.k. har qanday doirada ham o'sha joydagi voqea-hodisalarni tashqariga chiqarmaslik, begonalarga bildirmaslik mazmunini ifoda etadi:

1. Qo'l sinisa yeng ichida,
Bosh yorilsa, do'ppi tagida.
2. Tishim sinisa og'zimda.
3. Bo'ri oriqligini bildirmas.
4. Bosh aybini bo'rk yopar.
5. Uy siri – yopiqlik qozon.
6. Uydagi simi ko'chada aytma,
Ko'chada aytib g'amini tortma.

– Mahalliy kadr degan gapni shuning uchun yomon ko'raman, – dedi u pinagini buzmay. – Ko'rdingizmi, meni mahalliy kadr hisoblaganingiz uchun dag'dag'aga o'tyapsiz. O'rnimda begona odam bo'lganida bunaqa gaplashmasdingiz. Mahalliy kadr qo'li sinsa, yengining ichiga yashirib ketaveradi. Shuning uchun ba'zilar shunaqa kadrlarni yaxshi ko'rishadi («Nur borki, soya bor», 135-bet).

Agar yomon odamlar bilan birga bo'lsang, ular bilan birga o'tirib tursang, ularga yaqinlashsang, ulardagi yomon xulq-atvor va qiliqlar senga ham yuqishi mumkin:

1. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar.
2. Ot bilan bo'lsa eshakning oxuri,
Fe'li urmay qolmas uning oxiri.
3. Mag'iz achchiq bo'lsa po'stiga ham urar.
4. Tuya qo'tir bo'lsa bo'taga yuqar, bo'tadan – bo'lakka.
5. Egribosar oyoq kovushni ham egri qiladi.
6. Qilig'i qiyiqning qilmishi ham qiyiq.

Qadimgi buzurg mashoyixlardan bizga bir masal qolibdurki: ...“Yomonga yondashsangiz, balosi yuqar, qozonga yondashsangiz, qarosi yuqar”... («Zarbulmasal», 33-bet).

Mehmon kelgach, undan qorni och yoki to'qligini, ovqatlanmaganligini so'rash odobdan emas, u qimtinib, baribir, rostini aytmaydi, shuning uchun bor-budingni mehmonga tortaver, yesa yeydi, yemasa, keyin yig'ishtirib olasan, demoqchi:

1. So'rab berguncha, urib ber.
2. Mehmon so'rab yemaydi.
3. Mehmonga osh qo'y,
Ikki qo'lini bo'sh qo'y.
4. Yemayman degan kuyov yetmish quymoq yebdi.
5. Yemayman degan kelin yengdek hasipni yebdi.
6. Yemayman, yemayman deb, yengdagini yebdi.

Mehnat bilan topilgan non halol, tekin ovqat esa minnatli bo'ladi:

1. Mehnat rohatga eltar,
Tekin tomoqni yirtar.
2. Mehnat tovoq to'ldirar,
Minnat tomoq kuydirar.
3. Mehnatning ziynati ko'p,
Tekinning – minnati.

4. Minnat bilan ganj topgandan,
Mehnat bilan ranj topgan yaxshi.
5. Yema kishi minnatin,
Yegil qo'ling mehnatin.
6. Mehnatdan qo'rqma,
Minnatdan qo'rq.

O'z molingni, hududingni, uyingni asrashga puxta harakat qil, ular qo'lingdan ketadigan bo'lsa, birinchi navbatda, o'zing aybdor bo'lasan:

1. O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.
2. Asragan to'qlini bo'ri yemas.
3. G'ovli yerga mol kirmas.
4. Olgan – bir aybdor,
5. Oldirgan – ikki aybdor.
6. Chidar⁴⁶li oting – o'z oting,
Tushovli oting – bo'sh oting.

Quyidagi maqollar ikki ma'noda sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: yaxshi odamlarning omadsizligi, mag'lubiyati, ishining orqaga ketishi yomon, pastkash, munofiq kishilarni quvontiradi. Ular bundan moddiy yoki ma'naviy manfaat topadi.

2-ma'no: ba'zi odamlar birovga ozor berish, uni azoblash, kulfatga solish bilan rohat topadi. Ammo ularning bu qiligidan aziyat chekkan odam uchun bu «rohat» qimmatga tushadi. Mazkur maqollarni shunday dilozor, berahm, beshafqat odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaydilar.

1. Otning o'limi – itning bayrami.
2. Sichqonga – o'lim, pishakka – o'yin.
3. Qo'yning o'limi – bo'rining bayrami.
4. Eshak o'lsa – itga to'y.
5. Hayvon o'lsa qarg'a shod,
Odam o'lsa mulla shod.
6. O'lanli yerda ho'kiz semiradi,
O'limli yerda mulla semiradi.

⁴⁶ Chidar xom teridan qamchiga o'xshatib to'qilgan bo'ladi. Uning uchi ikki ayri qilib qo'yiladi. Shu ayrining ikki uchini otning oldingi ikki oyogiga, asosiy uchini esa orqa oyogining soniga bog'lab qo'yadilar. Shunda ot sakray olmaydi. Chidar chidamli bo'ladi, ot uzib ketolmaydi. Tushov esa arqondan bo'lib, uni otning oyogiga solib bog'lab qoyadilar. Ot sakraganda tushov yo yechilib ketadi, yo uzilib (Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 235).

Yoqtirib yurgan Rustamovga ham dilida rosa la'nat yog'dirdi, sotqindan olib sotqinga soldi... Bari o'z jig'ildonini o'ylaydi! Birovning boshiga tushgan baxtsizlikdan ham foydalanadi! Ana, qo'yning o'limi – bo'rining hayrami... («Girdob», 502-bet).

Insonning tabiati shunaqa, hamma vaqt va hamma joyda o'zining "men"ligi birinchi planda turadi: dastavval o'zini o'ylaydi, o'z tirikchiligini, o'z manfaatini, o'z huzur-halovatini ko'zlaydi, degan ma'no anglashiladi:

1. Har kim o'z kumochiga kul tortar.
2. Har kimning barmog'i o'zi tomon egilar.
3. Duradgor teshani o'z tarafiga chopar.
4. Har kim o'zim bo'lay deydi.
5. Har kim qilar o'ziga,
Ilik surtar ko'ziga.
6. Dehqon yomg'ir tilaydi,
Kulol ayoz tilaydi.

Yetti parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Quyidagi maqollar ikki ma'nosi bilan sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: yomon odamlar bilan o'ziga yarasha muomalada bo'lish lozim degan ma'noda qo'llanadi.

2-ma'no: yomon xarakter-xususiyatli kishilarga xuddi shunday juftlik uchraganda ularga kinoya tarzida aytiladi:

1. Egri to'nkaga – egri to'qmoq.
2. Egri mo'ridan – egri tutun.
3. Eshakka yarasha tushovi.
4. Qiyshiq daraxtning ko'lankasi ham – qiyshiq.
5. Egri tayoqning butog'i burun yirtar.
6. Egaming soyasi ham – egri.
7. Teng tengi bilan,
Tezak qopi bilan.

T i l l a x o n. Matqosimboyini eson-omon ko'mib kelayapmiz...

Z e b i (Zubaydaga pichirlab, yarim tovushda). Roqiyaxon dori bergan.

O y p o s h s h a. Judayam ulug' ish qilibdi-da. Ertadan Roqiyaxonning baxtiga oftob chiqdi, desangiz-chi.

O b i d a. Bo'lmasam-chi! O'lim bergur betavfiqni!..

O y n i s a. Egri kaltakka egri to'qmoq-da, aylanay ("Paranji sirlari", 137-bet).

Bir narsadan pand yegan, ziyon-zahmat ko'rgan odam ikkinchi marta o'zini ehtiyot qilib yuradi, har bir ishni juda ehtiyotkorlik bilan qiladi:

1. Sutdan og'zi kuygan qatiqni puflab ichar.
2. Tikanning zahrini tortgan oyog'ini bilib bosar.
3. Tomog'ingga qiltanoq ketsa, ayronni ham chaynab ichasan.
4. Ko'r hassasini bir marta yo'qotar.
5. Kuygan og'iz sovuq suvni ham puflab ichar.
6. Tuzoqdan bir marta qo'rqqan qush
Qirq yilgacha ayri yog'ochga qo'nmas.
7. Devona ham xurjunini bir marta yo'qotar.

Shu bilan bir necha kundan beri ming bir vasvasaga solayotgan alam, tashvishdan qutulgandek bo'ldi, yengil tortdi. Yana bir kuni anhorda cho'milayotganda uni uchratib qolgan Bondar: «Tumor qani?» deb so'radi-yu, lekin javob ololmadi, u javob bermadi. Axir sutdan og'zi kuygan qatiqni puflab ichadi-da! («Shinelli yillar», 260-bet.)

Hamshira erta bahorda bir feldsherni yaxshi ko'rib qolgan edi... Hamshira behad shod, o'z taqdiridan minnatdor, lablari kulgidan yig'ishtirilmasdi. Shu orada bir beva vrach kelib qoldi. Hademay feldsherning boshini aylantirdi-yu, ildi-ketdi, hamshira chirqillaganicha qolaverdi. Hamshiraning hozirgi umidsizlik otashida yonishi ana shundan edi.

– *Endi sizning ham achchiq tajribangiz bor. Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi,* – unga dalda berdi Zebo («Shinelli yillar», 352–353-betlar).

– *Sut ichib og'zimiz kuygan, endi qatiqni ham puflab ichmoqchimiz-da,* – dedi Nizomjon. U bu gapi bilan Dildorga elakishib zada bo'lganini aytmoqchi edi. Buni Zebixon u o'ylagandan ham ziyod tushungan edi («Ufq», 393-bet.)

Oila, jamoa va h.k. har qanday guruhda shu guruhning a'zolari o'z doiralaridagi gap-so'zdan, sir-asrordan, kam-u ko'stdan xabardor bo'lishadi. Ularning shu narsalarni tashqariga chiqarishlari o'z guruhlarining inqiroziga: yengilishiga, nobud bo'lishiga, obro'sizlanishiga, tarqalib ketishiga olib keladi:

1. O'zingniki o'zagingni uzadi.
2. Qal'a ichidan olinar.
3. Qovun ichidan iriydi.
4. Yog'ochni o'z ichidagi qurti yeydi.

5. Ichdan buzilmasa, qo'shin yengilmas.

6. Yog'ochning ponasi o'zidan bo'ladi.

7. Daraxt sop bermasa, bolta kesolmas.

...Sizga maslahatim shuki, o'zingizbop ish qidiring.

Direktorning gapini oxirigacha eshitmay, zarda bilan o'rnimdan turdim.

O'zingniki o'zagingni uzadi deganlari rost ekan, rahmat o'rtoq direktor! – dedim («Qaysar kuyov», 11-bet).

Har bir ishda kishi boshqalar bilan maslahatlashib, kengashib ish tutsa, o'z maqsadiga erishadi, zarar ko'rmaydi:

1. Maslahatli osh kuymaydi.

2. Kengashli to'y tarqamas.

3. Maslahat bilan bichilgan chopon qisqa kelmaydi.

4. Maslahat bilan pishirilgan osh totli bo'lar.

5. Kengashli el kamimas.

6. Kengashli to'n keng kelar.

7. Maslahat bilan otilgan tosh uzoqqa ketar.

«Fan» nashriyotidan keyingi yillarda institutda yaratilgan yangi, samarador paxta navlari haqida kitob yozib berishimizni so'rab, iltimos qilishyapti. Bitta aql – bitta, ikkitasi – ikkita! Kengashli to'y tarqamas. Modomiki, yig'ilibmizmi, shu narsani ham maslahatlashib olsak («Girdob», 230-bet).

Sabr qila turing, buvi, qishloq oqsoqollari bor, maslahat solay, biron yo'l ko'rsatishar. Maslahatli osh kuymaydi («Chayon yili», 157-bet).

Har kim o'zi yaxshi ko'radigan, o'z tirikchiligini ta'minlaydigan, o'ziga huzur-halovat baxsh etadigan narsalar haqida o'ylaydi, o'shanga erishish harakatida bo'ladi:

1. Echkiga jon qayg'usi, qassobga yog' qayg'usi.

2. Kampirning dardi g'ozada,

Sichqonning ko'zi donlik ko'zada .

3. Qassobning tushiga echki kiradi.

4. Qassobning ko'zi – semizda,

Chanqoqning ko'zi – qimizda.

5. Tashnaning tushiga suv kirar,

Tovuqning tushiga don kirar.

6. Tulkiga jon kerak,

Ovchiga teri kerak.

7. Tulkining tushiga tovuq kirar,

Tovuqning tushiga tariq kirar.

Boshqa kezlarda kampirning bu to'g'ridagi dod-hasratini kulgulik bilan va kam hafsalalik bilan eshitsa ham, ammo bu gal O'zbek oyimning o'sha eski ashulasini ortiqcha bir to'zimsizlik orasida kutar edi. Kampirning dardi g'o'zada, sichqonning ko'zi donlik ko'zada, deganlaridek, bizning O'zbek oyimizning ham dardi yuzada edi. So'z urindi, so'zdan so'z chiqdi, nihoyat hojining kutganidek o'g'il hasrati ham boshlandi («O'tgan kunlar», 308-bet).

Nimani niyat qilsang, ko'nglingga keltirsang, o'sha voqea yoki hodisa yuz berishi mumkin:

1. Xizmi yo'qlagan uni ko'rar.
2. Ayiqni yo'qlasang tayoqni qo'lingga ol.
3. Eshakni yo'qlasang qulog'i ko'rinadi.
4. Tulkini yo'qlasang, dumi ko'rinar.
5. Bo'rini izlasang, bo'ri keladi.
6. Buzoqni tilga olsang, ipini uzib keladi.
7. Burunni yo'qlasang, quloq ko'rinar.

Eshakni yo'qlasang qulog'i ko'rinadi, deganlariday, hech kutilmaganda eshik ochilib, Xolidiy ko'rindi («Shaytanat», 175-bet).

Mening sizga zarur ishim bor edi, shu kun qishloqdan siz bilan uchrashish uchun kelib edim, u kishini "qayerdan toparkanman" deb o'ylab turganimda, o'zingizga ko'zim tushib qoldi...

Ko'p yaxshi, – dedi Qori Ishkamba, – Xizmi yo'qlagan uni ko'rar deganlar.

"Ayiqni yo'qlasang, tayoqni qo'lingga ol!" ham deganlar, – dedi Arbob Ro'zi kulib... («Sudxo'ring o'limi», 67-bet).

Agar bir ish bir necha kishiga topshirilsa, ular sansalorlikka boradi, oqibatda o'sha ish bajarilmay qolib ketadi:

1. Sheriklik oshni it ichmas.
2. Qassob ikkita bo'lsa, mol harom o'lar.
3. Xotin ko'p bo'lsa, cho'michni it yalaydi.
4. Podachi ko'p bo'lsa, mol harom o'lar.
5. Er ko'p bo'lsa, o'tin yo'q,
Xotin ko'p bo'lsa – suv.
6. Ikki xotinlik uy ivirsir.
7. Qo'ychivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'lar.

– O'rtoq general, bir narsani so'rasam mumkinmi? Berlinga ittifoqchilar oldin kiradimi, bizmi?...

– Ittifoqchilarning yaqin kelishini kutib turibmiz, shekilli.

– *Menimcha, temirni qizig'ida urgan yaxshi. Ulardan tegadigan nafga ishonmay qo'ydim. Ishidan so'zi ko'p xalq ekan. Bizda bir maqol bor: Sheriklik oshni it ichmas»* (“Shinelli yillar”, 559-bet).

Biror gapni aytishdan oldin uni obdon o'ylab, atroflicha mulohaza qilib olish lozim. Chunki aytilgan har bir gap xoh yaxshi, xoh yomon, xoh o'rinli, xoh o'rinsiz bo'lsin, uni aslo qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun og'izdan chiqadigan har bir so'zdan ehtiyot bo'lish kerak:

1. Aytilgan so'z – otilgan o'q.
2. Gap egasi bilan yurmaydi.
3. Og'izdan chiqqan so'z qaytmas.
4. So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing oltin.
5. Saflangan so'z – sof oltin.
6. Aytmasdan burun so'zga sen ega,
Aytgandan so'ng senga so'z ega.
7. Arzimagan gap og'izda qolsin.

Har kim o'z teng-to'shi bilan muloqotda bo'lishi, o'tirib-turishi, chiqishi, olishishi, kurashishi, kuchini o'z tengiga ko'rsatishi kerak degan mazmunda ishlatiladi:

1. Teng tengi bilan, tezak qopi bilan.
2. Ot tepkisini ot ko'tarar.
3. O'rdak o'rdak bilan uchar,
G'oz g'oz bilan uchar.
4. Kabutar bo kabutar, jins bo jins.
5. Bosh – boshga, Yorg'uchoq toshga.
6. Tezakchining tengi bor,
O'roqchining o'mi bor.
7. Bo'y-bo'ylab, teng-tenglab.

– *Ota, bu singlim, – tabassum bilan dedi Yo'lchi. Qishloqdan olib kelganimni eshitgandingiz. Boynikida yashashini ma'qul ko'rmadim.*

– *Yaxshi qilibsiz. “Kabutar bo kabutar, jins bo jins”. Ma'nosini tushunasanmi? To'g'ri, ular qarindoshing. Lekin ular sani o'z jinsiga qo'shmaydi* (“Qutlug' qon”, 132-133- betlar).

O'-ho', ko'p ekan deb hayiqma. Sirtidan ko'p ko'ringani bilan bir zarbalik holi bor, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Qirq qarg'aga – bir kesak.
2. Yuz chumchuqqa – bir kesak.
3. Bir savat tuxumga bir tepki kifoya.
4. Yuz qarg'aga – bir shunqor.
5. Besh qo'rqqoqqa – bir qarg'a.

6. Ming daraxtning boshini bir bolta kesar.

7. Bir qamchi ming xachimi hurkitadi.

– Amirzodam, sizga ne bo'ldi? Amirzodam!

Rangida qon qolmagan Bobur hansirab xitob qildi:

– Minba'd men bir darvish bo'lib kun ko'rmoqchimen! Janob Qosimbek, onamga ayting! Men hozir O'ratepaga keturmen! Yuz chumchuqqa bir kesak! Toj-u taxt da'vosidan voz kechdim! Kim shunga ko'nsa, men bilan yursin! Qolganlarga javob! («Yulduzli tunlar», 210-bet).

Qo'rqqoqa ishonib bo'lmaydi, u ozgina hamlaga ham dosh berolmay, taslim bo'lishi, darrov sizni sotib qo'yishi mumkin, degan mazmunda qo'llanadi:

1. Xo'rozning suti yo'q,
Qo'rqqoqning quti yo'q.
2. Qo'rqish – yengilishning chopari.
3. Qo'rqqoq avval tildan qoladi.
4. Yantoqdan atir chiqmas,
Qo'rqqoqdan botir chiqmas.
5. Qo'rqqoqning aqli shoshar.
6. Qo'rqqoqni kurka talab o'ldiribdi.
7. Qo'rqqoq qiyinni yengar,
Qo'rqqoq bo'yinni egar.

Nodon, g'ofil, aqli yetmaydigan kishilar, har qancha tirishsang ham, baribir, aslicha qolaveradi, yaxshi-yomonning farqiga bormaydi:

1. Ko'rga kun ham bir, tun ham bir.
2. So'qirga quyoshni maqtash behuda.
3. Ko'r gadoyga oq xalta ham bir, ko'k xalta ham bir.
4. Ko'r ko'zga kun kerakmas.
5. Ko'rga fonus na hojat?!
6. Ko'rga ko'zgu kerakmas.
7. Ko'rmas tuyani ham ko'rmas.

Agar senga birov ko'nglidan chiqarib bir narsa bersa yoki sovg'a qilsa, uning tag-tubini surishtirib o'tirma, o'sha odamning o'ziga noqulay bo'lishi mumkin:

1. Uzumini ye, bog'ini so'rama.
2. Sutini ich-u, sigirini surishtirma.
3. Tortiq qilingan tuyaning tishini sanamaydi.
4. Tekin otning tishini ko'rmas.
5. Berganning yuziga qarama.

6. Bolini ye, arisini so'rama.

7. Balig'ini ye, daryosini surishtirma.

– *Rostdan ham she'r eshitgingiz kelyaptimi?*

– *Bo'lmasam-chi?*

Zafar she'r o'qidi...

– *Ajoyib she'r ekan, – dedi Noila jimlikni buzib. – O'zingiznikimi?*

– *Uzumini yeng-u bog'ini so'ramang...* («Intizor», 81-bet).

Zebixon ko'kat ustiga qog'ozga o'roqliq ikki kilocha o'rikni yozib qo'ydi.

– *Iya, qaydan oldingiz?*

– *Uzumini yeng-u bog'ini surishtirmang* (“Ufq”, 443-bet).

Oblastlardagi direktorlar ustimizga to'n yopib, qo'limizga tilla soat taqqan paytlar ko'p bo'lgan...

Berganning yuziga qarama, deyishadi. Hammamiz ham sovg'a-salom olganmiz (“Egilgan bosh”, 43-bet).

Otasi, yoshi ulug'i bajarolmagan, eplab bilmagan, uddasidan chiqmagan, ko'rolmagan ishni, narsani farzandi, shogirdlari bajarishi, ko'rishi mumkin:

1. Ot bosmaganni toy bosar.

2. Otasi urmagan qo'ng'izni, bolasi urar to'ng'izni.

3. Quyon otolmaganning bolasi arslon otibdi.

4. Otasi devor minmaganning o'g'li ot minibdi.

5. Otasi shahar ko'rmaganning bolasi Shanxay ko'ribdi.

6. Otasi – garang, o'g'li – farang.

7. Ustasi – garang, shogirdi – farang.

– *E, mundoq deng. Olimjondan qolgan yodgorlik shumi?*

– *Shu, ha! Samarqandda o'qiydi.*

Azamat! Ot bosmagan yo'lni toy bosar, deb shuni aytadi-da. Sho'rlik Olimjon juda yosh ketdi... («Eng gullagan yoshlik chog'imda», 107-bet).

Musulmonchilik qonun-qoidalariga ko'ra “kafil bo'lmoq” birovni mudofaa qilmoq, o'z himoyasiga olmoq bo'lib, masalan, kishi birovdan qarz so'rayotganda boshqa birov kafillikka o'tsa, ya'ni: “Hech ikkilanmay, beravering, men kafilman” desa; qarz oluvchining qarzni to'lashga imkoniyati bo'lmay qolgan taqdirda yoki qarzdan bo'yin tovlaganida va h.k., uni to'lash kafillikka o'tgan insonning zimmasiga tushadi. Kafil bo'lgan kishi esa qarzni to'lashga majbur hisoblanadi. Masalaning mana shu jihatlariga urg'u qaratgan quyidagi sinonimik uya kafil bo'lishning naqadar og'ir mas'uliyat ekanligini uqtirish maqsadida qo'llanadi:

1. Kafil bo'lma, kafansiz ketasan.
2. Kafil bo'lma, safil (safil – past, tuban) bo'lasan.
3. Kafil bo'lsang, kafaning kuyadi.
4. Ayg'oq bo'lma – o'larsan, kafil bo'lma – to'larsan.
5. Itolg'i⁴⁷ solma,
Kafil bo'lma.
6. Kafil bo'lguncha, kafting bilan cho'g' ushla.
7. Ishing bo'lmasa vakil⁴⁸ bo'l,
Qarzing bo'lmasa, kafil bo'l.

Mehnat bilan topilgan mol halol va qadrlı bo'ladi, kishiga yuqadi, shuningdek, harakatchan kishining tanasi ham sog'lom bo'ladi; mehnatsiz esa, birinchidan, biror-bir narsaga erishish amrimahol, qolaversa, unday molning qiymati ham, qadri ham, yuqumi ham bo'lmaydi; harakatsizlik kishini kasalga duchor qiladi:

1. Mehnatli osh – osh bo'lur,
Mehnatsiz osh tosh bo'lur.
2. Mehnatsiz topilgan oshdan –
Mehnatda topilgan tosh yaxshi.
3. Ter to'kkanga – qop-qop don,
To'kmaganga qayda don?"
4. Ter to'ksang mard bo'lasan,
Ter to'kmasang mo'rt bo'lasan.
5. Tirishqoqning labi yog'liq,
Erinchoqning boshi qonliq.
6. Mehnatiga qarab unumi.
7. Mehnatga yarasha rohati.

Egasiz, qarovsiz qolgan molga hamma ega chiqishga harakat qiladi:

1. Egasiz molning egasi ko'p.
2. Egasiz molni yel olur,
Yel olmasa el olur.
3. Egasiz etni it tortar.
4. Egasiz go'shtni mushuk yeydi.
5. Egasiz qolgan eshakni bo'ri yeydi.
6. Iti yo'q qo'yga bo'ri chopar.

⁴⁷Itolg'i – yirtqich qushlardan biri. Ovchilar itolg'ini qo'lga o'rgatib, unung vositasida ov qiladilar. Bu qush boshqa ov qushlariga nisbatan unchalik chapdast va olg'ir emas. "Itolg'i solma" deganlarining boisi ana shunda.

⁴⁸Vakil – qozixonada guvohlik beruvchi odam. Bunday odamni qozixonada uzoq olib o'tirib yo qaytq-qayta chaqirtirib, bezor qiladilar. Shu boisdan "Ishing bo'lmasa, vakil bo'l" deganlar.

7. Ko'chada yotgan suyakni qaysi it g'ajimaydi.

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: har bir odam, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik, o'ziga yarasha qadr-qimmatini borligini, shuning uchun o'zgalarning unga hurmat bilan munosabatda bo'lishini xohlaydi.

2-ma'no: quruq maqtanchoq, manman, takabbur odamlarga nisbatan istehzo bilan aytiladi.

1. Chumchuq ham o'z toshicha – botmon.

2. Jangal o'zini bog' sanar,
Ko'lankasin tog' sanar.

3. Yomg'ir o'zin sel sanar,
Ko'lماك o'zin – ko'l.

4. Tepa o'zin tog' sanar,

Chig'alay (chig'alay – og'irligi bor-yo'g'i 50–60 gramm keladigan kichkina baliqchi qush) o'zin zog' (zog' – qarg'a) sanar.

5. O'rdak o'zin g'oz sanar,

Chumchuq o'zin boz (boz – lochin) sanar.

6. Taka toqqa chiqib, buyukman der,

Qulon quyida turib, suyukman der.

7. Qamg'oq (qamg'oq – yoyilib o'sadigan tikan) o'zin rog' (rog' – tog' etagi, o'tloq, sabzazor) aylar,

Yantoq o'zin bog' aylar.

Bola-chaqasi ko'p xonadondan hech narsa ortmaydi, qo'lidagi ortiqcha mablag'i ham ko'p turmaydi:

1. Jo'jali tovuqdan don ortmas.

2. Buzoqli sigirdan cho'p ortmas.

3. Qulunli biyadan quduq suvi ortmas.

4. Och uyda qatiq uvimas.

5. Bolali uydan non ortmas.

6. Bolali qarg'adan tezak ortmas.

7. Bolali qushdan don ortmas.

Ha, hammasini birdan olma, – ...sekin gapirdi Eshvoy, – bir bo'lagini ol. Qolgani boyda turgani ma'qul. Och uyda qatiq uvimas, degan maqol bor, yeb qo'yasanlar! («Qutlug' qon», 135-bet).

Mard, botir, saxiy odam nomard, qo'rqqoq, ziqna odam bilan do'st ham tutinmaydi, osh-qatiq ham bo'lmaydi, bunday odamning yurgan yo'lidan ham yurmaydi, undan jirkanadi, hazar qiladi:

1. It sarqitini yo'lbars yemas.

2. It tumshug'ini tiqqan yerga,

Suv ichgali sher kelmas.

3. Yo'lbars tulki izidan yurmas.
4. Tulki sarqitin sher totmas.
5. Itdan qolganni mushuk yemas.
6. Eshak bilan bir tursa, bedov tulpor o'tlamos.
7. Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas.

U yoki bu narsaning o'zidan ham biror bo'lagi, qismi, anjomi, to'lanadigan xizmat haqi va h. k. qimmat bo'lsa, shunday hollarda mazkur maqollar ishlatiladi:

1. Eshagidan tushovi – qimmat.
2. Tuyasidan qo'ng'irog'i – qimmat.
3. Eshagi – bir tanga,
To'qimi – ming tanga.
4. O'zi – bir tanga,
To'ni – qirq tanga.
5. Boshog'idan somoni – qimmat.
6. Arzimaydi g'allasi,

Kuydiradi shogirdonasi (Shogirdona – tegirmonga don olib borgan odamning – un tortib bergani uchun tegirmonchiga to'laydigan haqi).

7. Arzimaydi g'alvasi,
Kuydiradi shavlasi.

Sakkiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Har bir ishda aslo shoshmaslik zarur. Oshiqish, hovliqish, shoshilish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin:

1. Oshiqqan qiz erga yolchimas.
2. Shoshgan pashsha sutga tushar.
3. Sabrsiz baliq sog'asidan ilinar.
4. Shoshgan ishga shayton qo'shilar.
5. Shoshgan zuluk yaproqqa yopishar.
6. Shoshilgan – loyga botgan.
7. Shoshqaloq to'g'ramchi qo'lini kesar.
8. Shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham dumi bilan.

– *Ey bolam, ko'nglungiz er tilar o'xshar, oshuqmang. "Oshuqq'on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas", – der erdi ("Zarbulmasal", 20-bet).*

Kishi hayotda sabr-toqatli, chidamli, qanoatli bo'lishi kerak, degan mazmunda qo'llanadi:

1. Sabr tagi – sari oltin.
2. O'tirgan qiz o'rmini topar.
3. Oshiqmagan ovchi humo ovlar.
4. Oshiqmagan quyonga yetar.
5. Chidamli er lochin tutar.
6. O'tir, qizim, o'rin top.
7. Sabr qilsang tuyaning yukini bo'ta ko'tarar.
8. Sabr qilsang g'o'radan halvo bitar.

Domla. ... Ey, man nimadan qo'rqdim, hech kim yo'q-ku yoki men jinni-pinni bo'ldimmi?! Mening o'zimning qo'lim-ku! (Eshikning oldiga borib.) Obho, eshik ham berk ekan. Endi nima qilaman-a? Ha, biroz sabr qilmoq kerak, chunki «Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar» deganlar («Boy ila xizmatchi», 88-bet).

Hech narsadan qisinib o'tirma. Omonlik bo'lsa topiladi hammasi. Qaytaga yo'qligimni bildirmay, baka-bang qilib o'tkazinglar to'yni! Iltimos. Qachonga belgilayapsizlar? Qudalar qalay? Kelib turishibdimi? Boshimizga tushgan musibatdan cho'chib ketishmadimi, ishqilib?.. Yo dimoqlarini ko'tarib yuborishdimi? Unda yalinma, o'tirgan qiz o'rnini topadi... («Girdob», 468-bet).

Biror-bir masalada birov bilan kelishishni xohlamagan, narsasini boshqaga berishni istamagan va h.k. kishi turli xil bahonalar qidirib, ishni orqaga suradi:

1. Sotmasning moli qimmat.
2. Tegmas qizning qalini ko'p.
3. Topilmas mol tog' boshida.
4. Noma'lum yerda oltin bor, borsam baqir topilmas.
5. Ochilmas omborning kaliti osmonda.
6. Qo'y katta, qo'zi kichik,
Echki sizga lozim emas.
7. Toshsiz tarozining shayini siniq.
8. Arqonga un osilgan, g'alvirga suv solingan.

Qiz Ayniya nomini eshitgach, ruxsori gul-gul yona berdi. Qizning rizoisini otasi anglab, aydiki: "Ey bolam, xomush o'ltur. Sendek gavhari aslni har noqobilning qo'liga bermasman».

Anda qiz aydi: «Ey jonim ota, bori bermas bo'lsangiz ham, zinhor yomon so'zlab, ozurda qilmang. Bermas qizning qalini ko'b, debdurlar («Zarbulmasal», 56-bet).

Kishi o'lguday qiynalib, horib-charchab, tang holga tushib turgan bir paytda boshqa bir odam kelib, uni battar qiyinroq bir holga solib

qo'yadi, uni yupatish, hamdard bo'lish, ko'nglini ovlash, yordam qo'lini cho'zish o'rniga diliga ozor beradi, asabini buzadi:

1. Och qoringa – namakob.
2. Och qoringa – achchiq ayron.
3. Boloi murda – sat cho'p.
4. O'lganning ustiga tepgan.
5. Och qoringa – sholg'om sho'rva.
6. Yiqilganning ustiga – yuduruq.
7. Dard ustiga – chipqon.
8. Boloyi so'xta – namakob.

– *O'g'lim, – dedi, – bir-ikki odam topib dardisarni (Odinani) o'z uyiga eltib tashla, agar bu yerda o'lib qolsa uning go'ru kafani xarajati ham bizning bo'ynimizga tushib, o'lik ustiga yuz tayoq bo'lar*⁴⁹ (“Eski maktab”, 16-bet).

Ayb o'zingizda, – dedi Fotima jiyanning yonini olib, – yakshanbada boramiz dedingiz, so'zingizda turmadingiz. Borganimizda shu falokatning oldi olinardi...

Fotimaning shu gapi dard ustiga chipqon bo'ldi (“Shaytanat”, to'rtinchi kitob, 159-bet).

Boshingga tashvish tushsa, hammaning maslahatini ham olaverma, maslahat berish oson. Har bir dardning davosini shu dardni boshidan kechirgan inson yaxshi bilganidek, har qanday tashvish, muammo, holatni ham shu tashvish, muammo, holatga to'qnash kelgan kishigina chuqurroq anglaydi va to'g'ri maslahat bera oladi:

1. Tabib tabib emas, boshidan o'tgan – tabib.
2. Dardni dard chekkandan so'ra.
3. Boshi og'riganning dardini boshi og'rigan tushunadi.
4. Qo'li singanning dardini qo'li singan biladi.
5. Har kim o'zidan o'tganni o'zi biladi.
6. Har kim qichishgan yerini o'zi biladi.
7. Dardni dardingdan so'ra.
8. O'zingdan o'tganni o'zaging biladi.

Kimki nohaq, gunohkor, aybli, qusurli va h.k. bo'lsa, hammadan oldin o'sha shov-shuv ko'taradi, to'polon boshlaydi, kuchi yetmagan narsalar bilan hujum qilishga harakat qiladi, chiranadi:

1. Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar.
2. Qo'rqqan burun yulduz urar.

⁴⁹ Tojiklarning «Boloyi murda sad cho'p» maqolining tarjimasini.

3. Kuchi yetmagan kaltak ko'tarar.
4. So'qolmagan so'yil⁵⁰ ko'tarar.
5. Cho'chigan cho'qmor⁵¹ ko'tarar.
6. Ura bilmagan uzun kosov ko'tarar.
7. Sharpadan qo'rqqan qorovul shaqildoq chalar.
8. Yalingan qo'rqqoq emas,
Yoqalashgan – qo'rqqoq.

To'rt-besh qadam beriga, o'tlar ustiga omonat cho'kkaladim. O'sha kuni Ra'no kelinoyimnikida ko'rganlarim lop etib xayolimga keldi-yu, birdan dadil tortdim. Qo'rqqan oldin musht ko'tarar qilyapti bu zakunchi! Shoshma! Nimaga qo'rqishim kerak undan?! Nimaga qaltirashim kerak?! Zakunchi bo'lsa o'ziga! («Ikki eshik orasi», 267-bet).

Dushman kichkina, kuchsiz, qo'lidan nima ham kelardi, deb g'aflatda qolmay, hamma vaqt hushyor tur. Dushmanning kattasi ham, kichigi ham dushman, uni nazar-pisand qilmasang, nogahon zarba yeb, shikast topib qolishing ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun bundaylardan ehtiyot bo'lish lozim, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Dushmaning sichqon bo'lsa ham, kuching arsloncha bo'lsin.
2. Dushmaning chumoli bo'lsa, fil hisobla.
3. Dushmaning kuya bo'lsa ham, tuya bil.
4. Dushmaning mo'r (mo'r – chumoli) bo'lsa ham, mordek (mor – ilon) hazar qil.
5. Yovni kichik ko'rsang, boshing ketar.
6. Dushmanni kuchsiz dema,
Kuchim ko'p, uchsiz (cheksiz, hadsiz) dema.
7. Xasni xor ko'rma, ko'zingga tushsa ko'r qiladi.
8. Kichkina tosh – yoradi bosh.

Sen doxundalarga past nazar bilan qarama! "Cho'pni xor qilmaki, ko'zingga sanchiladi" deganlar. Bir vaqt Buxoro hukumatining ishi ana shu doxundalar, bugun sening ko'zingga xor ko'ringan kishilar qo'liga o'tadi ("Doxunda", 281-bet).

Qo'l qovushtirib o'tirgan bilan, shuningdek, quruq o'y-xayol bilan hech narsaga yetishib bo'lmaydi. Har qanday narsaga erishish uchun tinimsiz izlanish, mehnat qilish, mashaqqat chekish zarur bo'ladi:

⁵⁰ So'yil – uzun, yo'g'on kaltak, tayoq.

⁵¹ Cho'qmor – 1. To'qmoq shaklidagi qadimiy urush quroli, gurzi, shashpar. 2. Tosh kesadigan og'ir to'qmoq.

1. «Holva» degan bilan og'iz chuchimas.
2. Yiroqdagi suv bilan suvsoqlik qonmas.
3. Milk so'rgan bilan qorin to'yimas.
4. Tushda suv ichgan bilan tashnalik qonmas.
5. Toqqa chiqmasang do'lona qayda,
Jon kuydirmasang jonona qayda.
6. "Shaf-shaf" degan bilan shaftoli og'izga tushmas.
7. Ot surinmay yo'l topmas,
Yigit urinmay mol topmas.
8. Quruq so'z bilan osh pishmas.

– *Ho'! Xajayip! – dedi soqoli titrab. – Zakunchimisiz nima balo! Nuqul «zakun-zakun» deysiz! «Qizil dehqon»dagilar zakunni sizchalik bilmasayam, dehqonchilikka aqli yetadi. Sho'x yer qanaqa bo'lishini mendan yaxshi bilsangiz kerak. Hammasi tosh. Ketmon ursangiz betingizga tosh sachraydi. Yerimiz – shunaqa. Yarmisi – to'qay. Niyatingiz yaxshi-ku, holva degan bilan og'iz chuchimaydi-da, o'rtoq Xajayip!* («Ikki eshik orasi», 61-bet).

O'zbekchilikda, odatda, to'y-ma'rakada to'y egasi yaqin kishilarini o'zi yoki tayinlagan kishisi aytib chiqadi va shu chaqiruv asosida mehmonlar marosimga tashrif buyurishadi. Mezmon chaqirilgan mehmon soniga ko'ra joy tayyorlagani sababli aytilmagan mehmon bunday tadbirga tashrif buyursa, ikkala tomon ham noqulay ahvolda qoladi. Shuning uchun chorlov bo'lmagan joyga bormaslik ma'nosida ushbu maqollar qo'llanadi:

1. Aytilmagan qo'noq – yo'nilmagan tayoq.
2. Aytilgan yerga bor, Aytilmagan joyda nima bor?
3. Aytgan yerga erinma, Aytmagan yerda ko'rinma.
4. Er tilagan joyda aziz.
5. Chaqirgandan qolma, o'zing bosib borma.
6. Chaqiriqsiz to'yga borguncha, qazuvsiz go'rga kir.
7. So'zing qaytar joydan o'zing qayt.
8. Indaksiz kelgan – to'shaksiz o'tirar.

To'qqiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Har bir kishi: el-yurt og'asi, yo'l boshchi, rahbar, oila boshlig'i va h. k. ning tashvishi o'ziga yarasha bo'ladi. Egallagan mavqeyi, tutgan o'rnini va h. k. qancha yuqori, qancha katta bo'lsa, tashvishi, mas'uliyati, javobgarligi ham shuncha orta boradi. Modomiki shunday ekan, "katta"larga maza-da – hamma imkoniyatlari bor, qo'llarini qayoqqa

uzatsalar yetadi, aytganlari aytgan, deganlari degan, buyruq bersalar – bas, deb o‘ylamayoq qo‘yaqol, deyilmoqchi⁵²:

1. Ro‘zg‘ori kattaning tashvishi ham katta.
2. Katta boshning og‘rig‘i ham katta bo‘ladi.
3. Katta daraxtning soyasi ham katta.
4. Katta karvon katta ko‘char.
5. Tuya qancha katta bo‘lsa, yuki shuncha og‘ir bo‘ladi.
6. Tuya qancha – yarasi shuncha.
7. Filning yarasi filcha bo‘ladi.
8. Bo‘z yamog‘i – bo‘zcha,
Qop yamog‘i – qopcha.
9. To‘ylikning to‘ycha tashvishi bor,
Uylikning uycha tashvishi bor.

So‘nggi kunlarda yaradorlarning oqimi ko‘paymaganda, evakuatsiyaga muhtoj ham emas edik.

Bu qo‘shinlarimizning hujumidan dalolat, doktor, – dedi Zebo bilimdonlik bilan. – Bu yaxshi! O‘ksimang!

O, doktor, – dedi bosh vrach labini pirpiratib, – siz juda xudbinsiz. Men buncha kishining safdan chiqishini istamas edim. Garchand xirurgman, tajribam oshadi, lekin baribir istamayman. Qurbon evaziga, xususan, shuncha qurbon evaziga tajribali bo‘lishni istamayman.

Filning yarasi filcha bo‘ladi, doktor (“Shinelli yo‘llar”, 349-bet).

Yalqov, ishyoqmas, erinchak kishilarning kosasi hech qachon oqarmaydi. Yalqovlik ularga hamma vaqt ziyon yetkazadi, ular xor-zorlikda yashab, dunyodan o‘tib ketadi:

1. Dangasaning kosasi oqarmas.
2. Ishyoqmas rohat topmas.
3. Yalqovning oshi – yovg‘on.
4. Erinchoqlik boshga balo keltirar.
5. Dunyoda kim o‘ladi – bir ko‘ngilchak, bir erinchak.
6. Ishchanlik to‘rga tortar,
Yalqovlik go‘rga tortar.
7. Yalqov boyimas,
Suq semirmas.
8. G‘ayratlining og‘zi moy,
G‘ayratsizning holi voy.

⁵²Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 366.

9. Baxt yalqovga begona.

Tekin tomoq minnatli bo'lgani bois, garchi sifati past, ta'msizroq bo'lsa-da, beminnat narsa, taom va h.k. a'loroqdir:

1. Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi.
2. Minnatli Qovulning qovunidan Beminnat Tolibning tarragi yaxshi.
3. Minnatli tuyadan beminnat to'qli (to'qli – urg'ochi qo'zi) yaxshi.
4. Minnatli asal yegandan minnatsiz kesak yegan yaxshi.
5. Minnatli tomdan devorning yorig'i yaxshi.
6. Minnatli tilladan beminnat chaqa yaxshi.
7. Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi.
8. Ta'nachining yog'idan – do'stingning tayog'i yaxshi.
9. Boy buvamning oshi bor, ichi to'la toshi bor.

Nuqul yolg'on so'zlar bilan kishi qo'ynini puch yong'oqqa to'ldiradigan, quruq va'dalar berib yuradigan kishilarga nisbatan istehzo, kinoya ma'nosida qo'llanadi:

1. O'lma, eshagim, arpa pishar.
2. Muso qo'y keltirar.
3. O'lma otim: yoz kelur, yo'ng'ichka bitar.
4. O'lmagan qul oltin kosadan suv ichar.
5. Bola, yig'lama, senga oymomani olib beraman.
6. Bo'sh ombordan – botmon g'alla.
7. Quruq va'da – bo'sh ombor.
8. Quruq va'da – puch yong'oq.
9. Sho'r suvda sovun ko'pirmas.
Quruq va'da qorin to'ydirmas.

Ish haqini orttirish nari tursin, bu ortiqcha ish uchun hech bir narsa to'lanmaydi. Xo'jayinning davlati ortgandan orta borsa ham, «uning davlatidan» ishchilarning vaqtini xush qilmoqni «xudo hech xohlamaydi», ishchilarning «o'zimizniki» deb ishonganlari Qurbon Ali bo'lsa: «Bola, yig'lama, senga oymomani olib beraman», yoki: «O'lma, eshagim, arpa pishar», deyishdan boshqa narsani bilmaydi («Eski maktab», 29-bet).

Dushman hech qachon senga do'st bo'lmaydi, ko'nglidagi adovatni yuzga chiqarmasligi, muloyim munosabatda bo'lishi, shirin gapirishi, miqdoran ozchilikni tashkil etishidan hushyorlikni yo'qotib qo'yma. Undan hamma vaqt va har qachon xavf tug'ilishi mumkin, degan mazmunda qo'llanadi:

1. Do'sting ming bo'lsa ham – kam,

- Dushmaning bir bo'lsa ham – ko'p.
2. Olmaning po'stligiga ishonma, dushmanning do'stligiga.
 3. Dushmanning biri ham – xatar.
 4. Yov ketsa ham qilichingni zanglatma.
 5. Yov ko'zi o'qmordek qarar⁵³.
 6. Tomchi suv bo'lmas,
Dushman el bo'lmas.
 7. Suv to'xtar,
Dushman to'xtamas.
 8. Dushman bitsa ham, dushmanlik bitmas.
 9. Arining qanoti kuysa ham, nishi qoladi.

Ishyoqmas, dangasa, tekintomoq kishilarni hech kim yoqtirmaydi, chunki ular o'zi harakat qilmaganligi tufayli mehnat qilganning qadriga yetmaydi, ularga izzat-ikrom ko'rsatmaydi, aksincha, orsiz bo'ladi, dilozorlikdan tap tortmaydi; bundaylar bilan kishining o'tirib-turgisi, hamsuhbat bo'lgisi ham kelmaydi, ulardan barcha birdek hazar qiladi:

1. Bekorchidan xudo bezor.
2. Ishyoqmasga it boqmas.
3. Xushyoqmasni xudo xushlamas.
4. Erinchakni el suymas.
5. Bekor, bekorning qilmishi – ozor.
6. Yalqov elga or keltiradi.
7. Erinchak elga sig'mas,
Pushaymon joyiga tushmas.
8. Erinchakni er olmas.
9. Yalqovlikni bozor olmas,
Bozor olsa ham mozor olmas.

O'n parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Har bir sohada ham kishi uning qiyin, og'ir, mushkul, xavfli, noqulay taraflaridan qo'rqsa, cho'chisa, o'rganmoqchi bo'lgan kasbini egallay olmaydi, umuman, xavf-xatardan qo'rqqan maqsadga yetolmaydi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.
2. O'g'ridan qo'rqqan mol yig'mas.
3. Uchqundan qo'rqqan temirchi bo'lmas.

⁵³O'qmor – o'q ilon. Bu ilon odamni, raqibini ko'rib qolguday bo'lsa, birdan sapchib, havoga ko'tarilib, uni o'qday teshib o'tarmish-da, o'sha zahoti o'ldirarmish.

4. Ilondan qo'rqqan olachilvirdan hatlamas.

5. Bo'ridan qo'rqqan to'qayga kirmas.

6. Chigirtkadan qo'rqqan ekin ekmas.

7. Kuchukdan qo'rqqan gado bo'lmas.

8. Ayiqdan qo'rqqan o'rmonga kirmas.

9. Tulkidan qo'rqqan tovuq boqmas.

10. O'limni o'ylagan imorat solmaydi.

– *Ha, bosmachilardan qo'rqyapsizlar, a?* – dedi sinovchan boqib.

– *Yo'g'-e.*

– *Har qalay, notinch joy deb eshitamiz.*

– *Ha, endi, ehtiyot bo'lgan yaxshi-da.*

Bu xavotirlar bejiz emasdi. Bahrombek to'dasi Urgut tog'larida biqinib yotar, goh-goh yon-atrofdagi shahar va qishloqlarni talab, xunrezliklar qilib turishganini talabalar ham eshitishgan edi.

– *Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi,*– dedi keskin ohangda *Abduhamid («Eng gullagan yoshlik chog'imda», 47-bet).*

– *Shunaqa, birodarlar, ko'chat kishining o'mrini cho'zadi. «O'limni o'ylagan imorat solmaydi» degandek, noumid kishi ko'chat o'tqazmaydi («Oltin zanglamas», 106-bet).*

– *Biroq chumchuqdan qo'rqqan odam tariq ekmaydi, shu gapni eshitganmisiz?*

– *Eshitganman,* – dedi *Nizomjon.* – *Ikromjon aka chumchuq emas-da.*

– *Albatta. Ikromjon amaki chumchuq emas, ammo Tursunboy chumchuq. Chumchuq ham undan xijolat bo'ladi («Ufq», 392-bet).*

Iliq so'z iydirdi. Yaxshi muomala bilan har qanday mushkul tez yechiladi:

1. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi.

2. Yaxshi muomalaga tuya ham cho'kadi.

3. «Barakalla»ga qul mehnat qilib o'lar.

4. Sigirni ham silasa sut berar.

5. Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar.

6. Bir og'iz shirin so'z qilichni qiniga kiritadi.

7. Xushmuomalali mingni uribdi,

Tayog'i yo'g'on birni uribdi.

8. Yaxshi gap – jon ozig'i.

9. Yumshoq ipakni o'tkir qilich ham kesolmas.

10. Muloyim, muloyim, quling bo'loyin.

– *Har qalay, siz yoshsiz, uka. Yaxshi gapga ilon inidan chiqarkan. Muhiddin Jabborovich obro'li, fanga ko'p mehnati singgan kishi. Buni bilasiz. Ammo odam qariganda ko'ngli biroz noziklashib, izzattalab bo'lib qoladi. Siz aqlli yigitsiz-ku, buni tushunishingiz kerak («Girdob», 41-bet).*

Turmushing farovon bo'lgan paytda hoy-yu havasga berilib faqat buguning bilan yashama, balki kelajagingni ham o'ylab ortiqcha daromadingning bir qismini g'amlab qo'y, bir kunningga yaraydi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Ortiqcha mol ko'z chiqazmas.
2. Ortiqcha davlat bosh yormas.
3. Yoz qoqisi – qishga dori.
4. Yozgi tezak – qishga kerak.
5. Kuzda yig'sang – qishda yeysan.
6. Oq tanga – qora kunga.
7. Yoz yozig'i – qish ozig'i.
8. Yoz mevasi – qish xazinasi.
9. Yoz yundisi qishga qatiq.
10. Yozga yetsang, qish kuningni unutma.

*Ko'zum to'yimas necha husnungg'a boqsam,
Bale, ortuqsi davlat ko'z chiqarmas (Lutfiy).*

Kimligini bilmay turib yoxud hali sinovdan o'tkazmay turib birovni maqtovchi kishilarga nisbatan: “Darrov, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarma, uyalib qolishing mumkin”, – degan ma'noda qo'llaydilar:

1. Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r.
2. Kelinni kelar yilda ko'r.
3. Terini sangob⁵⁴ dan keyin ko'r,
Kelinni – tuqqandan keyin.
4. Oy minmay oting maqtama,
Yil turmay xotining maqtama.
5. Jo'jani kuzda sanaydilar.
6. Soyaga qarab to'n bichma.
7. To'ydan ilgari nog'ora qoqma.
8. G'alvimi suvdan ko'targanda ko'r.
9. Sirot kechmay, qah-qah kulma.

⁵⁴ Qoramol, qo'y, echki va boshqa hayvonlarning terisi oftobda quritilganda kuygan bo'lsa, o'qrqli-so'qrqli yoki sasigan-chirigan bo'lsa, sangobdan – terilar maxsus critmaga solib pishiriladigan chuqurdan – butun chiqmay, yarimta-yurimta, burda-burda bo'lib ketadi.

10. Kuluk⁵⁵ ni kelganda ko'r,
Dumini suzganda ko'r.

G' a n i. Opket, nimaiki qolgan bo'lsa, hammasini ol. Oyingni qo'li tekkan devorni ham ko'chirib ket. Faqat menga tegma. Tinch qo'y.

B a h r i. Ana ko'rdingizmi, hali xotin olmasdan bizni begona qilyaptilar. Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r. Ko'rarmiz! («G'ildirak», 210-bet).

Imkoniyat bo'lmaganda, garchi talab darajasida bo'lmasa-da, vaziyatdan chiqishga ko'maklashadigan shart-sharoitga rozi bo'lishga to'g'ri keladi, chunki mavjud holat yaxshi kunga yetib borguncha senga asqotadi:

1. Suv yo'g'ida – tayammum.
2. Baliq yo'g'ida baqa ham – baliq.
3. Oftob chiqquncha oydindan foydalan.
4. Eti bo'lmasa, sho'rvasi.
5. Qori bo'lmasa, yomg'iri.
6. Suvi bo'lmasa, shudringi.
7. O'tin yo'g'ida tezak ham – o'tin.
8. Ho'kizing bo'lmasa, o'zing chop,
Omoching bo'lmasa, ketmon chop.
9. Chelak teshik bo'lsa ham suv sepishga yaraydi.
10. Bolta o'tmas bo'lsa ham suyak sindirishga yaraydi.

Har kim o'z tirikchiligi, g'ami, tashvishi to'g'risida o'zi qayg'uradi, yelib-yuguradi. Birovning g'amini birov tortmaydi, shuningdek, birovdan o'tganni birov bilmaydi:

1. Tani boshqa dard bilmas.
2. Qozoni boshqaning – qayg'usi boshqa.
3. Uyi boshqaning munggi boshqa.
4. Kishi g'ami erta kirib, kech chiqar.
5. Tutuni boshqaning tuyshagi boshqa (tuyshak – g'am).
6. Tutunning achchig'ini mo'ri biladi.
7. Har butaga o't tushsa, o'zi kuyib, o'zi yonar.
8. Og'u ichganning o'zi biladi.

⁵⁵ Kuluk – chopqir ot. Kulukni poygaga qo'shar oldidan chaqqon qilmoqlik uchun dumini o'z qili bilan ixcham qilib bog'lab qo'yadilar. "Dumini suzmoq degani – shu. Bundan tashqari, maxsus ot bozori bo'lmagan qishloqlarda sotiladigan otni bozorga solganda uning dumini o'z qili bilan o'rtasidan bog'lab qo'yadilar. Bu uning sotilishiga belgi bo'lardi. Ana shuni ham "dumini suzmoq" derdilar (Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 186).

9. Osh qadrini to‘q bilmas,

Og‘riq qadrini – sog‘.

10. Dard tortmagan og‘riqni bilmas.

G‘ a n i. ... Men borib Obidaginamdan rozilik olib keldim. Yolg‘iz qoldim, dedim... Hayhotdek uyda bitta o‘zim arvoonga o‘xshab tong ottiryapman. O‘lib qolsam bir haftadan keyin bilishadi, dedim. Meni kechir, bir tanmahram kerak bo‘lib qoldi, dedim...

R a h i m a. Tani boshqa dard bilmas, degandek, bu yog‘ini o‘ylamagan ekanmiz. Sizga juda-juda qiyin bo‘lib ketgan ekan («G‘ildirak», 220-bet).

... Qanday yangiliklar bor batalyonda?

– Ah, endi siz uchun baribir emasmi batalyonda yangilik bormi-yo‘qmi? Tani boshqaning dardi boshqa, begonaning xayoli erta kirib kech chiqadi. Shu yerdasiz – so‘raysiz, ketasiz – unutasiz, ... («Shinelli yillar», 443-bet).

Har bir sohada shu sohani har tomonlama puxta biluvchi mutaxassis bo‘lmasa yoki vaqtincha biror yoqqa ketib qolgan bo‘lsa va h. k. uning o‘miga shu ishga layoqati yo‘q boshqa bir kishining «kursi»ni egallab, savlat to‘kib turishiga nisbatan majoziy ma‘noda qo‘llanadi:

1. O‘rdak yo‘q ko‘lda loyxo‘rak – xon.
2. Qush yo‘q joyda qurbaqa – bulbul.
3. Mushuk yo‘q joyda sichqon – podsho.
4. El ovloq bo‘lsa, to‘ng‘iz tepaga chiqadi.
5. Mirza yo‘g‘ida qul kiradi qo‘raga,
It yo‘g‘ida cho‘chqa huradi qarg‘aga.
6. Qorong‘i qolgan yurtga qorashaqshaq podsho bo‘libdi.
7. Echkinning oti mulla Norqo‘zi.
8. G‘oz uchsa, ko‘lni o‘rdak egallaydi.
9. Qulon quduqqa qulasa, qulog‘ida qurvaqa qurillar.
10. Qulon quduqqa qulasa, cho‘l baqasi ayg‘ir bo‘ladi.

– Gijinglagan yigitlar turganda, shu qizni sekretar qilib yuboraman deb o‘tiribdi. Qishloqda odam qolmasa, echkinning oti mulla Norqo‘zi bo‘ladi... Shu ham gapmi!.. Odamning xo‘rligi keladi («Sinchalak», 55-bet).

O‘n bir parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Kishi nochor ahvolga tushib qolgan paytlarda o‘kinmasligi, tushkunlikka tushmasligi lozim, tun ketidan kun kelgani singari bu

holatlar ham bir kun tugab, yaxshi kunlar, albatta, keladi, degan ma'noda qo'llanadi:

1. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'.
2. Bugun – yupun, ertaga – butun.
3. Toy mingan ot ham minib qoladi.
4. Bir achchiqning bir chuchugi ham bor.
5. Eshakli otli ham bo'lar.
6. Oriq semirar, och to'yinar.
7. Bir ochlikning bir to'qligi ham bor.
8. O'char chiroq yana yonar.
9. Botar kunning otar tongi bor.
10. Qora kuzning qori turmas.
11. Bir qishning bir yozi bo'ladi.

Qani ayt-chi, shu yaqin orada menyuingni o'zgartirasanmi, yo qozoningga granata tashlab ketaymi?

Sabr qil, do'stim, sabr qil? – dedi oshpaz go'yo qo'rqqandek. – Toy mingan ot ham minib qoladi (“Shinelli yillar”, 261-bet).

Har jihatdan, ya'ni ma'naviyati, dunyoqarashi, bilim doirasi, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli va h.k. past bo'lgan kishiga har tomonlama yetuk, ma'naviyati boy, dunyoqarashi keng, bilim doirasi chuqur, yashash tarzi juda yaxshi va h.k. inson yo'liqsa yoki chor-nochor yashovchi, qandaydir kamchiligi, qusuri bor kishiga kattaroq, yaxshiroq biror narsa loyiq ko'rilsa, shunga kinoya tarzida aytiladi:

1. Kir ko'ylakka – kishan yoqa.
2. Yirtiq to'nga – zar yamoq.
3. Kal boshga – shamshod taroq.
4. O'tmas pichoqqa – zarhal sop.
5. Temir qarmoqqa – oltin baliq.
6. Bo'z ko'ylakka sadaf tugma yarashmas.
7. Eski to'nga – suvsar yoqa.
8. So'qir ko'zga surma.
9. Oqsoq otga – oltin taqa.
10. Eski uyga – yangi zardevor.
11. Eshakka kumush egar yarashmas.

Sokinlikning ham o'z tovushi bor. Buning nimaligini qalin devorli, temir eshikli, deraza o'rnida kichik tuynukli kamerada o'tirgan odamgina yaxshi biladi...

Tun. Ertaga bahor bayrami... Havo yaxshi. Odamlar rosa yasanishgandir. Musharraf nima kiydiykan? Onam-chi? Marat,

Maratjon-chi? Unga biror bayram sovg'asi olib berishdimikan? Yoki bo'z ko'ylakka sadaf tugma yarashmas, deb, uyda diqqat bo'lib o'tirishibdimi? ("Oltin zanglamas", 168-bet).

Har kimning bolasi, ya'ni u chiroylimi, xunukmi, aqllimi, telbami, fahm-farosatlimi, befarosatmi va h.k. bo'lishidan qat'iy nazar, o'z ko'ziga olovdek ko'rinadi, natijada kishi doimo o'z farzandiga o'zgacha mehr ko'rsatadi, uni suyib ardoqlaydi. Ushbu maqollar shu va shunga o'xshash hollarda ishlatiladi:

1. Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga.
2. Qo'ng'iz bolasini oppog'im der.
3. Tipratikan bolasini yumshog'im der.
4. O'ng qo'lim, so'l qo'lim, bari o'z qo'lim.
5. Quyon bolasini botirim der.
6. It bolasini qoplonim der.
7. Hech kim o'z ayronini achchiq demas.
8. Savdogarning yomon moli yo'q.
9. Laylakning oyog'i o'ziga qisqa.
10. Itning bolasi – itga yaxshi,
Qushning bolasi – qushga yaxshi.
11. Har qush o'z ovoizidan xush bo'lar.

B a s h o r a t. Oyim ko'rmasalar ham, ovozimni eshitmasalar ham hidimdan biladilar.

F a r m o n. Senda hid qoptimi?

B a s h o r a t. ... - yaxshimanmi, yomonmanmi – oyimni farzandiman. Oyim mendan tonmaydilar. «Qo'ng'iz bolasini oppog'im deyar ekan, tipratikon yumshog'im deyar ekan», «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga» ("G'ildirak", 267-bet).

Avvalo, har qanday sir-sinoatingni og'zingdan chiqarma. Birov eshitdimi, endi uni yashiraman deb ovora bo'lma, u odamlar orasida baribir tarqaladi, turli gap-so'zlarga sabab bo'ladi:

1. El og'ziga elak tutib bo'lmas.
2. G'alvirda suv turmas.
3. El qulog'i – ellik.
4. Yuzta ko'z bo'lsa, mingta quloq.
5. Birovning og'ziga tugma qadab bo'lmaydi.
6. O'ttiz tishning orasidan chiqqan gap o'ttiz urug' elga tarqalar.
7. Odamlarning og'ziga tushsang saqich bo'lib chaynalasan.
8. Yuz qopning og'zini bog'lab bo'lsa ham yuz odamning og'zini bog'lab bo'lmas.

9. El og'zini yig'ib,
Chelak og'zini bo'g'ib bo'lmas.
10. El og'zini yopmoqqa ellik qari bo'z kerak.
11. Ko'p og'ziga qalqon tutib bo'lmas.

Kim kim-u, lekin men sizga ishonaman, ukam. Ishingizdan, so'zingizdan bilaman. Buning ustiga, yuzingizga aytma-yu, musichadek beozor odamsiz, ishqilib, omadingizni bersin, ishingiz baroridan kelsin. Ko'krakni baland ko'tarib yuravering, Azizjon, buyoqda mana biz bor! Fisq-u fujur gaplar esa... e, elning og'ziga elak tutib bo'larkanmi?! Quloq solmang ("Girdob", 68-bet).

Xiyonat, jinoyat, o'g'irlik, ayb, gunoh, sotqinlik va h.k. qilib qo'ygan odam buni yashirishga har qancha urinmasin, baribir, bir kunmas-bir kun oshkor bo'ladi, qilgan ishiga yarasha o'z jazosini topadi:

1. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.
3. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.
4. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi.
5. Eshakni yashirsang, hangrashi oshkora qiladi.
6. Cho'g'ni o'rab bekitib bo'lmas.
7. Tuya mingan bo'yin yashirolmas.
8. Tuyaqush boshini qumga tiqib: «Meni hech kim ko'rmas», der.
9. Yag'irni zar to'qim yashirolmas.
10. Oftobni qo'l bilan yashirib bo'lmas.
11. Bigizni qanorga yashirib bo'lmas.

...U tang ahvolda qolganidan ozdi, sarg'aydi, ammo qorni sezilar-sezilmas chiqdi, buni u ro'mol bilan bog'lab yurishga majbur bo'ldi.

Lekin oyni etak bilan yopib bo'ladimi? Validasi – Salomat xola baribir payqadi. U ingichka yuz, sarg'ish soch, to'ti burun, ozg'in ham yuvosh ayol edi («Uyg'oq kunlar», 56-bet).

– Shunaqasi ham bo'larkan-da, Zafarjon. Lekin kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi deganlaridek, yashirib bo'lmadi. Hammasini borligicha, ro'y-rost yozib berdik («Intizor», 86-bet).

Qo'lidan ish kelmaydigan, biror-bir ishga uquvi yo'q kishi ko'zga ko'proq tashlanishga, hammaning e'tiborini o'ziga qaratishga harakat qiladi, bosar-tusarini bilmay o'zini to'rt tomonga uradi, juda ham sergap, mahmadana bo'ladi:

1. Arava qancha quruq bo'lsa shuncha taraqlaydi.
2. Tuxum tug'maydigan tovuq ko'p qoqog'laydi.
3. Ashula bilmaganning avji ko'p.
4. Sayoz daryo shovqin oqar.

5. Sutsiz sigir ko`p ma`raydi.
6. Nog`oraning ichi po`k, ovozi baland.
7. Sumay chalishni bilmaganning ohangi ko`p.
8. Bo`sh tegirmon guldirar.
9. Sutsiz sigir suzag`on bo`lar.
10. Epsiz sozanda sozin cho`zar.
11. Mevasiz daraxtning shoxi tikka.

– *Gapimni bo`laverma, iltimos... Arava qancha quruq bo`lsa, shuncha taraqlaydi, deganga o`xshab, shovqin solib, yugurib-yelganim sayin ich-ichimdan nimadir yo`qolib, meni go`yoki tashlab ketyapti («Egilgan bosh», 95-bet).*

Mehnat qilishni yoqtirmay, tekin tomoqni xush ko`ruvchi, ya`ni qayerda tayyor dasturxon, tekin non bo`lsa o`sha yerda paydo bo`luvchi kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo`llanadi:

1. Tayyorga ayyor.
2. Ish desa – ayyor,
Osh desa – tayyor.
3. Ish deganda nofarmon (nofarmon – bo`ysunmovchi, itoat qilmovchi).
Osh deganda jon qurbon.
4. Ish desa – og`riydi oshiq-moshig`im,
Osh desa – tayyor katta qoshig`im.
5. Quli-quli osh quli,
Ish desang og`rir bosh-qo`li.
6. Osh desa – qult-qult,
Ish desa – qilt-qilt.
7. Osh desa chopar,
Ish desa qochar.
8. Osh desang – botir,
Ish desang – yotur.
9. Oshga qo`noq,
Ishga no`noq.
10. Ishchanni ishga chaqir,
Ishyoqmasni oshga chaqir.
11. Osh bo`lsa-yu, ish bo`lmasa,
Yoz bo`lsa-yu, qish bo`lmasa.

O'zining katta aybi, nuqsoni bo'la turib, birovning arzimagan nuqsonidan kuluvchi, masxara qiluvchi, mensimovchi takabbur odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llanadi⁵⁶:

1. Ishtoni yo'q tizzasi yirtiqqa kulibdi.
2. Ilon o'z egriligini bilmay,
Tuyaning bo'ynini egri derkan.
3. Yiqilgan qoqilganga kulibdi.
4. Botgan toyganga kulibdi.
5. Ko'ylagi yo'q yengi yirtiqqa kular.
6. Yirtiq og'iz tirtiq og'izga kular.
7. Chig'il g'alvirga kular.
8. Chuvrindi gadoyga kular.
9. Echki qo'yga kulibdi.
10. Chillasida chiroq ko'rmagan
Mum shamni kamsitar.
11. Kal tegdi-yu, ko'r noz qildi.

Sodiq uni qattiq qayirib tashlashi mumkin edi. Lekin nima foyda, baribir unga kor qilmaydi, qo'ndogda tekkan. Sodiq qanchalik g'ijinmasin, quloq solishga majbur bo'ldi. Boshqa joyda bo'lganda-yu, o'zi bilardi: gapirganiga pushaymon qildirib qo'yardi! Undan keyin, Sodiqning tili qisiq joyi ham bor: birga, bir kamerada o'tiribdi, axir ishtoni yo'qning tizzasi yirtiqdan kulishini qarang, deyishi, juda bo'lmaganda, otdan tushsangiz ham, uzangidan tushmas ekansiz, inim, bu yer qizillik qiladigan minbar emas, deb u ham qayirib tashlashi mumkin («Oltin zanglamas», 166-bet).

Ba'zi noshud, qo'lidan biror ish kelmaydigan odam aybini bo'yniga olgisi kelmay, o'zini oqlamoq uchun turli xil bahonalar keltiradi:

1. Raqs bilmagan kishiga joy tor ko'rinar.
2. Shayxning hunari bo'lmasa, xonaqoh tang.
3. O'zolmagan otga uzangi bahona.
4. Oshi buzilgan xotin: «Guruch egri ekan» der.
5. Qofiya tor kelsa, xonaqoh tang.
6. Ot minolmagan noshud aybni uzangiga qo'yar.
7. Otolmagan ovchi yoyidan ko'rar.
8. O'yin bilmaganga etik qo'nji – bahona.

⁵⁶ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 177.

9. Yoqolmagan o'tinidan ko'rar,

Qaytib kelib xotinidan ko'rar.

10. Besharmga arpa uni bahona.

11. Yonmasa – o'tin yomon, yoqolmasa – xotin yomon.

Boyo'g'li bularning kelganidin boxabar bo'lib... o'choqqa o'tun qalay boshladi. Ul chog'da havo e'tidoli o'tib, qish zamhari yovuq edi. Sovuq kasrotidin harchand "puf-puf" qildi, yonmadi... Boyo'g'li aydi: "Ko'ring, qarilig'imning boshi, esim yo'qdan o'tni yoqolmadim".

Anda Kordon aydi: "Eshitganim borki, "Shayxning hunari bo'lmasa, xonaqoh tang"... ("Zarbulmasal", 45-bet).

– Gunohi nima ekan, demaysanmi, ovsar! – bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang'illadi...

– Dedim! – Oqsoqol buvaning mo'ylabi titrab ketgandek bo'ldi. – Aybi shumishki, rayonodan beruxsat maktab qurilishini boshlaganmish. Darsni programma bo'yicha o'tmasmish.

– Iye? – dedi bobom... – Maktab qursa yomonmi?...

– Arpa uni bahona... – Menimcha ma'linga Xo'jaqulov qasdlashgan ("Oltin zanglamas», 55–56-betlar).

Do'st, hamroh, yo'ldosh tanlashda ehtiyot bo'lish, adashmaslik kerakligi, so'rab-surishtirmay, sinamay do'st tutinmaslik lozimligi; chunki yaxshi, vafodor, sadoqatli insonlarni topish qiyinligi uqtiriladi:

1. Hisobdan adashsang ham, do'stdan adashma.

2. Har kimni do'stim dema,
Tandagi po'stim dema.

3. Ko'ringanni do'st bilma,
Keyin pushaymon qilma.

4. Har ochilgan – gul bo'lavermas,
Har tutingan – do'st bo'lavermas.

5. Yerdan topsang sanab ol,
Oshna bo'lsang sinab ol.

6. Sinalmagan o'rtoq – chaqilmagan yong'oq.

7. Ot sinovi bir bo'lar,
Do'st sinovi ming bo'lar.

8. Do'st – egiz, dushman – sakkiz.

9. Yettining biri – ayyor.

10. Do'stdan ko'p – dushman.

11. U ko'zing bu ko'zingga pand beradi.

O'n ikki parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Bu maqollar birovlariga nisbatan bepisandlik ma'nosida, shuningdek, ko'pincha, o'z hol-qudrati yo'q bo'laturib: «Men undayman, men bundayman» deb maqtanuvchilarga qarata istehzo tariqasida aytiladi:

1. Ko'ppak yugurgani bilan tozi bo'lmas.
2. Ola ko'zan olg'ir bo'lsa ham arslon bo'lolmas.
3. Ola to'g'anoq olg'ir bo'lsa ham qarchig'ay bo'lmas.
4. To'rg'ay semirib botmon bo'lmas.
5. Echki yugurib kiyik bo'lmas.
6. Qarg'a qanot yoygani bilan qarchig'ay bo'lmas.
7. Yulduz yiqilgani bilan oy bo'lmas.
8. Chumchuq semirib botmon bo'lmas,
Tasha o'sib ketmon bo'lmas.
9. Choy to'kilgani bilan soy bo'lmas.
10. Eshakni ming maqtagan bilan ot bo'lmas.
11. Yumronqoziq yugurib biyik bo'lmas (biyik – buyuk ulug').
12. Yumruq bukilib sang bo'lmas,

Echki yugurib lang bo'lmas (yumruq – musht, sang – tosh, lang – kiyikka o'xshab tez yuguruvchi chaqqon, epchil hayvon).

– *Sharmanda qiladigan bo'lsa, tarbiyalab, qilmaydigan qil...*

– *Qanaqa qilib? Zooparkdan sher xarid qilib, yuragini qovurib beramanmi? O'zi harakat qilmagandan keyin nima qilasan?*

– *Demoqchisanki, ko'ppak yugurgani bilan tozi bo'lmaydi, shundaymi? Bekor aytibsan. ...sakkiz oy avval o'zing kim eding?!* (“Shinelli yillar”, 40-bet).

O'zining oilaviy ahvoli, imkoniyati, sharoitini e'tiborga olmay, hoy-u havasga beriluvchi, yaxshi yashashni, yaxshi yeyishni, kiyishni va h.k. xohlovchi kishilarga nisbatan ishlatiladi:

1. Uyida chaksa uni yo'q,
Tom boshida qo'sh tandir.
2. Uyimda yo'q kechalik,
Ko'nglim tusar xo'jalik.
3. Unisi yo'q, bunisi,
Kungurador oynasi.
4. O'zi bozorga sig'magan tuya
Qo'shani bilan kirar.
5. Itimning bog'i yo'q,
Yemishi qora charos.
6. Tuya hammomni havas qilar.

7. Yo'qning ko'ngli yo'rg'a tilar.
 8. Bor-yo'g'ini bilmayman,
Bol tilaydi tomog'im.
 9. Cho'lqurbaqaning ko'ngli oqqush go'shtini tusar.
 10. Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga.
 11. Yeyishing – kepak, kiyishing – ipak.
 12. Yeyishing – sholg'om-u, yotishing – Marg'ilonning sirli saroyi.
- Sichqon sig'mas iniga, g'alvir boylar dumiga, deydilar. O'zi kim-u ma'ruzasi nima bo'lardi.* (“Eng gullagan yoshlik chog'imda”, 107-bet).

O'n uch parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Bo'sh-bayov, o'ta muloyim, og'zi bo'sh, kim nima desa o'shaning gapiga kiraveradigan, hech bir qarshilik ko'rsatmaydigan kishilardan odamlar o'z manfaatlari yo'lida osongina foydalanadilar:

1. Yog'ochning bo'shini qurt yeydi.
2. Kana sigimning tuyog'iga tushmaydi, qulog'iga tushadi.
3. Qo'y bo'lmasang, bo'ri seni yemaydi.
4. Daraxtning yumshog'ini qurt yer.
5. Bo'sh kelganni bo'ri bosar.
6. Alvasti ham bo'sh kelganni bosar.
7. Aravaning ham mo'rt joyi qadoqqa kelganda sinadi.
8. Yuvosh tuya yulishga yaxshi.
9. Daraxt sop bermasa, bolta kesolmas.
10. Yog'ochning yumshog'ini qurt yeydi,
Odamning yumshog'ini bit yeydi.
11. Yuvosh otning manglayi qattiq (“Yuvosh otni har kim minib ketaveradi. Manglayi qattiqligining, ya'ni hamma vaqt holdan toyib yuraverishining boisi ham shu yuvoshligidan”, deyilmoqchi)⁵⁷.
12. Yuvosh tanani podachi minadi,
Yuvosh odamni har kim so'zga iladi.
13. O'zing qo'y bo'lganingdan keyin cho'pon haydagan tarafga yurasan.
– *Nega ukangni yig'latasan? – dedi qahr bilan.*
– *Qaysi ukamni?*
– *O'sha ukangni!*
– *Toy-ku! Qanaqasiga ukam bo'lsin? – dedim iljayib.*

⁵⁷ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 121.

– *Shunaqasiga! Nega qiynaysan bola bechorani? Yog'ochning bo'shini qurt yemay o'lsin* (“Nurli dunyo”, 34-bet).

– *Magazin direktorining og'zini moylashga harakat qilganiga hech hayron qolmayman. Yo'q! Kana sigirning qulog'iga tushadi, tuyog'iga emas. Shuncha odam orasida har qaysisi o'zidan xavotir qilmay, bir-birining sirini ochib tashlayotibdi...* (A.Qahhor. “Og'aynilar”, 8-bet)

Biror-bir ishni bajarishda ikkilanib o'tirmay, dadil harakat qilish kerakligi uqtiriladi:

1. O'ychi o'yiga yetguncha,
Tavakkalchi uyiga yetar.
2. Tentak o'ylaguncha,
Tavakkalchi suvdan o'tar.
3. O'ychining o'yi bitguncha,
Tavakkalchining to'yi bitar.
4. O'ychi o'yini aytguncha,
Tavakkalchi niyatiga yetar.
5. Tavakkalning eshagini bo'ri yemas.
6. Tavakkalchining kemasi botmas.
7. Tavakkalni toshga ur,
Baxtingdan ko'r.
8. Tavakkal – nar,
Andisha – moda.
9. Ikkilanish ham – o'lim.
10. Tavakkal – erning yo'ldoshi.
11. O'ychi o'yiga yetguncha,
Tavakkalchi borib kelibdi.
12. O'ychi o'yiga yetguncha,
Tavakkalchi yetti uylanadi.
13. O'ychi o'yiga yetguncha,
O'n yorg'uchoq un tortdim.

– *To'yga balo bormi, buvi, shu zamonda? Xotini o'lgan, bolali kishi bo'lsam, odamlar jirttak chalishadi.*

– *G'arazgo'y odam baribir jirttak chalaveradi. Ularga qarab ish qilaman, desang, choying qaynamaydi. «O'ychi o'ylaguncha, tavakkalchi Buxoroga yetadi». Kimnikiga sovchi yuboray? («Chayon yili», 157-bet).*

Har bir inson moddiy boylik yaratar ekan, ko'pincha, uning eng saralarini sotuvga chiqarib, ba'zi bir nuqsoni yoki kamchiligi bor, ya'ni bozori kasod bo'lganlarini tashlab yuborishga ko'zi qiymay, o'zi uchun

ishlatadi, natijada ishlab chiqarish bilan bog'liq bu jarayon davom etgan sayin shu holat takrorlanaveradi va kishi o'z mehnatining eng yaxshi namunalaridan bahramand bo'lmay qoladi. Ushbu sinonimik qatordagi maqollar shu va shunga o'xshash hollarda ishlatiladi:

1. Kulol mo'ndida suv ichar.
2. Bo'zchi belboqqa yolchimas, temirchi – taqaga.
3. Usta pichoqqa yolchimas, etikdo'z – bigizga.
4. Etikdo'zning etigi yirtiq, temirchining teshasi kemtik.
5. Igna hammaga to'n tikadi-yu, o'zi yalang'och.
6. Charxchi chachvoqqa yolchimas.
7. Bo'zchi ishtonga yolchimas.
8. Ustaning uyi – chil ustun.
9. Yumurtqa keltirganga – yuduruq (yumurtqa – tuxum, yuduruq – musht).
10. Kalla utgan⁵⁸ quloq yer.
11. O'tin yorganning boltasi tashqarida qoladi.
12. Tuya boqqanda aton (aton – axta qilingan tuya) yo'q, Qo'y boqqanga qo'ton yo'q.
13. Yalabdi, yalabdi, o'g'ir dastasini yalabdi.

Kuldon gardishining chuqurchasiga qo'ygan papirosining tamakisi oxirigacha yonib, kul bo'ldi hamki, trubkadan elas-elas mashinkaning chiqillashidan bo'lak ovoz eshitilmasdi. Spu payt kabinet eshigi g'ijirlab ochilib, g'ijiniga tegdi. Bo'zchi belboqqa yolchimaydi deganidek na eshikning oshiq-moshig'ini tuzatishadi, na moylab qo'yishadi. Qo'lida qog'ozlari bilan kirib kelgan Ivan Ivanovichga: "Yur tezroq!" deya ishora qilganida, eshik yana g'ijirladi,.. ("Hazrati inson", 226-bet).

Ko'rqush aydi: "Sening ismingni Kordon qo'yubdurlar – ishni bilib qilsang kerak edi va hech ish bilmas ekansan. Kordon ismining aksini qo'ysalar kerak edi. Movarounnahrda Amir Umarxon tuzgan Urgut, Rabot, Po'shag'urbek, Xayrobod, bulardin shahri Qubod, rashk aylab, Adam sari yuzlandi. Sendek davlatlik orqamda bo'lgan edi, Buxoroning har tumanidan ming chordevorni topib, birdin muhim xayr ishni bitkarur erdim. Sening kordonlig'ing kulol mo'ndida suv ichgandek va yo "Bo'zchi belboqqa yolchimas" degandek bo'ldi ("Zarbulmasal", 42-bet).

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik tashkil etadi:

⁵⁸ Kalla utgan – qo'yning kallasini kuydirib, tukini tozalamoq.

1-ma'no: atrofingdagi kishilar o'zini qanday tutsa, sen ham o'zingni shunday tut, ulardan farqlanib qolma degan ma'noda ishlatiladi.

2-ma'no: zamon hamisha birday turavermaydi, tobora o'saveradi, murakkablashaveradi. Shunday ekan, sen ham o'z biliming, hunaring bilan chegaralanib qolmay, olg'a tomon intilaver, bilimingga bilim, hunaringga hunar qo'shaver, shundagina zamonga bas kela olasan, zamondan ortda qolsang, o'zingga qiyin bo'ladi, deyilmoqchi⁵⁹.

1. Qo'shning ko'r bo'lsa ko'zingni qis,
Cho'loq bo'lsa – lang.
2. Kimning kemasiga tushsang,
Shuning eshgagini esharsan.
3. Zamoning qanday bo'lsa,
Bo'rkingni shunday kiy.
4. Zamoning tulki bo'lsa sen tozi bo'l.
5. Bir ko'zlilar shahriga borsang bir ko'zli bo'l.
6. Uyingni yov talasa sen ham qo'shilib tala.
7. Kimning aravasiga minsang,
O'shaning qo'shig'ini ayt.
8. Kimning yerini yerlasang,
Shuning yirin yirishlaysan (yir – ashula, qo'shiq).
9. Yel qayoqqa essa,
Yelkan shu yoqqa suzadi.
10. Shamol qayoqqa essa,
Qamish shu yoqqa egiladi.
11. Suv qayoqqa oqsa,
Tosh ham shu yoqqa oqadi.
12. Zamon senga boqmasa,
Sen zamonga boq.
13. Zamon senga bo'yin qo'ymasa,
Sen zamonga bo'yin qo'y.

Kolxozda har bir tiyin hisobda, hujjatashtirish o'limdan qiyin. E-ehhh, hamma ishlar bir-biriga xuddi chirmoviqdek ulanib ketganki, qani, bitta uchini topib ko'ring-chi? Topib bo'psiz! Aravasiga tushdingiz – ashulasini ham aytasiz! («Girdob», 362-bet).

⁵⁹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 127.

O'n to'rt maqol qatnashadigan sinonimik uyalar

Bo'ladigan baloga aksariyat hollarda kishining o'zi sababchi bo'ladi: o'zidan jismoniy, moddiy yo mavqeyi jihatidan kuchli bo'lgan, yuqori turadigan odam bilan olishadi, uning jahlini chiqaradi, «jig'i»ga tegadi va h.k., natijada o'z qilg'iligining qurboni bo'ladi:

1. It qutursa egasini qopar.
2. Bo'ri qutursa o'z qavmiga chopar.
3. Sichqonning o'lgisi kelsa mushuk bilan o'ynashar.
4. Echkining orqasi qichisa cho'ponning nonini yeydi.
5. O'lgisi kelgan chivin bolga qo'nar.
6. Parvonaning o'lgisi kelsa sham bilan o'ynashar.
7. Ajali yetgan kiyik adirga qochar.
8. Ilonning o'lgisi kelsa shig'irda yotar.
9. To'rg'ay qutursa burgutga chopar.
10. Eshak semirsa egasini tepar.
11. Ajali yetgan tulki ovchining oldidan chiqar.
12. Mushukning o'lgisi kelsa arslon bilan o'ynashar.
13. Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar.
14. Buqa semirsa egasini suzar.

Zoriy bu safar ham tilini tiymadi:

– *Bo'ri qutursa, o'z qavmiga choparmish,– dedi hammaga eshittirib, – saroydagi duogo'ylarda ham imon qolmadi. Bir tishlam nonga mus'habni sotib yeydi bular! Xon hazratlari bechora Sharifboyni o'limga hukm etganda Nurjon bolaning bachchasiday qiyshanglab turgan bo'luyi kerak betavfiqlar («Avaz», 19-bet).*

– *Endi ishimizga taalluqli bir savol: Asadbekka o'xshaganlar, jinoiy guruhlar nima uchun taltayib ketishdi? Ular oldin pastki qobiqda pisib yurishardi. It qutursa egasini qopadi, deyisharmidi? Ularni nima quturtirdi? («Shaytanat», uchinchi kitob, 56-bet).*

Xalqimiz mehmondo'st, bor-budini unga tutadi, ammo hamma narsada me'yor bo'lgani kabi mehmon bo'lishning ham chek-chegarasi borligi uqtiriladi:

1. Yaxshi mehmon – uch kunlik.
2. Kunda kelgan kul yeydi,
Oyda kelgan moy yeydi.
3. Mehmon avval kuni tilla, ikkinchi kuni nuqra, uchinchi kuni mis, to'rtinchi kuni pes.
4. Qo'noqning kuni – uch,
Uchdan keyin – ko'ch.

5. Yolg'iz mehmon – atoyi xudo,
Otliq mehmon – baloyi xudo.
6. Mehmon kelsa xushdakkina,
Uchib ketsa qushdakkina.
7. Mehmonning otini asl derlar,
Uch kundan keyin sasir derlar.
8. Mehmon nosi uch kundan keyin sasir.
9. O'z izzatini bilgan mehmon yaxshi.
10. Kunda kelgan mehmonning qadri yo'q.
11. Oyda kelganga oyoq tutiladi,
Kunda kelganga tayoq tutiladi.
12. Qo'noq bir kun qo'nsa – qut,
Ikki kun qo'nsa – yut.
13. Mehmon birinchi kuni – oltin,
Ikkinchi kuni – kumush,
Uchinchi kuni – chaqa,
To'rtinchi kuni – baqa.

Mehnat qilmay, jon koyitmay, oson yo'l bilan daromad qilaman, pul topaman degan kishi adashadi, chunki oson ishning, albatta, ohi ham bo'ladi:

1. Mehnati ozning rohati oz.
2. Mehnat qilmay rohat qayda?
3. Mehnat qilmasa bo'ston qayerda,
Bo'stonlar haqida doston qayerda?
4. Betashvish bosh qayda,
Mehnatsiz osh qayda?
5. Oson yerda osh qayda?
6. Oson ishning ohi bor.
7. Mehnatsiz qo'lda – muhabbat qayda?
8. Yer qazimasang, oltin chiqmas,
Qarmoq solmasang – baliq.
9. Ariq qazimasang, otizga (otiz – marza) suv chiqmas.
10. Oyog'ing tap-tap etmasa, og'zing shap-shap etmas.
11. Ter chiqmasa, etak to'lmaydi.
12. Terga botgan – rohatga botar.
13. Tek turmagan – to'q turar.
14. Tinmasang – tinarsan,
Rohat qilib yurarsan.

O'n besh maqol qatnashadigan sinonimik uya

Kishi kishiga yaxshilik qilsa, bir kun undan ham xuddi shunday yaxshilik qaytadi, agarda yomonlik qilsa, albatta, bir kuni yomonlik ko'radi:

1. Nima eksang, shuni o'rasan.
2. Ne eksang, shu ko'karar.
3. Qovoq ekib qovun kutma.
4. Arpa ekib bug'doy kutma.
5. Tikandan tariq unmas.
6. Har kim ekanin o'rar.
7. Tosh qo'ygan tosh olar,
G'isht qo'ygan g'isht olar.
8. O't bergan o'tini olar,
Suv bergan suvini.
9. Nima solsang oshingga,
Shu chiqar qoshig'ingga.
10. Oxurga neni solsang,
Xurmachadan shuni olasan.
11. Ola ekan oz olur,
Rosa ekan soz olur.
12. Tol ekib olma kutma.
13. Bo'z to'qisang bo'z olasan,
Gilam to'qisang gilam olasan.
14. Yaxshilik ekan esonlik o'rar.
15. Arpa ekan arpa olar,
Bug'doy ekan bug'doy.

F a r m o n. Bolajonlarim!

O'g'illalar. Labbay?

F a r m o n. ...Manavi xotinning o'g'ri, muttaham o'g'lini qamoqdan chiqarishimiz kerak ekan. Buning evaziga bu xotin bizga 15 ming so'm berar ekan. 15 ming so'm-a...

A s q a r (telefon trubkasini olib). Ruxsat eting, oyi...

F a r m o n. Qo'y, bolam, qo'y. Endi sizlarga ruxsat. Boringlar! (O'g'illari chiqib ketgach.) Endi, mehmon, bizni kechirasiz. Sizni iltimosingizni bajara olmaymiz. Boshqa iltimos bo'lganda mayli edi. Meni Bashorat kelinim aytganday: «Nima eksangiz, shuni o'rasiz». Endi boring. Sovg'angizni ham olib keting («G'ildirak», 280-bet).

O'n olti maqol qatnashadigan sinonimik uyalar

Oila a'zolari yoxud qarindosh-urug'lardan birortasining boshiga falokat tushsa, qiynalsa, faqat uning o'zigina emas, hammasi: oila a'zolari, qarindoshlar baravar azob chekadi:

1. Besh barmoqning birini tishlasang, bari og'rir.
2. Bag'r og'rig'i kindik to'lg'ar.
3. Ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi.
4. Palagini bossang, qovuni lat yeydi.
5. Singan qo'lning og'irligi bo'yinga tushar.
6. Muguz lat esa, tuyoq zirqirar.
7. Sigirning shoxiga ursang,
Sug'urning tanasi titrar.
8. Otasi achchiq olma yesa,
O'g'lining tishi qamashar.
9. Bir tish og'risa, yonidagi ham og'rir.
10. Ingan ingrasa, bo'ta bo'zlaydi (ingan – urg'ochi tuya).
11. Daraxtning shoxidan tutsang, tanasi egiladi.
12. Jimjiloqqa xasmol chiqsa, bosh og'rimay qolmas.
13. Bola yugursa, keksaning oyog'i zirqirar.
14. Qizi yuk ko'tarsa, onaning beli qayishadi.
15. Toyiga minsang, biyasi: «Belim», deydi.
16. Ustun yiqilsa, ustun zil ketadi.

– *O'sha navbatchilikka boraman, deb ketgan kechalarida bir sir bor, oyi, aytishga betlari chidamayapti, alam qilib yotibdi.*

– *Nimaga alam qiladi, yo'l to'sib, odam o'ldirmagandir-ku? Yo bundan ham katta jinoyat bormi?*

– *Kim biladi. Aytgilari kelmayapti-ku!*

– *Nodon o'g'il, singan qo'lning og'irligi bo'yinga tushishini bilmaydi. O'lib ham ketarman, izimga zor bo'lib yurarsan («Bir kecha fojiasi», 120-bet).*

– *Shoshmang, shoshmang, ini degan og'asining gapidan ranjimaydi. Ko'ngilga og'ir olmang. Begona emasman. Tanasi boshqa dard bilmas deyдилar-u, illo shoxiga urasa, tanasi zirqirashiyam bor. Kindik qonimiz bir joyga to'kilgan, ildizimiz ham bitta («Hazrati inson», 307-bet).*

Farzandlarning fe'l-atvori, xatti-harakati, gap-so'zi xoh ijobiy jihatdan bo'lsin, xoh salbiy jihatdan bo'lsin, ota-onasidan keskin farq qilmaydi, o'xshash yo yaqin bo'ladi. Ya'ni yaxshi kishilarning farzandlari o'zlari singari mo'min-qobil bo'lsa; yomondan tug'ilgan,

yomonlar davrasidan chiqqan odam ming yaxshi bo'lib ketgani bilan, biribir, asli zotiga tortadi:

1. Qush uyasida ko'rganini qiladi.
2. Olma og'ochidan olisga tushmas.
3. Bo'ridan bo'lgan bo'rivachcha bo'ladi.
4. Mushukning bolasi onasiga qarab miyovlaydi.
5. Ilondan – ilon, chayondan – chayon.
6. It yeganini qusar.
7. Urug'ida bo'lsa urvog'iga tatiydi.
8. Qazisan, qartasan, asl zotingga tortasan.
9. Mol egasiga o'xshaydi.
10. Tana buzoqning turqi tuqqaniga tamg'a.
11. Tulpor tubiga tortar.
12. Otdan – ot, eshakdan – eshak.
13. Suvning boshi buloq bo'lsa ham,
Oyog'i quyar dengizga,
Yomondan yaxshi tug'ilsa ham,
Tortmay qolmas negizga.
14. Yomon kulol qo'lidan yaxshi ko'za chiqmaydi.
15. Meva o'z daraxtidan yiroqqa tushmaydi.
16. Palakdan xomak yiroqqa tushmaydi.

– *Aytsam shuki, – dedi bechora ona, – Kumushingizning fe'li atvori o'zimga ma'lum: erka o'sgan, lafzi tez, kundoshlikka chidaydirgan siyoqi yo'q. har kun Zaynabingiz bilan g'idi-bidi qila berib sizni qiynab qo'yarmikin deyman... Bir kuni kelganda onasi qurg'ur bir og'iz aytmagan edi, deb mendan ranjirmikinsiz deyman... Tana buzoqning turqi tuqqaniga tamg'a deganlaridek, albatta, menga ravshan... («O'tgan kunlar», 256-bet).*

Dabdurustdan aytilgan bu gapdan o'zini yo'qotib qo'ygan Mahkam aka g'uldiradi:

Dada dermikan?

– *I-ye, nega demasin. Avval siz o'g'lim deb ko'ring, mehri tovlanadi qo'yadi... Mana, meni aytdi dersiz.*

Koshkiydi.

Axir u sho'rlik ham qayoqqa borsin. Hali aytdim-ku, olma pishib tagiga tushadi, nari ketmaydi («Hazrati inson», 65-bet).

“Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon!...” – Soat daf'atan xayoliga kelgan gapdan ko'nglida

alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi ("Tushda kechgan umrlar", 18-bet).

Quyidagi maqollar ikki ma'nosida sinonimlik hosil qiladi:

1-ma'no: yaxshi deb hisoblangan, nom olgan, tan olingan har qanday kimsa yoki narsaning ham biror juz'iy kamchiligi, nuqsoni, aybi bo'ladi.

2-ma'no: har qanday inson yoshligida turli xil xato, kamchiliklarga yo'l qo'yadi:

1. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi.

2. Har to'kisda bir nuqson.

3. Gul tikansiz bo'lmas.

4. Suruv oqsoqsiz bo'lmas.

5. Shakar pashshasiz bo'lmas.

Arpa – kesaksiz.

6. Go'sht suyaksiz bo'lmas,

Sholi – kurmaksiz.

7. Loysiz suv, qurbaqasiz ko'l bo'lmas.

8. Qanoti butun shunqor yo'q,

Tuyog'i butun tulpor yo'q.

9. Oyda ham dog' bor.

10. Ignaning chizig'i bor, ipning uzug'i bor.

11. Olmurutning sopi bor, uzumning cho'pi bor.

12. O't tutunsiz bo'lmas,

Yigit yoziqsiz (yoziq – gunoh) bo'lmas.

13. Xo'tikligida diringlaydi,

Eshak bo'lganda qulog'i shalpayadi.

14. Toy qoqilmay yo'l tanimas.

15. Tikansiz gul bo'lmas,

Og'usiz – bol.

16. Bol bor yerda – ari bor.

Ilhom Rajabovich yana uch-to'rt daqiqa mudirning yaxshi xususiyatlari haqida fikr yuritdi. Lekin kutilmaganda uning salbiy tomonlarini ham tilga olsa bo'ladimi...

– *Albatta, guruch kurmaksiz bo'lmaydi,* – deya gapini davom ettirdi u. – *Shu jihatdan olib qaraganda Nozil Hamdamovichning tuzatsa bo'ladigan ikkita kamchiligi bor* («Oq boshli ilon», 39-bet).

O'n yetti parema qatnashadigan sinonimik uya

Er bilan xotinning, qudalarning, do'stlarning va h.k. qarashlari, xarakter-xususiyatlari har jihatdan bir-biriga mos tushsa, ya'ni ularning ikkalasi ham xushfe'l, xushmuomala, saxiy yo baxil, ochko'z, urishqoq, ichi tor, g'iybatchi, g'arazgo'y va h.k. bo'lsa, shu maqollar istehzo bilan aytiladi:

1. O'xshatmasdan uchratmas.
2. Pes pesni qorong'ida topar.
3. Ko'r ko'r bilan kechasi topishadi.
4. Ikki yalang'och hammomda topishar.
5. So'qir otga qo'tir ot uyur.
6. Pesning chekiga moxov tushibdi.
7. O'g'ri o'g'riga xolavachcha.
8. Ikki qirchang'i bir to'qayda topishar.
9. Hoji hoji bilan Makkada topishar.
10. O'g'ri o'g'ri bilan qorong'i kechada topishadi.
11. Teng etmay duch etmas.
12. Shum shumni namozshomda topadi.
13. It oydinda topishar.
14. Qo'rqqoq qo'rqqoqqa o'rtoq.
15. Tulki, qarsoq ini bir,
G'ar-o'g'rining tili bir.
16. O'g'rining xotini o'ziga loyiq.
17. Ikki mirzo bozorda yo'liqadi,
Ikki mulla mozorda yo'liqadi.

– *Tunov kuni kelgan Ali Naimxon kim? U qayoqdan Gitler bilan til topib olibdi?*

– *Pes pes bilan qorong'ida topishar, degan maqol bor-ku, xuddi shuning o'zi. Bir mahal Germaniyaga o'qishga kelib, qolib ketgan savdogar bolasi, vatanfurush («Oltin zanglamas», 365-bet).*

Ko'r ko'r bilan kechasi topishadi deganday, qo'shmachining eri ham o'ziga mos, pakana, jikkak, dam qurvaqaga, dam quyonga o'xshab ketadigan bir kimsa edi («Uyg'oq kunlar», 101-bet).

– *Jadidlarning dushmani bo'lgan bosmachilar dunyo jadidlarining boshlig'i hisoblangan Anvarposhsho bilan qanday qilib birlashadi?*

– *O'g'ri o'g'rini qorong'uda topadi, deganlar («Doxunda», 358-bet).*

O'n to'qqiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar

1-ma'no: birovdan biror manfaat ko'rmoq uchun uni ham biror nima bilan manfaatdor qilish, kiringa erishmoq uchun chiqimdan qochmaslik kerak bo'ladi. Aks holda maqsadga erishish amri mahol, degan ma'noda aytiladi.

2-ma'no: "Sizdan ugina, bizdan bugina" qabilida ish ko'ruvchi, arzimagan xizmati uchun ham birovdan bir nima tama qiluvchi poraxo'r, tamagir kishilarga nisbatan kinoya tarzida ishlatiladi.

3-ma'no: tamagir odamning o'zi ham xizmati evaziga bir nima berilishi lozimligini bildirmoq niyatida mazkur maqolni aytib, maqsadini ochiqdan-ochiq tushuntirmoqchi bo'ladi:

1. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.
2. Nasiyaga maymun o'ynamaydi.
3. Quruq qo'lga qush qo'nmas.
4. Quruq nafas naydan navo chiqarmas.
5. Quruq gap quloqqa yoqmas.
6. Quruq qoshiq og'iz yirtar.
7. Quruq suyakni it ham g'ajimaydi.
8. Quruq so'z bosh og'ritar,
Yoriq qoshiq og'iz yirtar.
9. Ko'k yog'och egilmas.
10. Quruq tovoqqa fotiha yurmas.
11. Quruq supraga duo yo'q.
12. Bermasning oshi pishmas.
13. Moylanmagan arava yurmaydi.
14. Moysiz arava o'q yer.
15. Tangrining behishtiga ham quruq kirib bo'lmaydi.
16. Oshi yo'q uyni it ham suymaydi.
17. Quruq daraxtga maymun ham chiqmaydi.
18. Quruq yog'ochga yaproq bitmas.
19. Qo'l bilan qush tutilmas.

Mushuk bekorga oftobga chiqmaydi, degan gap bor. Ko'pchilik bu dunyoda o'z manfaatini o'ylamay bir ish qilmaydi. Men unday takliflarga qarasam, bu yerda o'tirmasdim («Egilgan bosh», 109-bet).

Noibga ham biron narsa...

Albatta, "moylanmagan arava yurmaydi", deganlaridek, ikki yuz tanga bilan u kishining tomog'ini ham moyladim ("Sudxo'ring o'limi", 82-bet).

Yigirma parema qatnashadigan sinonimik uya

Hali biror ishni boshlamay turib yoxud bir ishga endigina qo'l urib maqtanuvchi kishilarga nisbatan: "Shoshmang, ish bitgandan keyin, hammasi joyiga tushgandan so'ng gapiring-da", degan ma'noda ishlatiladi:

1. Podadan oldin chang chiqarma.
2. Tug'ilmagan bolaga oldindan yo'rgak bichish yaramaydi.
3. Jo'jani kuzda sanaydilar.
4. Chuchvarani pishirib sana, jo'jani ochirib.
5. Soyaga qarab to'n bichma.
6. Tug'ilmagan bolaning tishini sanama.
7. Tug'ilmagan bolaga oltin beshik.
8. Ekilmagan ekinning ustidan pul olma.
9. Olinmagan buzoqqa qoziq qoqma.
10. To'ydan ilgari nog'ora qoqma.
11. Xamir qilmasdan burun tandirga o't yoqma.
12. Chiqmagan oftobga isinma.
13. G'alvirmi suvdan ko'targanda ko'r.
14. Sirot kechmay, qah-qah kulma.
15. Suvdan ilgari bo'g'ot solma.
16. Tug'ilmagan toyga – temir ing'irchoq.
17. Suv ko'rmay, etik yechma.
18. Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq.
19. Tug'ilmagan buzoqqa oxur solma.
20. Puli yo'q hamyon tikar.

Bolasi yo'q – beshik tuzar.

– *Natija chiqishi kerak, Muhiddin Jabborovich, – dedi. – Tug'ilmagan bolaga oldindan yo'rgak bichish yaramaydi-yu, ammo natija chiqishi kerak... yana kamida ikki-uch chatishtiruvdan keyin... («Girdob», 38-bet).*

– *Xo'p, istaganingni qilaver! Jo'jani kuzda sanaymiz, bu ishlardan topgan foydalarigizni ko'ramiz («Doxunda», 436-bet).*

Odam o'ldirish qo'limdan kelmaydi, dedim. U indamadi. Yer chizib o'tirdi. Keyin betimga afsuslangandek qaradi. – Shundaqami? Chuchvarani xom sanabsan, Azizni sen o'ldirasan. Agar uni o'ldirmasang, seni o'zim o'ldiraman («Ufq», 211-bet).

«Podadan oldin chang ko'tarma, g'unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo'yibdi senga, – debdi. – Mana, jiyaning ham

hovliqib borib, bo'shshib qaytdi, kerak paytida o'zlari topib olarmish», debdi («Ikki eshik orasi», 92-bet).

Kambag'allik, faqirlik, yo'qsillik, qashshoqlik kishining imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Buning ustiga har qanday falokat ham kelib shunday odamlarga yopishadi:

1. Kambag'alni tuya ustida it qopar.
2. Kambag'alning yolg'iz qo'zisiga qashqir tegar.
3. Kambag'alning ovi yurmas,

Ovi yursa, dovi yurmas.

4. Kambag'alning osh ustida burni qonar.
5. Kambag'alning og'zi oshga yetganda,
Boshi toshga tegar.
6. Oriq otga cho'p ilashar.
7. Oriq otga chang yuqar.
8. Qashshoq osh topgan kuni og'zi kuyar.
9. Bechoraning ho'kizi o'lsa, pichoq topilmas.
10. Kambag'al yer topsa, urug' topmaydi.
11. Kambag'alga bola bersa, otini joyicha qo'yadi.
12. Kambag'al tuxum topsa, ichidan sarig'in topmas.
13. Yarlning yolg'iz oti qochag'on (yarli – kambag'al, yo'qsil).
14. Sho'rlikning yeriga sho'ra chiqadi.
15. Sho'rlikka yo'l o'yilur.
16. Sho'rlining oti kunda chopuvli.
17. Sho'rlining qovuni oq bo'ladi,
Pishaman deguncha yo'q bo'ladi.
18. Kambag'alning chiqig'i qo'g'irmoch sochadi.
19. Kambag'al bozor borsa, devor tagi uniki.
20. Boyga balo urmaydi, kambag'alni qutqar.

...Shunaqa muttahamlar kambag'al qizlarni oltin qafaslarga tushiradi, boylarning nafsig qurbon qiladi...

Ismi nima ekan qizning, bilolmadingizmi? – so'radi jur'atsizgina...

Otini bilolmadim, ... Eshitishimga qaraganda, dukchi chol bor-ku, shuning qizi emish.

Umarali go'yo yuragida bir narsa uzilganday, .. jim qotdi...

Shunday, do'stim, yomonlar ko'p, kambag'alni tuyaning ustida it qopadi («Ulug' yo'l», 184-bet).

Yigirma bir parema qatnashadigan sinonimik uyalar

O'zbek xalqi mehmonni atoyi xudo deb biladi, unga hamma vaqt izzat-ikrom ko'rsatishga, uyining to'ridan joy berishga, hurmatini o'miga qo'yishga, ko'nglini topishga harakat qiladi; o'zi yemasa ham mehmoniga ilinadi:

1. Mehmon otangdan ulug'.
2. Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan yonadi.
3. Qo'noq kelsa qut kelar.
4. Qo'noq qo'noqdan ulug'.
5. Odam bor joyga odam keladi.
6. Mehmon – aziz, mezbbon – laziz.
7. Jon tanga mehmon,
Inson – insonga.
8. O'zi kelgan mehmon – mezbbonning izzati.
9. Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin.
10. Ko'ngling keng bo'lsa hujra ham saroyday.
11. Mehmonga ko'ngling qo'rini ber, uyning to'rini ber.
12. Mehmon joyi – ko'z ustida.
13. Mehmon izzatda,
Mezbbon xizmatda.
14. Ovulga kelganni it qopmas.
15. Mehmonni hatto it ham qopmaydi.
16. Osh-tovog'ing kerak emas,
Qosh-qovog'ing kerak.
17. Mehmon osh deb kelmas.
18. Mehmon o'z rizqi bilan keladi.
19. Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.
20. Yo'xcha guruch osh bo'lur,
Mehmon ko'ngli xush bo'lur.
21. Mehmon – atoyi xudo.

Indamay jim yuruvchi kishilardan kutilmaganda bir narsa chiqib qoladi, demak, bundaylardan ko'p narsani kutsa bo'ladi. Shuning uchun bu toifa kishilarga nisbatan befarq bo'lmaslik kerak, degan g'oya yotadi:

1. Indamasdan ish chiqar.
2. Yuvosh otning tepkisi qattiq bo'ladi.
3. O'tmas pichoq qo'l kesar.

4. Yuvosh mushuk qattiq timdalar.
5. Qopag'on it tishini ko'rsatmaydi.
6. Jim oqar suv to'g'on buzar.
7. Indamagan it qopar.
8. Yuvoshning muguzi ichida.
9. Tinch oqar suv g'arq qilar.
10. Sekin yoqqan yomg'irdan qo'rq.
11. Yorishib yoqqan havodan qo'rq.
12. Zaharli ilonning terisi yumshoq.
13. Suvning tiniq oqqanidan qo'rq.
14. Yuvosh it hurmay tishlar.
15. Yuvoshdan yo'g'on chiqar.
16. Yer boqardan yer qo'rqar.
17. Suvning sekin oqqanidan qo'rq,
Odamning yerga boqqanidan qo'rq.
18. Pismiqlik farq qilar,
Tinch oqqan suv g'arq qilar.
19. Pismiqdan yo'g'on chiqar.
20. Sekin yoqqan yomg'irdan qo'rq,
Kulib boqqan hokimdan qo'rq.
21. Hamma gap pismiqdan chiqadi.

Muhiddin Jabborovichning peshonasi tirishib ketdi. Ichida Azizni so'kdi. «Ayrim g'anamlar». Bu nima degani?! Yuvosh otning tepkisi qattiq bo'ladi, deyishardi («Girdob», 106-bet).

*U hech kutmaganda brigadir tutaqib, jahldanmi, qip-qizarib ketdi.
– Indamasdan ish chiqar, deb shuni aytadi-da!*

Seni deputatlikdan olib tashlamoqchi bo'lganida, qo'ying, rais buva, odamzod tekis yo'lda ham qoqilaveradi, degan, yoningni olgan men! – brigadir qo'lidagi chiviqni chang bosgan etigiga shart-shurt urgancha shahd bilan o'rnidan turdi-yu nari ketdi («Sen uchun yonib», 280-bet).

Yigirma ikki parema qatnashadigan sinonimik uya

Ushbu maqollar qo'rqoq kishilarga nisbatan kinoyali istehzo ma'nosida qo'llanadi:

1. Qo'rqoqqa qo'y boshi qo'sh ko'rinar,
Qo'shmog'i bilan besh ko'rinar.
2. Qo'rqoqqa ko'lankasi – Azroil.
3. Qo'rqoq ot o'z soyasidan hurkar.

4. Qo'rqoqqa ip ilon bo'lib ko'rinar.
 5. Qo'rqoqning qoni chiqqani – joni chiqqani.
 6. Qo'rqoqqa sichqon fil ko'rinar.
 7. "Qo'rqmas" kelin qo'y boshidan qo'rqar.
 8. Sichqonga mushuk – arslon.
 9. Quyon o'z ko'lankasidan ham qo'rqadi.
 10. Bir qo'rqan quyonning qirq kungacha rangi kirmaydi.
 11. Ko'kdagi tuma "turr..." etsa,
Ko'ldagi g'oz "pirr..." etadi.
 12. Chumchuq "pirr..." etsa,
Qo'rqoq yuragi "shir" etadi.
 13. Qo'rqoq ko'zidan ma'lum.
 14. Qo'rqoqning ko'zi to'rta.
 15. Qo'rqoq itning quyrug'i qisiq.
 16. Qo'rqoqning ko'zi katta,
Ahmoqning so'zi katta.
 17. Qo'rqoq, qo'rqoqning oyog'i cho'loq.
 18. Qo'rqoq o'lmasdan burun o'ladi.
 19. Qorg'ili (qorg'i – it bo'yniga bog'lanadigan qayish, bo'yinbog') it
ovga yaramas,
Yuragi yo'q yovga yaramas.
 20. Quyon qo'rqmaydi, o'zini saqlaydi.
 21. Yalingan qo'rqoq emas,
Yoqalashgan – qo'rqoq.
 22. Qo'rqoqqa o'r ham tor,
Qir ham tor.
- *Aka, siz ajinani ko'rganmisiz?*
– *Ko'rmaganman. Yo'q narsani qanday ko'rib bo'ladi? Qo'rqma, qo'rqqanga qo'sha ko'rinar, deganlar...* («Intizor», 120-bet).

Yigirma uch parema qatnashadigan sinonimik uya

Aytmoqchi bo'lgan har bir gapingni, bajarmoqchi bo'lgan har bir ishingni obdon o'ylab, puxta rejalashtirib, so'ng amalga oshirgin. Aks holda pushaymon bo'lib qolishing mumkin:

1. Avval o'yla, keyin so'yla.
2. O'ylamaguncha so'ylama.

3. O'n qatim⁶⁰ o'yla, bir qatim so'yla.
4. Dilda pishir, tilda gapir.
5. O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir.
6. O'ylanmagan joydan tulki chiqar,
O'ylanmagan so'zdan kulgi chiqar.
7. Anglamay aytgan tinglamay o'lar,
Chaynamay yutgan kavshanmay o'lar.
8. Yetti o'lchab bir kes.
9. Sanamay sakkiz dema.
O'ylamay o'ttiz dema.
10. Tez so'zlagan tez pushmon bo'lar.
11. Sanamay sakkiz dema,
Sanab ko'rgan emassan.
Men bilaman dema,
Sinab ko'rgan emassan.
12. Aytilgan so'z – otilgan o'q.
13. Og'izdan chiqqan so'z qaytmas.
14. Gap egasi bilan yurmaydi.
15. Aytgan so'zni ichkari yutmoq bo'lmas.
16. So'z chumchuq emas, og'izdan chiqsa tutib bo'lmas.
17. Puf desang, og'zingdan chiqadi-ketadi, oqibatini o'yla.
18. So'zlaganing kumush bo'lsa, tek turganing – oltin.
19. Saqlangan so'z – sof oltin.
20. Aytilgan so'z – xo'jayining,
Aytilmagan so'z – xizmatkoring.
21. Aytmasdan burun so'zga sen ega,
Aytgandan so'ng senga so'z ega.
22. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.
23. Arzimagan gap og'izda qolsin.

Yigirma to'rt parema qatnashadigan sinonimik uya

Yakka-yolg'iz, ko'pchilikdan ajralib yashash yomon oqibatlarga olib keladi: ko'pning fikriga noo'rin qarshi chiqqan, ularning kuchini nazar-pisand qilmagan, to'pdan ayrilgan, yakka bo'lib qolgan kishi kuchsiz

⁶⁰ Qatim – ignaga bir marta o'tkazilib ish tikishga yetadigan, tikilayotgan ish bilan quloch qilib yozilgan qo'lning uchi orasidagi masofaga teng ip. (Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 5).

bo'ladi va tez yengiladi, o'z maqsadiga erisholmaydi; ko'p bilan olishgan kishining o'zi ziyonga qoladi:

1. Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni – ayiq.
2. Suruvdan qolgan surilib o'lar.
3. To'zgan g'oz bir to'p qarg'aga yem bo'lar.
4. To'dadan ajralgan to'rga tushar.
5. Ayrilgan yo'lda qolar,
Bo'lingan – do'lda.
6. Xalqqa suyansang – to'lasan,
Xalqdan chiqsang – so'lasan.
7. Xalqni degan – bo'lar,
Yakka qolgan – o'lar.
8. Erdan ayrilsang ham eldan ayrilma.
9. Eldan qolguncha erdan qolgan yaxshiroq.
10. Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.
11. Yomonlasang teng-to'shing,
Mushkullashar oson ishing.
12. Ko'pni so'kkan ko'karmas.
13. Ko'pga kesak otma.
14. To'pga qarab tosh otma.
15. Teginmagil ko'pga,
Ko'p ag'anatar cho'pga.
16. Ko'p o'tar ko'prigin buzma.
17. Ko'p ko'payadi, oz cho'kadi.
18. Ayrilmagin elingdan,
Quvvat ketar belingdan.
19. To'dadan ayrilgan qo'yni bo'ri yutar.
20. To'pdan ayrilganni qaroqchi sanchar.
21. Yurtdan ayrilganni yov chopadi.
22. Ayrilgan ozar, birlashgan o'zar.
23. Qatordan qolding – xatarda qolding.
24. Qo'radan ayrilgan qo'yni bo'ri yutar.

N a s i b a. ...Tushimmi, o'ngimmi?.. Qanaqa joyga tushib qoldim, qanaqa odamlar orasiga kirib qoldim? Maktabimdan, o'rtoqlarimdan ayrilib topganim shu bo'ldimi!..

Z u h r a. Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer degan gap bor. Esing kiripti – yaxshi! («Ayajonlarim», 108-bet).

Yigirma yetti parema qatnashadigan sinonimik uya

Hech bir foydasi tegmaydigan dabdabali narsa yoki hodisalardan kamsuqumgina bo'lsa-da, bir nafi teguvchi, ya'ni naqdning nasiyadan afzal ekanligi uqtiriladi:

1. Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka afzal.
2. Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi.
3. Nasiya sariyog'dan naqd o'pka yaxshi.
4. Nasiya tilladan naqd chaqa yaxshi.
5. Pishmagan oshdan xom oshqovoq yaxshi.
6. Ertagi dumba moydan bugungi shalhaq yaxshi.
7. Befoyda kundadan o'tin yaxshi.
8. Nasiya qaymoqdan naqd qatiq yaxshi.
9. Olisdagi otdan yaqindagi eshak afzal.
10. Uzoqning palovidan yaqinning sho'rvasi yaxshi.
11. Totilmagan bo'zadan miriqib ichgan go'ja yaxshi.
12. Uzoqning uzunidan yaqinning kaltasi yaxshi.
13. Uzoqning qozisi bo'lguncha yaqinning tozisi bo'l.
14. Qachongi tovuqdan hozirgi tuxum yaxshi.
15. Bugungi tovuq ertangi g'ozdan yaxshi.
16. Ko'kdagi turnadan ko'ldagi chumchuq yaxshi.
17. Osmondagi shunqordan ko'ldagi turumtoy yaxshi.
18. Qachongi qizil palovdan hozirgi kuyun kulcha yaxshi.
19. Qor ostidagi dondan yer ustidagi somon yaxshi.
20. Kechning xazinasidan ertaning nasibasi yaxshi.
21. U dunyoning huridan o'zimizning xo'rimiz yaxshi.
22. Uydagi tovuq osmondagi o'rdakdan ortiq.
23. Olisning oti o'zguncha, yaqinning toyi o'zsin.
24. Eldoshingning oti o'zguncha,
Qo'radoshingning iti o'zsin.
25. Otalash⁶¹ning oti o'zguncha,
Ovuldoshning toyi o'zsin.
26. Olisdagining oti o'zguncha,
Qo'radoshingning qo'yi o'zsin.
27. Yo'q tovuqdan bor tuxum yaxshi.

Birontasi qizning miyasini chalg'itib, uylanib olsa, tamom, hamma niyatlar barbod bo'ladi. Urush-urush-da, eson-omon qaytib kelaman,

⁶¹ Bir otadan, ammo boshqa-boshqa onadan tug'ilgan bolalar bir-biriga "otalash" hisoblanadi.

deb kim kafolat bera oladi? «Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka afzal» qabilida ish tutsa, vassalom («Chayon yili», 149-bet).

Kordon aydi: «Sen ilgari o'tgan odamlarning kirdorin qilmassan... Holo sen hozirni ko'rgil. Masaldurki: «Bugungi naqd o'pka ertagi quyruqdin yaxshidur» («Zarbulmasal», 35-bet).

Yigirma sakkiz parema qatnashadigan sinonimik uya

Yakka yolg'iz yashash hamisha yomon oqibatlarga olib keladi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Yolg'iz otning changi chiqsa ham dong'i chiqmas.

2. Yolg'iz daraxt bog' bo'lmaydi.

3. Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas.

4. Yakka o'tin yolvorsang ham yonmas.

5. Yolg'iz qo'ldan tovush chiqmas.

6. Yolg'iz g'oz sayramas.

7. Yolg'iz yog'och pana bo'lmas,
Yolg'iz biyaga sava⁶² to'lmas.

8. Yolg'iz uyda qozon qaynamas.

9. Moshning o'zi osh bo'lmas.

10. Yolg'iz yigit alp bo'lar,
Alp⁶³ bo'lsa ham qalb⁶⁴ bo'lar.

11. Yolg'iz yigit yov olmas.

12. Yolg'iz botir – yovga yo'q,
Yolg'iz yigit – dovga yo'q.

13. Yayovning changi chiqmas,
Yolg'izning mungi⁶⁵ chiqmas.

14. Yolg'iz qarg'aning uni chiqmas.

15. Yolg'iz uyning tomog'i yetsa ham, tovog'i yetmas.

16. Yolg'iz yog'och uy bo'lmas.

17. Yakka yog'och bilan uy bo'lmas,
Yakka odam bilan to'y bo'lmas.

18. Yolg'iz qo'yning terisi po'stin bo'lmas.

19. Yolg'iz itning hurgani bilinmas,
Yolg'iz kishining yurgani bilinmas.

⁶² Sava – mol terisidan yasaladigan, qimiz achitiladigan idish, meshning kattasi.

⁶³ Alp – botir, pahlavon.

⁶⁴ Qalb – chinakam, rostmana emas.

⁶⁵ Mung – yig'i, qayg'u, g'am, alam.

20. Yolg'izga – yo'l uzoq.
21. Yolg'iz kishi – yorti kishi.
22. Yolg'iz yurib yo'l topgandan – ko'p bilan adashgan yaxshi.
23. Adashsang ham el bilan adash.
24. Bir o'zing dono bo'lguncha,
Ko'p bilan devona bo'l.
25. Harna g'avg'o kelsa – ko'plikdan kelar,
Ranj-u mehnat yakka, yo'qlikdan kelar.
26. Yolg'iz o'g'il yovdan qattiq,
Xotini qalmoqdan qattiq.
27. Yolg'iz bola – boshga balo.
28. Yolg'iz qo'yni haydashdan xudo saqlasin.

– *Bilmadim... o'zlarini baxtsiz odamlarga solishtirib, «toleyim bularnikidan baland» deb quvonadigan kishilar... «Yanaqa bo'larkin? Men atrofimdagilarning baxtsizligini ko'rsam, o'zimning baxtim ham ko'zimga omonat ko'rinib ketadi. «Yolg'iz daraxt bog' bo'lmaydi», degan gap esimga tushadi. Xavotirlanaman... («Qora ko'zlar», 175-bet).*

O'ttiz parema qatnashadigan sinonimik uya

Me'yordan ortiq gap kishini zeriktiradi, fikr anglashilmay qoladi, so'zlovchining obro'yiga esa putur yetkazadi. Shuning uchun otobobolarimiz hamma vaqt sergaplikni qoralab, kamgap bo'lishga da'vat qilib kelishgan:

1. Ko'p gap eshakka yuk.
2. Ko'p qidirgan⁶⁶ kezma bo'lar,
Ko'p gapirgan ezma bo'lar.
3. Dars mushkul bo'lsa – mudroq bosar,
So'z uzun bo'lsa – esnoq bosar.
4. Uzun so'zni uqib bo'lmas,
Uzun qiya (tepalik)ni yiqib bo'lmas.
5. Tilning uzuni dallolga kerak.
6. Ko'p yomg'ir yerni buzar,
Ko'p so'z emi buzar.
7. Ortiqcha tuz oshni buzar,
Ortiqcha so'z boshni uzar.
8. Ko'p gapirgan ko'p yanglishar.

⁶⁶ Qidirmoq – yurmoq, kezmoq, safar qilmoq.

9. Ko'p yurgan – ozar,
Ko'p gapirgan yozar⁶⁷.
10. Gap tarozi bosmas.
11. Yo'lning ham me'yori bor,
So'zning ham miqdori bor.
12. Evi bilan so'zlaganning qurboni bo'l.
13. Kamgaplik – donolik,
Sergaplik – nodonlik.
14. Arg'umoqning belgisi – oz o'tlab, ko'p yuvshar (yuvshamoq –
kavshamoq),
Azamatning belgisi – oz so'zlab, ko'p tingshar (tingshamoq –
tinlamoq).
15. Yigit guldir, ko'p yig'inda o'ltirib oz so'zlasa,
Yigit shumdir, oz yig'inda o'ltirib ko'p so'zlasa.
16. Ko'p so'zning ozi yaxshi,
Oz so'zning o'zi yaxshi.
17. Ko'p so'z – kumush,
Oz so'z – oltin.
18. Oz so'z – soz so'z.
19. O'n o'yla, bir so'yla.
20. Ko'p gapirma, oz gapir,
Oz bo'lsa ham soz gapir.
21. Gapning qisqasi yaxshi,
Qisqasidan hissasi yaxshi.
22. Ipning uzuni yaxshi,
Gapning – qisqasi.
23. Asalning ozi yaxshi,
So'zning sozi yaxshi.
24. Shakarning ozi shirin.
25. Oz so'zlining ko'ngli – yoz.
26. So'zing mo'tabar bo'lsa ham muxtasar qil.
27. Sihat tilasang ko'p yema,
Izzat tilasang ko'p dema.
28. Ezma bo'lsang ish yo'qotasan.
29. Sergap bo'lsang hurmating ketar.
30. Ko'p so'ylagan ko'pdan ayrilar.

⁶⁷ Yozar – ozmoq, yo'ldan adashmoq, yanglishmoq.

O'ttiz besh parema qatnashadigan sinonimik uya

Har qancha harakat qilmang, tirishmang, yomon odam o'zining yaramas, yoqimsiz, beo'xshov qiliqlarini, odatini tashlamaydi, tashlay olmaydi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Tarki odat amri mahol.
2. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas.
3. Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi.
4. Bukrini go'r tuzatar.
5. Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi.
6. Beshikda tekkan kafanda ketar.
7. Qorindagi qiliq qora yerda qolar.
8. Ho'kiz o'lsa ham ko'zining olaligi qolmas.
9. Ilon o'lsa ham zahri tishida qolar.
10. Yo'rgakda tekkan kasal o'lganda ham ketmaydi.
11. Sut bilan kirgan mijoz –
Suyak bilan birga ketar.
12. Eshak baxshi bo'lmas,
Yomon yaxshi bo'lmas.
13. Eshakka atlas to'qim ursang ham – baribir eshak.
14. Ilon po'stini tashlasa ham qilig'ini tashlamas.
15. Yomon hargiz yaxshi bo'lmas,
Qorani yuvsang oq bo'lmas.
16. Qora kigiz yuvgan bilan oqarmas.
17. Suvni ming qaynatsang ham quyulmas.
18. Yantoqdan yog' chiqmas,
Jangaldan – bog'.
19. Bir tup jangalni ming yil boqsang ham bog'i-chorbog' bo'lmaydi.
20. Bir sinagan yomonni yana qayta sinama,
Yurmaydigan chaman⁶⁸ni yurgizmoqqa qiynama.

⁶⁸ Chaman – o'zi xohlasa yuradigan, xohlamasa yurmaydigan yalqov ot.

21. Egri bitgan daraxt to'g'ri o'smas.
22. Eshakni urgan bilan ot bo'lmas.
23. Eshak Makkaga borib halol bo'lmas.
24. Kuchuk boqsang it bo'lur,
Xo'tik boqsang – eshak.
25. It har qancha o'rgatilgani bilan itligicha qoladi.
26. Ola it oqqa bo'yalsa ham itligicha qoladi.
27. Yaxshining yomon bo'lishi oson,
Yomonning yaxshi bo'lishi qiyin.
28. Tagida bo'lmagan odamga ming qilsang ham nam
o'tkazolmaysan.
29. Qobilga tarbiyat qilmoq – aybdir,
Noqobilga tarbiyat qilmoq – hayfdir.
30. Bo'limsizdan ulgi⁶⁹ chiqmas,
Ko'ngilsizdan kulgi chiqmas.
31. Yomon odam to'yimas,
Yomonligin qo'yimas.
32. Zamon tuzalar,
Yomon tuzalmas.
33. Sho'r to'ngmas⁷⁰,
Ahmoq o'ngmas.
34. Yomonni o'lipti desa – ishon,
Yomonligini qo'yipti desa – ishonma.
35. Arining qanoti kuysa ham, nishi qoladi.

– ...”*Shu pakanangning turqi sovuq, o'zingdan uzoqlat!*” deb aytuvdim-a?

– *Vaqtida menga kerak edi. Yordami ko'p tekkan. Endi zamon o'zgardi, lekin u o'zgarmayapti. Zamonga qarab ish yuritmaydi.*

– *O'shaning o'zgararkanmi? Bukrini go'r to'g'rileydi* (“Shaytanat», uchinchi kitob, 359-bet).

⁶⁹ Ulgi – boshqalar havas qiladigan, taqlid qiladigan harakat, o'mak, namuna.

⁷⁰ To'ngmas – muzlamas.

...ular *“Ho‘kiz o‘lsa ham, ko‘zining olasi yo‘qolmaydi”* deganday, bir kun o‘zi bizning mol-mulkimizni taroj qilar deb qo‘rqadilar (*“Doxunda”*, 322-bet).

Qirq parema qatnashadigan sinonimik uya

Yalqov, dangasa, ishyoqmas, erinchoq kishiga har qanday ish, vazifa mushkul, og‘ir tuyuladi; jonini koyitmaslik uchun turli xil bahonalar to‘qib chiqaradi; ishni, vazifani paysalga solishga, cho‘zishga, bajarmaslikka harakat qiladi; o‘zini bo‘lmag‘ur ishlar bilan band qiladi:

1. Gap desang qop-qop, ish desang Olatog‘dan top.
2. Yalqovning yovi – yumush.
3. Yalqovga bulut soyasi ham yuk.
4. Dangasaga ostona tepa bo‘lib tuyuladi.
5. O‘tloqda bedana ko‘p,
Dangasada bahona.
6. Shotining pog‘onasi ko‘p,
Yalqovning bahonasi ko‘p.
7. Ishyoqmasga ich og‘rig‘i – bahona.
8. O‘roqchining yomoni o‘roq tanlar.
9. Ishyoqmas mardikor ketmon tanlar.
10. Yomon kosib bigiz tanlar.
11. Tuyaqushga “uch” desalar, “men tuyaman” debdi, “bo‘lmasa yuk ko‘tar” desalar, “men qushman” debdi.
12. Yalqov xotinga bolasi borligi – bahona.
13. Erinchak eshikka chiqsa ot yollaydi.
14. Erinchoqning do‘ppisi yerga tushsa, pul berib oldiradi.
15. Yalqovning qo‘li qo‘ynidan chiqmas.
16. Yalqov yotib buyurar.
17. Yalqov o‘tirgan yerida o‘tin yoradi.
18. Qo‘li bilan qovg‘a yulmagan – og‘zi bilan o‘roq o‘radi.
19. Yalqov yotolmaydi, yotsa turolmaydi.

20. Erinchak irg'anib turguncha, sigir sakkiz to'yib, ho'kiz to'qqiz to'yadi.
21. Erinchakning ertasi ko'p.
22. Dangasaning gapidan bol tomadi.
23. Gap desang qop-qop, ish desang betob.
24. Dangasaga ish buyursang, otang bermagan maslahatni beradi.
25. Ishi yo'q it sug'orar.
26. Ishi yo'q ish topar, ishton solib bit boqar.
27. Ishlining ishi bitar, ishsizning kuni o'tar.
28. Ishi yo'q chivin tutar.
29. Ishi yo'q eshak hurkitar.
30. Ermagi yo'q enasinikida sigir sog'ar.
31. Erinchak, erinchakka otasining soqoli – o'yinchoq.
32. Ishchan kelsa ish bitar,
Yalqov kelsa ish yitar.
33. Ishchan yerni yashnatar,
Yalqov yerni qaqshatar.
34. Ot bo'lsang-u, kishnamasang,
Odam bo'lsang-u, ishlamasang.
36. Ishchan tilagi tong ota qolsa,
Erinchak tilagi kun bota qolsa.
36. Ahmoq kulgiga to'yimas,
Yalqov – uyquga.
37. Osh bo'lsa-yu, ish bo'lmasa,
Yoz bo'lsa-yu, qish bo'lmasa.
Kunda-kunda to'y bo'lsa,
Haftada hayit bo'lsa.
38. O'rtada bir kun bo'lsa,
U ham juma⁷¹ bo'lsa.

⁷¹ Ilgari juma dam olish kuni hisoblangan.

39. Ishchanga yilda bayram.
Yalqovga kunda bayram.
40. Ishchan baxtin ishidan izlar,
Yalqov baxtin kishidan izlar.

Qirq to'rt parema qatnashadigan sinonimik uyalar

Ko'pchilik birlashib, hamjihat bo'lib ishga kirishsa, har qanday mushkul ishning ham uddasidan chiqa oladi, degan ma'noda ishlatiladi:

1. Ko'pdan quyon qochib qutulmas.
2. Ko'p yoyilsa, yo'q topilar.
3. Ko'pchilik tikilsa, tog' qular.
4. Chivin birlashsa, filni holdan toydirar.
5. Chumoli birlashsa, chayonni yiqar.
6. Ko'pda Xizr bor.
7. Xalq unasa xon tuyasin so'yar.
8. Ko'p tupursa, ko'l bo'lar.
9. El bilan kesilgan barmoqdan qon chiqmas.
10. Ko'plashgan yovni qochirar.
11. Birlashganni bo'ri yemas.
12. Birlashgan o'zar,
Birlashmagan to'zar.
13. Birlashgan tog'ni talqon qilar.
14. Yolg'izning yoyi yo'qolsa ham topilmaydi,
15. Ko'pning o'qi yo'qolsa ham topilar.
16. Xalq puflasa bo'ron bo'lar,
Xalq tepinsa – zilzila.
17. Elning kuchi – ellik botmon.
18. Yetti chumoli birlashib bir yovni yiqitadi.
19. Ko'pchilik bir burdadan bersa to'ydiradi,
Bir mushtdan ursa o'ldiradi.

20. El bor yerda chumchuq o'lmas.
21. Ko'p og'iz bir bo'lsa,
Bir og'iz yer bo'lar.
22. Bir tovushni ko'p tovush yo'q qilar.
23. Ko'p og'iz bir og'izni bog'lar.
24. Ko'pning ishi yitarmi,
Ozning ishi bitarmi,
Ko'p ichida bir yolg'iz so'ylasa,
Uning so'zi o'tarmi?
25. Ko'pning ko'lankasi – oltin.
26. Ko'p adashmas,
Ko'l tovsilmas (tovsilmoq – kamayib qolmas).
27. Ko'pning molini o'g'ri olmas.
28. Ko'pda karam bor (karam – marhamat, muruvvat, himmat, saxovat).
29. Ko'pni ko'pchilik ko'taradi.
30. Ko'pda baraka bor.
31. Ko'p to'kilsa ko'l bo'lar,
Ko'p biriksa el bo'lar.
32. Ko'pchilik ko'l,
Unumi mo'l.
33. Ko'pning tilagi – ko'l.
34. Birlik bo'lmay, tiriklik bo'lmas.
35. Ko'pchilik qayda bo'lsa,
To'qchilik shunda bo'lur.
36. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar,
To'rtovlon tugal bo'lsa, unmaganni undirar.
37. Bu dunyo o'tar-ketar,
Totuvlikka ne yetar?
38. Suyanishgan yiqilmas.
39. Ko'p bilsang ham ko'pchilikday bilmaysan.
40. Dovonlardan ot oshirar,
Ahillarga baxt ochilar.

41. Xalqqa xonning kuchi ham yetmaydi.
42. El qo'llasa otingni so'y.
43. Suvning oqishiga qara,
Xalqning xohishiga qara.
44. Ko'p bilan ko'rgan – to'y.
Yurt bilan kelgan aza ham – to'y.

...Yo'l-yo'riq mo'jiza bo'lmasa, mehnat mo'jiza bo'lmasa – shu qirda kolxoz tuzilib, shu bino qad ko'tararmidi!...

– Ha, bolam, ko'pdan quyon qochib qutulmaydi. Bahorda shu yerlarni ko'rib vahmim kelgan edi. Mana, ko'rsang orzu qilguday qishloqqa aylandi, kim biladi, yanagi yilga yana qanday tusga kiradi («Bir kecha fojiasi», 202-bet).

Ko'pdan quyon qutulmas deyilganidek, ko'rimsiz, axlatxona bo'lib yotgan; hovliga to'rt barobar keladigan maydon to anhor labigacha bir necha soatda tozalanib, tekislandi, yer chopilib, ariq ham tortib qo'yildi («Hazrati inson», 309-bet).

Halol mehnat insonni ulug'laydi, bezaydi, ham jismonan, ham ruhan chiniqtiradi, martabaga erishtiradi, kishiga huzur-halovat baxsh etadi; mehnatsevarlik, tirishqoqlik hamma vaqt kishini saodatga erishtiradi, mehnat bilan topilgan rizq ham totli bo'ladi:

1. Mehnat, mehnatning tagi – rohat.
2. Yetmish go'zallikning bittasi – mehnat.
3. Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,
Odam mehnati bilan.
4. Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.
5. Mehnat – rohatning poydevori.
6. Rohatning onasi – mehnat.
7. Mehnatning tagi – ziynat.
8. Halol mehnat – mo'l daromad.
9. Halol mehnat – yaxshi odat,
Berur senga saodat.

10. Suvsiz hayot bo'lmas,
Mehnatsiz – rohat.
11. Mehnatsiz rohat yo'q.
12. Zahmat chekmay, rohat topilmas.
13. Mehnatsiz rohat bo'lmas,
Tashvishsiz – ne'mat.
14. Mehnat qilmay rohat ko'rmas,
Urug' sepmay ekin o'rmas.
15. Hurmating – savlating,
Mehnating – davlating.
16. Xazina g'oyibdan emas, mehnatdan.
17. Mehnat qilsang yasharsan,
Katta-katta osharsan.
18. Oz yesang ko'p yashaysan,
Mehnati qilsang ko'p oshaysan.
19. Emgak (emgak – mehnat) etsang emarsan.
20. Mehnat qilgan moy oshar.
21. Mehnat qilib topganing –
Qand-u asal totganing.
22. Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush bo'lar chiroylik.
23. Ishlab topganning oshi – lazzatli.
24. Olamda mehnat nonidan shirin narsa yo'q.
25. Mehnat noni – qaymoq non.
26. Ter to'kib topgan mol – husnga xol.
27. Tekin topganga holva shirin,
Mehnati bilan topganga – non shirin.
28. Mehnat qilgan – ne yaxshi,
Unumin yegan – undan yaxshi.
29. Mehnat yerda qolmas.

30. Mehnat el baxtini tuzar.
31. Mehnat baxt keltirar,
G'iybat – lat.
32. Qilingan mehnat – beminnat ovqat.
33. Bugungi qora ter ertangi oq dur.
34. Terga botgan – zarga botgan.
35. Tani – tuproqdan, hosili – ketmondan.
36. Yerning qaymog'i – mehnat qilganniki.
37. Ter to'kib sochsang urug',
Yer seni qo'ymas qurug'.
38. To'kilsa manglay tering,
Unumli bo'lar yering.
39. Ter to'kkanga yer to'kadi.
40. Tinmasang tinasan.
41. Tirishgan tog'dan oshar,
Ter to'kkan baxtli yashar.
42. Ter to'kkanga besh yong'oq,
To'kmaganga – puch yong'oq.
43. Ot tuyog'idan topadi,
Odam – qo'lidan.
44. Obro'ning onasi – mehnat,
Otasi sa'y-harakat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayniy Sadriddin. Doxunda. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1956. – 356 b.
2. Ayniy Sadriddin. Sudxo'ming o'limi. – T.: O'qituvchi, 1973. – 126 b.
3. Ayniy Sadriddin. Eski maktab. Qissalar. – T.: Yulduzcha, 1988. – 240 b.
4. Ayniy Sadriddin. Qullar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 386 b.
5. Aytmatov Chingiz. Somon yo'li. Povest va hikoyalar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1965. – 268 b.
6. Alpomish. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 400 b.
7. Aminov Ne'mat. Qahqaha. Qissalar va hikoyalar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 352 b.
8. Anvar Said. Oraliqdagi odamlar. Vali Bobomurobov. Bir yuz o'n bir kun. Qissalar. – T.: Yulduzcha, 1989. – 176 b.
9. Ahmad Said. Jimjitlik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 320 b.
10. Ahmad Said. Ufq. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – 688 b.
11. Ahmad Said. G'ildirak. Qissa, hikoyalar. Pesalar. Rezgilar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – 320 b.
12. Bobomurodov Vali. Oq boshli ilon. – Buxoro: Buxoro, 1994. – 72 b.
13. Gulxaniy. Zarbulmasal. – T.: O'qituvchi, 1972. – 56 b.
14. “Yoshlik” kutubxonasi. Nasr, nazm, tarjima. Sen uchun yonib. Birinchi kitob. – T.: Yosh gvardiya, 1988. – 225 b.
15. “Yoshlik” kutubxonasi. Nasr, nazm, tarjima. Shu kunlar shiddati. Ikkinchi kitob. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – 272 b.
16. “Yoshlik” kutubxonasi. Nasr, nazm, tarjima. Uyg'oq kunlar. Uchinchi kitob. – T.: Yosh gvardiya, 1990. – 304 b.

17. Malik Tohir. Shaytanat. Birinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1994. – 384 b.
18. Malik Tohir. Shaytanat. Ikkinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1996. – 384 b.
19. Malik Tohir. Shaytanat. Uchinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1997. – 384 b.
20. Malik Tohir. Shaytanat. To‘rtinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 2001. – 480 b.
21. Malik Tohir. Shaytanat. Beshinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 2011. – 640 b.
22. Muxtorov Omon. Ayollar mamlakati va saltanati. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1997. – 188 b.
23. Muxtorov Omon. Egilgan bosh. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – 256 b.
24. Nazarov Uchqun. Chayon yili. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990. – 240 b.
25. Niyoziy H.H. Boy ila xizmatchi. – T.: Yosh gvardiya, 1988. – 86 b.
26. Niyoziy H.H. TAT. To‘rtinchi tom. Dramalar. (1921–1928). – T.: Fan, 1989. – 348 b.
27. Normatov Meli. Eng gullagan yoshlik chog‘imda. – T.: Yosh gvardiya, 1986. – 224 b.
28. Normatov Nodir. Jarlikdan qushlar uchdi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. – 160 b.
29. Oybek. Ulug‘ yo‘l. – T.: O‘qituvchi, 1978. – 396 b.
30. Oybek. Qutlug‘ qon. – T.: O‘qituvchi, 1966. – 418 b.
31. Otaxonov Olim. Ozod qushlar haqida qo‘shiq. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – 144 b.
32. Rashidov Sharof. Bo‘rondan kuchli. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. – 248 b.
33. Siyoyev Sa‘dulla. Avaz. – T.: Yosh gvardiya, 1987. – 384 b.
34. To‘xtaboyev Xudoyberdi. Qasoskorning oltin boshi. – T.: O‘qituvchi, 1983. – 320 b.
35. Usmonov O‘ktam. Girdob. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 560 b.

36. Fayziy Rahmat. Asarlar. Uch jildlik. Birinchi jild. Hazrati inson. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1978. – 520 b.
37. Choʻlpon. Kecha va kunduz. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konsemining Bosh tahririyati, 2001. – 287 b.
38. Shuhrat. Oltin zanglamas. TA. Uch jildlik. Ikkinchi jild. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1970. – 408 b.
39. Shuhrat. Shinelli yillar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1980. – 600 b.
40. Qahhorov Abdulla. Asarlar. Besh jildlik. Uchinchi jild. Oʻtmishdan ertaklar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1988. – 368 b.
41. Qahhorov Abdulla. Besh jildlik. Toʻrtinchi jild. Ayajonlarim. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1988. – 336 b.
42. Qodiriy Abdulla. Oʻtgan kunlar. – T.: Oʻqituvchi, 1985. – 398 b.
43. Qodiriy Abdulla. Gʻirvonlik mallavoy. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1987. – 352 b.
44. Qodirov Pirimqul. Saylanma. Uch jildlik. Ikkinchi jild. Qora koʻzlar. Meros. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1988. – 416 b.
45. Qodirov Pirimqul. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. Yulduzli tunlar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1988. – 448 b.
46. Gʻulom Gʻafur. Jomasi pok, oʻzi nopok bandalar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1986. – 126 b.
47. Gʻulom Gʻafur. Shum bola. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1983. – 224 b.
48. Hazratqulov Mamatqul. Intizor. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1986. – 160 b.
49. Hoshimov Oʻtkir. Ikki eshik orasi. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1986. – 560 b.
50. Hoshimov Oʻtkir. Nur borki, soya bor. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1977. – 240 b.
51. Hoshimov Oʻtkir. Tushda kechgan umrlar. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti, 2002. – 142 b.

MUNDARIJA

Kirish	3
Maqol, matal, maqol-matal tipidagi paremlar	6
Paremlarda sinonimlik	8
Paremlar sinonimiyasi va ko'p ma'nolilik	11
Bir ma'noli paremlar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalar	12
Ko'p ma'noli paremlar qatnashadigan ma'nodoshlik uyalar	12
Biror parema ko'p ma'noli bo'lgan ma'nodoshlik uyalar	12
Barcha parema ko'p ma'noli bo'lgan ma'nodoshlik uyalar	13
Sinonim paremlar asosida yotgan obraz	14
Asosida boshqa-boshqa obraz yotuvchi sinonim paremlar	14
Ikki parema qatnashadigan uya	14
Uch parema qatnashadigan uya	14
Asosida ayni bir obraz yotuvchi sinonim paremlar	14
Sinonim paremlarning ma'no qirrasida farqlanishi	15
Sinonim paremlarning grammatik qurilishi	17
Grammatik qurilishi bir xil sinonim paremlar	17
Grammatik qurilishi har xil sinonim paremlar	18
Lug'at. Ikki parema qatnashadigan sinonimik uyalar	19
Uch parema qatnashadigan sinonimik uyalar	29
To'rt parema qatnashadigan sinonimik uyalar	43
Besh parema qatnashadigan sinonimik uyalar	58
Olti parema qatnashadigan sinonimik uyalar	66
Yetti parema qatnashadigan sinonimik uyalar	78
Sakkiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar	87
To'qqiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar	91
O'n parema qatnashadigan sinonimik uyalar	94

O'n bir parema qatnashadigan sinonimik uyalar.....	98
O'n ikki parema qatnashadigan sinonimik uyalar	105
O'n uch parema qatnashadigan sinonimik uyalar.....	106
O'n to'rt maqol qatnashadigan sinonimik uyalar	110
O'n besh maqol qatnashadigan sinonimik uya.....	112
O'n olti maqol qatnashadigan sinonimik uyalar.....	113
O'n yetti parema qatnashadigan sinonimik uya	116
O'n to'qqiz parema qatnashadigan sinonimik uyalar	117
Yigirma parema qatnashadigan sinonimik uya	118
Yigirma bir parema qatnashadigan sinonimik uyalar	120
Yigirma ikki parema qatnashadigan sinonimik uya	121
Yigirma uch parema qatnashadigan sinonimik uya.....	122
Yigirma to'rt parema qatnashadigan sinonimik uya.....	123
Yigirma yetti parema qatnashadigan sinonimik uya.....	125
Yigirma sakkiz parema qatnashadigan sinonimik uya.....	126
O'ttiz parema qatnashadigan sinonimik uya	127
O'ttiz besh parema qatnashadigan sinonimik uya	129
Qirq parema qatnashadigan sinonimik uya	131
Qirq to'rt parema qatnashadigan sinonimik uyalar.....	133
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	138

Adabiy-badiiy nashr

BIBISH JO'RAYEVA

**O'ZBEK XALQ PAREMALARINING
SINONIMIK LUG'ATI**

Musahhih:

Y.Abdukarimov

Sahifalovchi:

M.Zoyitova

Nashriyot litsenziyasi AI № 023. 27.10.2018.

“Kafolat print company” nashriyoti. Toshkent sh., Istirohat ko‘chasi, 1-uy.

Bosishga 27.02.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.

“Times New Roman” garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Buyurtma № 388. Shartli bosma tabog‘i 9,25. Nashr bosma tabog‘i 9,5.

Adadi 1000 nusxa.

“MMM BIZNES PRINT” MChJ matbaa bo‘limida chop etildi.

Toshkent shahri, Istirohat ko‘chasi, 1-uy. Tel.: +998 90 914-84-64.



ISBN 978-9943-0012-1



9 789943 001213